

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

D.Q. Ergeshova, M.K. Najimov

YURIDIK KONFLIKTOLOGIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliv yuridik o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY
JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT
2007**

Ergeshova D.Q.

Yuridik konfliktologiya: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l./ D.Q. Ergeshova, M.K. Najimov; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2007. – 96 b.

I. Najimov M.K.

BBK 67я73

Toshkent davlat yuridik instituti O'quv-uslubiy kengashining qaroriga ko'ra nashrga tavsija etildi (2004-yil 25-noyabr 3-sonli bayonnomma).

Mazkur o'quv qo'llanma huquqshunoslikning rivojlanib kelayotgan fanlaridan biri «Yuridik konfliktologiya»ga bag'ishlangan bo'lib, unda yuridik konfliktlar tushunchasi, tabiatи va mohiyati, turlari hamda ularni hal etish va boshqarishning yuridik mehanizmi va muammolari, muayyan sharoitlarda ularning oldini olish usullarini ishlab chiqish, o'rganish va amaliyatga joriy etish kabi masalalar yoritilgan. O'quv qo'llanmani tayyorlashda mamlakatimizda va xorijda e'lon qilingan yuridik adabiyotlar, ilmiy jurnal va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalar va risolalardan foydalanilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma jamiyatda vujudga keluvchi ijtimoiy konfliktlarni qonuniy yo'l bilan bartaraf etish muammolari bilan qiziquvchi mutaxassislarga, oliy yuridik o'quv yurtlari o'qituvchilari va aspirantlari, magistratura tinglovchilari va talabalarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: yuridik fanlari doktori, professor Z.M. Islomov

Taqrizchilar: yuridik fanlari nomzodi, dotsent M.A. Axmedshayeva

yuridik fanlari nomzodi, dotsent L.F. Kashinskaya

yuridik fanlari nomzodi B.I. Ismoilov

ISBN 978-9943-319-20-2

KIRISH

Konfliktologiya – ijtimoiy konfliktlarning sabablari, shakllari, rivojlanishi hamda ularni hal qilish va oldini olish haqidagi fandir. Yuridik konfliktologiya barcha mazkur masalalarni huquq nuqtayi nazaridan qarab chiqadi. U huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan yuridik konfliktlarning sabablari, shakllari va dinamikasini o‘rganadi, shuningdek, huquq bilan nazarda tutilgan konfliktlarni tartibga solish usullari va vositalarini ishlab chiqadi.

Sobiq Sovet Ittifoqida yuridik konfliktologiya umumiy konfliktologiya singari uzoq vaqt mobaynida tan olinmadi va rivojlanmay keldi. Buni sovet davridagi sotsialistik jamiat uchun ijtimoiy ziddiyatlar va konfliktlarni umuman begona hodisa deb talqin qiluvchi «konfliktsizlik nazariyasasi» hukmronligi bilan izohlash mumkin. Shunga qaramasdan, turli-tuman konfliktlar iqtisodda, turmushda va siyosiy sohada bo‘lib keldi va hozirda ham yuz bermoqda. Ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan zaruriyat ortib bordi. Bu sohadagi bilimlarning yetishmasligi, ayniqsa, hozirda mintaqamizda millatlararo, hududiy, shaxslararo va boshqa konfliktlarning soni keskin ortib borayotgan va ular rivojlanayotgan bir paytda yanada yaqqol sezildi.

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi va O‘zbekistonning o‘z istiqlol hamda taraqqiyot yo‘lini tanlashi mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida qator o‘zgarishlarni joriy etdi. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: «Chuqur o‘zgarishlar bizning hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Sobiq Ittifoqdagi respublikalardan birinchi bo‘lib pre-zidentlik boshqaruvini joriy etgan ham, keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish, jamiatni tubdan o‘zgartirish va yangilash yo‘liga o‘tib olgan ham bizning respublika bo‘ldi»¹. Bunday o‘zgarishlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq va uning ichki tuzilishiga ta’siri natijalarini ilmiy-amaliy jihatdan izohlab berish huquqshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Yuridik konfliktologiyani o‘rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham ega. Fanning bu sohasi jamiatda yuzaga keluvchi konfliktlarning oldini olishga, ularni hal qilish uchun samarali choralarini qo‘llashga yordam beradi.

Ma’lumki, individlar, ijtimoiy guruhlar yoki davlatlar o‘rtasidagi konfliktlar o‘z-o‘zidan tugashi, zo‘rlik qo‘llash orqali to‘xtatilishi yoki tinch ma’rifiy yo‘l va vositalar bilan hal qilinishi mumkin. Shuningdek,

¹ Karimov I.A. «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» T.: «O‘zbekiston», 1992. 5-b.

sud, arbitraj, parlament va konstitutsiyaviy tartiblar kabi ichki davlat va xalqaro-huquqiy institutlari hamda kelishuvga erishishning boshqa norasmiy vositalari (oqsoqollar kengashi, hakamlik sudlari va b.) ham qo'llaniladi. Shunga qaramasdan, aynan konfliktlarni hal qilishning yuridik mexanizmlari eng maqbul va samarali usullar bo'lib hisoblanadi, chunki ular ziddiyatlarni qonuniy yo'l bilan bartaraf qilish imkonini beradi, vaziyatni barqarorlashtiradi, muayyan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarni yuzaga keltiradi hamda qabul qilingan qarorlar ijrosining davlat yoki xalqaro hamjamiat kuchi va obro'si bilan ta'minlanishini kafolatlaydi.

Konfliktlar tabiatini o'rganish bo'lajak yuristlarga hozirgi zamon murakkab ijtimoiy muhitida maqbul yo'lni izlashga, odatdan tashqari vaziyatlarda va favqulodda sharoitlarda ishonchli qarorlar qabul qilishga, «inson tabiatiga» xos bo'lgan kuchli va zaif jihatlarni chuqur anglashga yordam beradi. Yuridik konfliktologiya fani hozirgi davrda huquqshunos uchun zarur bo'lgan yuridik bilimlar doirasini kengaytiradi.

Yuridik konfliktologiya bo'yicha mazkur o'quv qo'llanma Rossiya Fanlar Akademiyasi Konfliktologik tadqiqotlar markazining mualliflar jamoasi tomonidan 1995-yilda chop etilgan «Юридическая конфликтология» monografiyasi, akademik V.N. Kudryavsev tahriri ostida 1997-yilda chop etilgan «Основы конфликтологии» o'quv qo'llanmasi hamda boshqa adabiyotlar asosida tayyorlandi.

Mazkur fan bo'yicha o'quv qo'llanmasi o'zbek tilida ilk bor nashr qilinayotganligi sababli, ayrim kamchiliklar va munozaralari fikr-mulohazalaridan xoli emas. Mualliflar ushbu o'quv qo'llanma yuzasidan bildiriladigan taklif va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qilib, ularni keyingi nashrlarda albatta e'tiborga oladilar.

I BOB. YURIDIK KONFLIKTOLOGIYA FANINING PREDMETI VA METODLARI

1 §. Yuridik konfliktologiya fanining predmeti va metodi

Konfliktologiya fani tushunchasi va predmeti. Konflikt hozirgi zamonga eng ko‘p darajada xos bo‘lgan tushunchadir.

Ijtimoiy konfliktlar kundalik hayotimizda real voqelikka aylandi. Turli mamlakatlarda shaxtyorlarning ish tashlashlari, siyosiy rahbarlar va partiyalarning o‘zaro kurashi, millatlararo va hududiy nifoqlar, jinoyatchilik dunyosidagi «yechimlar» deyarli doim odamlarni o‘ylantirib qo‘ymoqda, davlat va jamiyat hayotida butunlay yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Kishilar konfliktlar bilan tinimsiz «kurash olib boradilar», biroq ular kamaymay, balki ortib bormoqda. Ro‘y berayotgan iqtisodiy, siyosiy va huquqiy institutlarning qayta tashkil etilishi turli-tuman konfliktlarning avj olish tendensiyalarining o‘zgarishiga hozircha jiddiy ta’sir ko‘rsatgani yo‘q.

Buyuk britaniyalik konfliktolog tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, «Hozirda konfliktlarni hal qilishga ko‘p kuch-g‘ayrat sarflamoqda. XX asr 80-yillarining oxiriga qadar bo‘lib o‘tgan urushlarning aksariyati mamlakatlar o‘rtasida yuz bergen. Endilikda urushlarning ko‘pchiligi fuqarolik va o‘zaro urushlar bo‘lib, qurbanlarning ko‘pi tinch aholiga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda ko‘pincha erkaklar nobud bo‘ladi, «bedarak yo‘qoladi» yoki harbiy harakatlarda qatnashishga ayollar, keksalar va bolalar esa ko‘chib yurishga yoki qochoq bo‘lishga majbur bo‘ladilar.

Ko‘pchilik bu holatni dunyoda «bipolyar» tartib inqirozidan so‘ng sovuq urushning tugashi hamda millatchilik va etnik o‘z-o‘zini anglashning tug‘ilishi bilan tushuntiradilar. Sobiq Sovet Ittifoqi ta’sirining yo‘qolishi ham kapitalizmning mavqeyining ortishiga olib keldi, bu esa kishilar demokratik jamiyatlar va iqtisodiy tizimlarni qurish yo‘lidagi intilishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Keyingi vaqtida Butun jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi xalqaro moliya institutlari ham qashshoq, ham boy mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida hal qiluvchi rol o‘ynay boshladilar. Iqtisodning erkinlashuvi ko‘pincha bu mamlakatlar ichkarisida ziddiyatlar va konfliktlarni chuqurlashtirdi. Ichki konfliktlar sonining ortishi ularning globallashuvi bilan birgalikda ularni alohida buyuk davlatlar nazoratidan chiqib ketishiga olib keldi, shuningdek, harbiy diktatura, siyosiy korrupsiya va iqtisodning kriminallashuvi kabi o‘zaro bog‘liq tendensiylar chuqurlashuvining natijasi bo‘lib qoldi.

Bunga javoban majbuliy konfliktlarni kamaytirish uchun ko‘pgina amaliy va tadqiqotchilik tashabbuslari paydo bo‘ldi. Hukumatlar ham,

qarolik jamiyatni ham ko‘p sohalarda taraqqiyotga xalaqt beruvchi yoki uni umuman to‘xtatib qo‘yuvchi muammolarning yechimini topishga urina boshladi. Yangi tadqiqotlar paydo bo‘ldi va yangi atamalarni ishlab chiqish yuzasidan ishlar olib borildi»¹.

Hozirda ko‘pgina davlatlar inqirozlar, shu jumladan, ziddiyatli vaziyatlarni yengishga tayyor emaslar. XX asrning 80-yillariga qadar amal qilib kelgan jamiyatni konfliktsiz taraqqiyot modeli turli darajadagi davlat boshqaruvini yuzaga kelgan inqirozlar oldida kuchsizligini namoyish qildi. Bunda konflikt nazariyasining ishlab chiqilmaganligi va tegishli tajribaning yo‘qligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Garchi aholining tartibli maqbwl hayot tarzini jamiyat faqat kelishuv orqali ta’minlay olishini tarixiy tajriba ko‘rsatsa-da, biroq amaliyotchilar uchun «konflikt-kelishuv» tushunchalarining nisbati avvalgidek noaniq bo‘lib keldi. Konflikt va murosa qilish muammolarini o‘rganish turli ixtisoslikdagi olimlardan katta kuch-g‘ayrat sarflashni taqozo etadi. G‘arb davlatlarida mana bir necha o‘n yillar davomida va ayniqsa XX asrning oxirida bu ilmiy yo‘nalish asosli ravishda rivojlantirildi. Konfliktlar va ularni hal qilish usullari haqida yuzlab kitoblar chop etilgan, muntazam ravishda jurnallar, referatlar va maqolalar to‘plami nashr qilib borilmoqda. Endilikda mustaqil majmuaviy fan sifatida konfliktologiyani yaratish uchun barcha asoslar mavjud. Bu fanning predmeti bo‘lib kishilik jamiyatidagi konfliktlarning tabiatini, sabablarini o‘rganish hamda ularning oldini olish va hal qilish yo‘llarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, konfliktli muammolarni yuridik fan xulosalari, qoidalar bilan qo‘sib o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Gap shundaki, ko‘p ijtimoiy konfliktlar huquqiy munosabatlar doirasida bo‘lib o‘tadi, yuridik vaziyatlarda yuzaga keladi va, nihoyat, yuridik vositalar bilan hal etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘z faoliyatlarining aksariyat qismini konfliktlar bo‘yicha tergov qilish, ularni ko‘rib chiqish, hal qilish va oldini olishga sarflaydilar. Shu tariqa yuridik konfliktologiya deb nomlanuvchi fanni ishlab chiqishga ehtiyoj yetildi.

Yuridik konfliktologiyu umumiyl konfliktologiyaring bir qismi (yo‘nalishi) bo‘lib, uning predmeti milliy (ichka) yoki xalqaro huquq doirasida yuzaga keladigan, rivojanib boradigan va hal qilinadigan konfliktlarni o‘rganish hisoblanadi.

Ma‘lumki, kishilik jamiyatida konfliktlar: yakka va guruhiy, etnik, davlatlararo darajalarda yuz beradi. *Yuridik konfliktning o‘ziga xosligi shundaki, u shu sanab o‘tilgan darajalarning har birida u yoki bu huquqiy normalarni bajarish (tatliq etish) yoki buzish va tegishlichcha jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki tugatilishi bilan bog‘liq.*

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 27.

Har qanday mamlakatning huquq tizimi va, shuningdek, xalqaro huquq normalari davlat yoki xalqaro hamjamiyat tomonidan sanksiyalanganligi va qo‘riqlanganligi bois yuridik konfliktda ko‘pincha konfliktlashuvchi ikkita tarafdan tashqari uchinchi taraf sifatida huquqni muhofaza qiluvchi (huquqni qo‘llovchi) organlar timsolida davlat ishtirok etadi, bu organlar ertami-kechmi konfliktlarni hal qilishga yoki oldini olishga jaib qilinadi.

Aynan shu holat bilan yuridik konfliktologiyaning muhim tomoni bog‘liq, bu fan faqatgina yuridik konfliktlar tabiatini, sabablari va rivojlanish dinamikasini o‘rganib qolmay, balki ularning oldini olish va hal qilish huquqiy mexanizmlarini ham o‘rganadi. Jamiyat va davlat konfliktlashuvchi taraf-larni murosaga keltirishga yoki ularning qarama-qarshiliklarini majburiy tu-gatishga yo‘naltirilgan sud, arbitraj, parlament tartiblari kabi bir qator mexanizmlarni yaratadi va ulardan foydalanadi. Konfliktlarning oldini olish va hal qilishning yuridik vositalari – bu ichki va xalqaro tanglikni, keskin-lashuvni yumshatishning eng ta’sirchan qurollari hisoblanadi.

Konfliktlogiya va boshqa fanlar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, konfliktologiya, har qanday fan singari boshqa fanlar bilan ham uzviy bog‘liq. Konfliktlogiya birinchi navbatda sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya bilan umumiy jihatlarga ega bo‘lishi bilan juda yaqindir, chunki bu fanlar kishi-lar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadilar. Konfliktlogiya inson xatti-harakatlarining sabablari haqida mulohaza yuritish uchun boy ozuqa beruv-chi tarix fani bilan bog‘liq. Va nihoyat, konfliktlogiya turli xil konfliktlar tabiatini, rivojlanish mexanizmini va oqibatlarini aniqlashtiruvchi siyosat-shunoslik, iqtisod, etnologiya kabi boshqa ijtimoiy fanlar bilan ham ya-qindan hamkorlik qiladi.

2 §. Yuridik konfliktlogiya fanining metodlari

Konfliktli vaziyatlarni hal etishda kuch ishlatalishga bo‘lgan yondashuvning inkor etilishi. Har qanday fan muayyan metodga, ya’ni o‘rganadigan hodisalar va jarayonlarni bilishning usuli (yoki usullari yig‘indisi)ga ega. Yuridik konfliktlogiya fan sifatida jadal shakllanish bosqichida. Shu bois unga tayyor, mukammal haqiqatlar va bilimlar majmuyi sifatida qarash mumkin emas. Unda hali davlat huquqiy amaliyotning ko‘p qiyin muam-molarini hal qilishga yo‘naltirilgan metodlar va yo‘llarning keng tizimi uzel-kesil qaror topmagan.

Yuridik konfliktlogiya psixologiya, huquq nazariyasi, huquq sotsi-ologiyasi tamoyillari asosida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning kompleks yo‘nalishi bo‘lganligi sababli bu fanlarda mavjud bo‘lgan ilmiy bilish-ning metodologik tamoyillari va usullaridan foydalanadi. O‘z navbatida uning o‘zi bu fanlarni o‘z tadqiqotlarning natijalari va metodologik yutuq-lari bilan boyitadi.

Metodologiya demokratik jamiyat uchun eng maqbul bo‘lgan hamkorlik strategiyasini, konfliktlarni kelishish orqali hal etish, konsensusuga erishish yo‘llarini nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, yuridik konfliktologiyaning muhim metodologik tamoyili – konfliktli vaziyatlarni hal qilishda kuch ishlatishni inkor etish ekanligini ta’kidlash o‘ta muhimdir.

Insoniyatning tarixiy o‘tmishi zo‘rlikning oqibatda behuda ekanligini tushunishga, maqbul va muqobil qarorlarni izlab topishga undaydi.

Asosiy yondashuvlar. Fan metodologiyasi. Ilmiy metodologiyaga falfasif dunyoqarash bilan belgilanuvchi tadqiqotning muayyan bosh tamoyillari, mantiqiy usullari va maxsus metodlarini qo‘llash sifatida qarash mumkin.

Yuridik konfliktologiyaning metodologik asosi yetarli darajada murakkabdir. U umumlashganlik darjasini va bilish vazifalariga qarab turlicha usullarni o‘z ichiga oladi, ya’ni:

- barcha aniq fanlarda va ilmiy bilishning turli bosqichlarida qo‘llaniladigan umumiylarsa falsafiy metodlar;
- muayyan huquqiy hodisalar va jarayonlarni bilishda foydalananiladigan maxsus yoki xususiy metodlar: statistik, aniq-sotsiologik, qiyosiy-huquqiy, psixologik, matematik metodlar.

Falsafiy ta’limotga ko‘ra, hissiy va nazariy yondashuvlar ilmiy bilishning asosiy yondashuvlari, ilmiy bilishning ikki bosh shakllaridir. Hissiy va nazariy yondashuvlarning farqlanishi negizida ilmiy bilish, yuridik sohadada esa huquq va davlat hodisalarini, shuningdek, konfliktli jarayonlarni ajratib o‘rganish yotadi. Birinchi yo‘nalish bevosita obyektga yo‘naltiriladi, kuzatuv va eksperiment ma’lumotlariga tayanadi, ikkinchisi konfliktologiyani o‘rganish va tushunish jarayonini rivojlantirish hamda takomillashtirish bilan bog‘liq va obyektiv borliqni har tomonlama va mukammal bilishni o‘z maqsadi deb biladi. Ikkala yondashuv o‘zaro aloqador va biri ikkinchisini taqozo etadi. Hissiy yondashuv kuzatuv va eksperiment natijasida yangi ma’lumotlarni aniqlashga qaratiladi, nazariy tadqiqotning rivojlanishiga turki bo‘ladi, uning oldiga yangi vazifalarini qo‘yadi. Nazariy yondashuv fanning nazariy mazmunini boyitadi va rivojlantiradi, yangi istiqbollarni belgilaydi, faktlarni izohlaydi, hissiy tadqiqotlarni umumlashтиради ва yo‘naltiradi.

Mantiqiy va tarixiy metodlar fanning mavhumlikdan aniqlikka o‘tishi bilan bog‘liq. Ular nazariyaning mazmunini tashkil etuvchi tushunchalar, ta’riflar, kategoriyalarni ishlab chiqishning tartibi va ketma-ketligini belgilaydi.

Konfliktlarni o‘rganishda qaysi metod yoki yondashuv qo‘llanilmasin, ular ijtimoiy-huquqiy hodisalarning rivojlanish dialektikasini e’tiborga olishi kerak.

Fan kategoriyalari. Dialektika qonunlari huquqiy tadqiqotlarda muhim

ahamiyat kasb etuvchi bilishning mantiqiy vositalari bilan uzviy aloqada bo'ladilar. Masalan, analiz yordamida yaxlit huquqiy tizim alohida tarkibiy qismlarga bo'linadi (huquq normalari, huquqbazarlik, yuridik faktlar va h.), ularning har biri mustaqil o'rganiladi, so'ng barcha qismlar sintez yordamida o'ziga xos jihatlari bilan umumlashtiriladi.

Dialektikaning asosiy kategoriyalari – umumiyl belgilar va aloqadorlikni aks ettiruvchi tushunchalardir, ya'ni bu belgilar va aloqadorlik ijtimoiy hayot hodisalari va predmetlariga hech bir istisnosiz taalluqli bo'ladi, demak, yuridik konfliktlarga ham xos xususiyatlardir.

Serbiyalik olim R. Lukichning ta'kidlashicha, «Huquqqa xos maxsus metodlarni qo'llash uchun zarur bilimlarga ega bo'limgan «sof» dialektikdan yaxshi yurist chiqmaydi. Shuningdek, faqat maxsus, sof professional metodlar doirasida qolib huquqqa eng umumiyl, dialektik metod nuqtayi nazaridan yondashmaslik ham yaxshi yurist uchun xos bo'limgan xususiyat hisoblanadi»¹.

Asosiy falsafiy kategoriylar bo'lib, yakka va umumiyl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, imkoniyat va borliq kabi juft kategoriylar kiradi. Masalan, sabab va oqibat kategoriylarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, «ijtimoiy munosabatlar – huquq normalari» nisbatida ijtimoiy munosabatlar – sabab, huquq normalari – oqibat sifatida namoyon bo'ladi. Huquqni qo'llash jarayonida insonning haqiqiy faktik xulq-atvori yuridik normani qo'llash uchun sabab (asos) bo'ladi. Huquq normasi va unda nazarda tutilgan yuridik oqibatlar xulq-atvorga nisbatan oqibat hisoblanadi.

Metodlar. Yuridik konfliktologiya ilmiy bilishning maxsus va xususiy metodlaridan foydalanadi.

Yuridik bilimning bir tarmog'i sifatida yuridik konfliktologiya tafakkurning mavhum faoliyati natijalari aks etgan huquq mohiyati, mazmuni va shakllari, bir butun huquqiy tizimni va qonunchilikni takomillashtirish, huquq ijod etishning umumiyl ilmiy tushunchalarisiz, huquq tatbiq etish, uni sharhlash, huquqiy munosabatlar, qonuniylik va huquqiy tartibot, huquqiy xulq-atvor va yuridik javobgarlik, shuningdek, demokratiya, jamiyatning siyosiy tashkiloti, davlat, uning mohiyati, mazmuni va shakllari, mexanizmi va funksiyalari, huquq ijod etish va huquq qo'llash faoliyati kabi kategoriyalarsiz rivojlanishi mumkin emas.

Fanning umumiyl kategoriyalari xususiy metodlarni inkor etmay, balki taqozo etadi.

Mantiqiy metod huquqni mantiqiy o'rganish, izohlash vositalari va usullarini o'z ichiga oladi, tafakkur shakllariga va dialektika, mantiq qonunlariga asoslanadi.

¹ Qarang: Лукич Л. Методология права. М., 1981. С. 43.

Mantiq qonunlarining har biri (ayniyat, qarama-qarshilik, uchinchisini istisno etish, yetarli asoslantirish va h.) huquq xususiyatlarini ifodalash orqali huquqda o‘zini to‘la namoyon etadi. Barcha asosiy huquqiy va tartibga solish jarayonlari (eng avvalo, huquq ijod etish va huquqni qo‘llash) tushunchalar, xulosalarni tahlil etish qoidalari – tafakkur shakllari bilan qat’iy mos holda amalgalashiriladi.

Huquqdagi konfliktli holatlarni o‘rganishda va tushunishda mantiq vositalaridan foydalanish qonunchilikni shakllantirishda ziddiyatlarga yo‘l qo‘ymaslikka, mantiqan ziddiyatli bo‘lmagan va shu bilan huquqning eng samarali tizimini bunyod etishga, yuridik normalarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llashga imkon beradi.

Qiyosiy metod yuridik tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni taqqoslashni hamda ulardagisi o‘xshash yoki farqlanuvchi jihatlarni aniqlashni taqozo etadi. Taqqoslash natijasida yaxlit huquqiy tizimning yoki alohida huquqiy institutlar va normalarning, ularning uyg‘unlik va muvofiqlik sifat holati aniqlanadi.

Sotsiologik (aniq-sotsiologik) metod yuridik konfliktlarning turli xillarini, qabul qilinadigan qarorlarning qanday natija berishini, shuningdek, huquqiy tartibga solish yoki huquqiy muhofazaning ishonchliligi va o‘z vaqtida bo‘lishini o‘rganishda samarali foyda berishi mumkin. Bunday metod ko‘pgina an‘anaviy muammolarga ijtimoiy amaliyot talablarini e’tiborga olgan holda chuqr yondashib qolmay, balki shu bilan bir qatorda yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Gap shundaki, bozor munosabatlariiga o‘tish jarayonida faqat davlat va huquqning xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini, umumiylarini qoidalarini, tamoyillarini aniqlash yetarli emas. Bunda bu omillar real munosabatlarda qanday amal qilishi mumkin, davlat-huquqiy tizimning butun holida va tizim doirasida uni tashkil etuvchi elementlarning har birini samarali amal qilishini ta‘minlash qanday yo‘llar bilan erishiladi kabi masalalar yechimini topish kerak.

Konflikt muammmosini o‘rganishdagi ilmiy yondashuv havola etilayotgan tavsiyalarning huquqiy sohadagi qarorlarning ijtimoiy ahamiyati va oqibatlarini to‘la baholay olishga imkon beruvchi barcha – ijobjiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin ijtimoiy omillarni atroflicha o‘rganish va hisobga olish asosida ishlab chiqilishini talab etadi.

Bu hollarda huquqiy material mavhum kategoriylar darajasida emas, balki aniq faktlar asosida qaraladi. Huquqni o‘rganishdagi sotsiologik metod statistik ma'lumotlar va turli xil hujjalarni tahlil etish, ijtimoiy-huquqiy eksperiment, aholi o‘rtasida so‘rov nomasi o‘tkazish, ma'lumotlarni qayta ishslashning matematik va statistik metodlarini o‘z ichiga oladi.

Qonunchilikni rivojlantirish, huquqni qo‘llash, jinoyatchilik bilan kurashish faoliyatini yaxshilash faqat kundalik huquqiy hayotning ishonchli faktlariga tayangan holda olib borilsagina asoslantirilgan va haqiqiy bo‘ladi.

Huquqiy sohada sotsiologik metodning qo'llanilishi yuridik fan tarkibida nisbatan mustaqil tarmoq bo'lgan huquq sotsiologiyasining shakllanishiga olib keldi.

Sotsiologik maktab namoyandalarining fikricha, davlat huquqni ijod etmaydi, balki jamiyatning o'zida vujudga keladigan va rivojlanadigan huquqni «kashf etadi», xolos. Bunday yondashuv jamiyatda ro'y beruvchi haqiqiy jarayonlarni o'rganishga e'tiborni yo'naltiradi.

Huquq sotsiologiyasi huquqiy hodisalarni o'rganishning bir qator metodlaridan foydalanadi, masalan, qonun chiqarish faoliyati va jarayoni («qonunchilik sotsiologiyasi»), sudyalar korpusi va karyerasining sotsiologik jihatlarini, aholi alohida guruhining huquqqa va huquq institutlari ga bo'lgan munosabatlarini o'rganish. Bunda yuridik konfliktlogiya uchun kam ahamiyatli bo'lmagan huquqiy ma'lumotlar, shuningdek, huquq sohasida aniq tadqiqotlarni olib borishning metodologik tajribasi to'planadi.

Tadqiqot predmetining murakkablashuvi va kengayib borishi, amaliyot qo'yayotgan yangi talablar borgan sari tadqiqotning ishonchli va qat'iy metodlari bo'lgan matematik, matematik-statistik, modellashtirish kabi metodlarini qo'llashni taqozo etadi. Mantiqiy matematik va statistik metodlar har qanday, shu jumladan, huquq tizimlarida muayyan statistik qonuniyatlarining, miqdoriy ko'rsatkichlarning mavjudligi bilan bog'liqdir. Matematik metod huquqiy hodisalar va jarayonlarni nazariy (mantiqiy) va tarixiy tadqiq qilishning yuqori darajasini taqozo qiladi.

Shunday qilib, muayyan aniq metodni tanlash, undan samarali foydalanish tadqiqot predmeti va vazifalari bilan uzviy bog'liqdir. Eng ko'proq tizimli metod huquqni, qonunni, uning jamiyat bilan konfliktlashuvini kompleks jarayon sifatida o'rganishga imkon beradi. Tadqiqot predmetiga nisbatan mavhum tanlangan metod bilimning ortishiga olib kelmaydi, biroq tadqiqot metodi to'g'ri tanlansa va undan oqilona foydalanilsa, u tadqiqotning bilish faoliyatiga sezilarli xizmat qiladi, uning ilmiy va amaliy samaradorligini oshiradi, to'plangan faktik ma'lumotlarni baholash va tizimlashtirishga, kelajak istiqbolni belgilashga yordam qiladi.

II BOB. YURIDIK KONFLIKTLARNING TABIATI VA TURLARI

1 §. Konflikt tushunchasi, predmeti va obyekti

Konflikt tushunchasi va ta'rifi. Konflikt tushunchasi ilmiy adabiyotda bir xil ma'noda qo'llanilmaydi. «Konflikt» atamasining juda ko'p ta'riflari mavjud. «Konflikt» tushunchasiga nisbatan eng umumi yondashuvga ko'ra u ziddiyatga umumi tushuncha sifatida, eng avvalo, ijtimoiy ziddiyat sifatida qaraladigan tushunchadir.

Har qanday ziddiyatning rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, u obyektiv ziddiyatlarning yuzaga kelishi, avj olishi va hal etilishi asosida ro'y beradi. Marks nazariyasidagi sotsializm g'oyasi sinfiy konfliktlarni inkor etib kelgan. XX asrning 30-yillari oxirida bir qator mualliflar tomonidan sotsialisistik jamiyatning «konfliksiz» rivojlanishi, antagonistik qarama-qarshiliklarning bo'lmasligi haqidagi g'oya ilgari surilgan. Bu g'oya sotsializmda ishlab chiqarish munosabatlarning ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteriga to'liq mos kelishi haqidagi shiorda o'zining to'la ifodasini topgan. Keyinchalik bunday mos kelish faqat bir-biriga qarshi turgan ikki tomonning birligi bilan uyg'unlashgandagina namoyon bo'lishi tan olingan. Mos keleshlik qarama-qarshiliklar birligi doirasida qo'shilgan (birlashgan) vaqtida ziddiyatlar rivojining muayyan bosqichi sifatida talqin qilingan. Boshqa guruh faylasuflar esa sotsializmning asosiy ziddiyatlari bu ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi, ba'zan ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi, eski bilan yangi o'rtasidagi ziddiyat deb tushunganlar. Bir guruh ingliz olimlarning fikricha, «Konfliktlar bu hayotning muqarrar va ko'pincha ijodiy bo'lgan bir qismidir. Konfliktlar insonlarning maqsadlari farqlanganda yuzaga keladi. Kelishmovchiliklar va konfliktlar odatda zo'rlik qo'llanilmasdan hal qilinadi va ko'pincha barcha jalb qilingan tomonlar ahvolini yaxshilanishiga olib keladi. Bu holat konfliktlar bizning mayjudligimizning bir qismi bo'lganligi bois to'la adolatli hisoblanadi»¹.

Demak, ziddiyatlar muammolari muayyan darajada ilmiy adabiyotda olimlar e'tiborini o'ziga tortgan. Biroq bu holatni konfliktlar nazariyasiga taalluqli deb bo'lmaydi, chunki mohiyat jihatidan unga umuman e'tibor berilmagan. Shunga qaramasdan ziddiyatlar va konfliktni, bir tomondan, sinonimlar sifatida hisoblash mumkin emas, boshqa tomondan esa ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib ham bo'lmaydi. Ziddiyatlar, qarama-qarshi turish, tafovutlar – bular konflikt uchun zarur, biroq yetarli shartlar emas. Qarama-qarshi turish va ziddiyatlar qachonki ularni ifodalovchi kuchlar o'zaro ta'sirga, o'zaro munosabatga kirisha boshlaganda konfliktga aylanadi. Shunday qilib, *konflikt obyektiv yoki subyektiv qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar bo'lib, u taraflarning bir-biriga nisbatan qarama-qarshi kurashida ifodalanadi*.

Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, bu fikrni jamiyatga taqqoslaganda gap mavhum kuchlar, kosmik va boshqa tabiiy hodisalar, shuningdek, g'ayrioddiy fenomenlar (taqdir, tanilmagan obyekt va sh.k.) haqida emas, balki ijtimoiy subyektlar sanalgan muayyan odamlar, individlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, siyosiy partiyalar yoki davlatlar haqida boradi.

Gap aynan ijtimoiy (sotsial) konflikt haqida boradi, bunda ikki yoki

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 23.

undan ortiq individ yoki guruhning muayyan maqsadga erishish yo‘lida bir-biriga xalaqt berish, raqobatdoshining manfaatlarini qondirishni yo‘qqa chiqarish yoki uning qarashlarini va ijtimoiy mavqeiyini o‘zgartirish imkoniyatini astoydil, faol tarzda ro‘yboga chiqarish jarayoni nazarda tutiladi. «Konflikt» atamasi analogiya bo‘yicha go‘yoki ko‘p narsaga, hatto jonsiz predmetlarga ham qo‘llanilishi mumkin. Biroq ijtimoiy konfliktlarda ishtirok etuvchi taraflar faqat shaxslar bo‘ladi. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, «Har qanday ishni yoki biror faoliyat turini, shu jumladan, konflikt bilan bevosita bo‘ladigan ishni yoki biror faoliyat turini boshlashdan avval vaziyat qanday va nima sodir bo‘layotganligini bilish shart. Bu «tahlil» deb nomlanadi. Turli insonlar nuqtayi nazarlaridagi tafovutlardan xalos bo‘lishning imkoni yo‘q. Odamlar u yoki bu muammoni birgalikda o‘rgana boshlaganlarida ko‘pincha aynan bir xil faktlar mavjudligi sharoitida ularni go‘yoki bir xil tushunganlardek bo‘lib tuyuladi. Aslida bunday emas. Farqlar butun bir qator ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi: maqom, hokimiyat, boylik, yosh, jins bilan bog‘liq rol, muayyan ijtimoiy guruhga taalluqlik va h. Insonning jamiyatdagi o‘rnini tavsiflovchi bunday ko‘rsatkichlar ko‘pincha insonlarning aynan bir vaziyatdan turli narsalarni kutishlarini anglatadi: ularning maqsadlari farqlansa yoki bir-biri bilan sig‘ishmasa konflikt yuzaga keladi¹. Ijtimoiy konflikt deganda, odatda taraflarning hudud yoki resurslarni egallab olish, muxolifatdagি individlar yoki guruhlarga, ularning mulki yoki madaniyatiga tahdid solishga qaratilgan qarama-qarshi turish turi tushunilib, bunda kurash humum yoki mudofaa shaklida kechadi.

Ijtimoiy konflikt o‘z ichiga, shuningdek, individ yoki guruhning dushman taraf faoliyatini cheklashga, boshqa shaxs yoki guruhlar manfaatiga zarar yetkazishni cheklashga qaratilgan faolligini ham oladi. Konfliktlar muammoси yana qator atamalar: nizolar, debatlar, munozaralar, kim oshdi savdosи, raqbatchilik, nazorat ostidagi kurashlar, egri va to‘g‘ri zo‘ravonlik kabilardan foydalanadi. Ko‘p tadqiqotchilar konfliktni umumiy va tarixiy o‘zgarishlar bilan qo‘sib o‘rganadilar.

Boshqacha qilib aytganda, biz jamiyatning tabiat bilan yoki insonning o‘zi bilan bo‘ladigan «konflikt»larini o‘rganmaymiz. Bu hollarda shubhasiz ziddiyatlar bo‘ladi, biroq «konflikt» so‘zi bunday vaziyatlarda ishlataliganda qo‘shtirmoq ostida yoziladi, chunki u konfliktning asl ma’nosи bilan aynan emas.

Shunday qilib, ijtimoiy konfliktda doimo kamida ikkita qarama-qarshi kurashuvchi taraflarning bo‘lishi zarur. Ularning xatti-harakatlari odatda o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi manfaatlarga erishishga yo‘naltiriladi va demak, ular to‘qnashadilar. Barcha konfliktlar uchun taranglashuv xos

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 23.

bo'lib, unda odamlar o'z harakatlarini u yoki bu tarzda o'zgartirishga, bunday vaziyatdan saqlanishga yoki moslashishga majbur bo'ladi.

Sotsial konfliktga nisbatan eng to'laroq ta'rif adabiyotlarda tadqiqotchi olim Y.M. Babasov tomonidan berilgan: «Ijtimoiy konflikt (lotincha «conflictus» – to'qnashuv) – bu ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashuvining eng oxirgi holati bo'lib, unda turli ijtimoiy uyushmalar – sinflar, millatlar, davlatlar, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar va boshqalarning manfaatlari, maqsadlari, rivojlanish tendensiyalaridagi qarama-qarshiliklar yoki muhim tafovutlar bilan bog'liq bo'lgan holda ular orasida bo'ladigan to'qnashuv namoyon bo'ladi. Ijtimoiy konflikt ijtimoiy muammo yechimini taqozo etuvchi muayyan vaziyatda shakllanadi va hal qilinadi. U yetarli miqdorda sabablarga, o'zining ijtimoiy ifoda etuvchisi (sinflar, millatlar, ijtimoiy guruh va sh.k.)ga, muayyan funksiyalarga, keskinlikning davomiyligiga va darajasiga ega»¹.

Bu ta'rifda konfliktning ba'zi, xususan, ruhiy jihatlari o'z aksini topmagan. Tadqiqotchi Y.G. Zaprudskiy esa aynan shu jihatga alohida e'tiborni qaratgan: «Ijtimoiy konflikt – bu ijtimoiy subyektlar manfaatlari, maqsadlari va rivojlanish tendensiyalaridagi obyektiv farqlar qarama-qarshiligining oshkora yoki yashirin holati, mavjud ijtimoiy tartibga nisbatan qarshi turish asosida ijtimoiy kuchlarning bevosita to'g'ridan to'g'ri va bilvosita to'qnashuvi, yangi ijtimoiy birlikka olib boradigan tarixiy harakatning alohida shaklidir»². Boshqa bir guruh mualliflar esa, konfliktga quyidagicha ta'rif beradilar, ya'ni: «**Konflikt** – sig'ishmaydigan maqsadlarga ega yoki shunday maqsadlar haqida fikr yurituvchi ikki va undan ortiq tomonlar (odamlar va guruhlar) o'rtasidagi munosabatlardir»³.

Bu ta'rif keng va umumiy ko'lamba berilgan, shu bilan birga unda «quyi darajada»gi – turmush, ro'zg'or, oila, mehnat konfliktlari haqida gapi-rilmaydi. T.V. Novikovaning ta'rifiga ko'ra, «Ijtimoiy konflikt – bu taraf- lar (subyektlar) o'zaro munosabatlardagi bir-birini istisno qiluvchi yoki bir-biriga zid bo'lgan muayyan o'z maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan vaziyat-dir»⁴.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarini o'rganishda tadqiqotchilar odatda konfliktologik yondashuvni qo'llaydilar. Xalqaro siyosatda konfliktologik yondashuv katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv yurisprudensiyada ham qo'llanishi mumkin, masalan, jinoyatga odamlar o'rtasidagi konflikt nati-jasi deb qaralgan vaqtida uning paydo bo'lish mexanizmini kuzatish mumkin. Konflikt sud jarayonida ham namoyon bo'ladi (bir tomonidan – ayb-

¹Qarang: Социологический словарь. Минск, 1991. С. 80.

²Qarang: Запрудский Ю.Г. Социальный конфликт. Ростов, 1992. С. 54.

³Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 23.

⁴Социальные конфликты: Экспертиза, прогнозирование, технология разрешения. Вып.1. М., 1991. С. 27

lanuvchi va uning himoyachisi, boshqa tomondan — jabrlanuvchi va qoralovchi).

Konfliktga yaqin turuvchi boshqa hodisalar ham bor, ya'ni: musobaqa, tortishuv, raqobat. Bu hollarda ham taraflarning qarama-qarshi turishi kuzatiladi. Biroq bu qarshi kurash qoida bo'yicha dushmanlik darajasigacha keskin tus olmaydi yoki agar bunday yovuzkorlik mavjud bo'lsa ham (masalan, raqobatda), u boshqa tomonning qonuniy harakatiga to'sqinlik qiluvchi birgalikdagi harakatga aylanmaydi. Har qaysi taraf yutuqqa erishishga intilib, qarshi tomonni yengishga harakat qilib «o'z maydonida» ish ko'radi. Lekin bunda taraflarning harakatlari ijobjiy (pozitiv) bo'lib, ular o'zlarining maksimal yutuqlariga intiladilar, raqibini yengish ular uchun pirovard maqsad emas. Shunday qilib, konflikt va musobaqa aynan bir xil emas, biroq musobaqa konfliktga aylanishi mumkin. Bu hol raqobatga ham taalluqli, raqobatdoshlar bir-biriga to'g'ridan to'g'ri tazyiq ko'rsatishga o'tishlari mumkin.

Ba'zi o'yinlar, ayniqsa, sport o'yinlari konflikt tarzida tashkil qilinadi (masalan, boks). Lekin bu yerda mohiyat bo'yicha gap konfliktga taqlid qilish haqida borayotganligi ravshan. O'yin tugashi bilan «konfliktli» munosabatlar ham tugaydi. Musobaqa o'tgandan so'ng turli komandalar o'yinchilari o'rtasidagi kelishmovchilikning saqlanishi bu qoida emas, balki istisnodir, bu holat sportda rag'batlantirilmaydi.

Konflikt predmeti va obyekti. *Konflikt predmeti deb taraflar o'rtasidagi nifoq (kelishmovchilik)ga sabab bo'lgan obyektiv mavjud bo'lgan yoki fikran tasavvur qilingan muammoga aytiladi.* Har qaysi taraf bu muammoni o'z foydasiga hal qilishdan manfaatdor bo'ladi. Konflikt predmeti — bu shunday ziddiyatki, subyektlar u uchun va uning hal qilinishi uchun qarama-qarshi kurashga kirishadilar. Bu hokimiyatga intilish, biror boylikni egallash, ustun mavqega ega bo'lishi kabi muammolar bo'lishi mumkin.

Konfliktni hal qilish yo'llarini topishda uning predmetini aniqlash muhim, biroq ko'pincha bu qiyinlik bilan kechadi. Ko'p konfliktlar o'ta chalkash va murakkab holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Konfliktlarda bir necha muammolar ustma-ust yuz berishi mumkin. Konflikt predmeti tarkibiy qismalarga bo'linishi mumkin. Bunga uzoq davom etadigan oilaviy kelishmovchiliklar yoki millatlararo konfliktlar misol bo'ladi.

Ishtirokchi taraflar o'rtasida olib boriladigan muzokaralarda konflikt predmeti oydinlashtiriladi, bunda taraflar bir-birining maqsad va pozitsiyalarini aniqlashtiradilar.

Konflikt obyekti deganda taraflar egallashga yoki undan foydalanishga intiladigan muayyan moddiy yoki ma'naviy boylik tushuniladi.

Konflikt obyekti bo'lib shaxsiy, guruhiy, ijtimoiy, davlat manfaatlari ning predmeti bo'lган moddiy dunyo va ijtimoiy borliqning istalgan elementi hisoblanadi. Bu element konflikt predmeti bo'lishi uchun turli ijtimoiy subyektlar manfaatlari to'qnashadigan nuqtada bo'lishi kerak, sub-

yektlar bunday element ustidan shaxsiy kontrol yuritishga harakat qiladilar. Bunday vaziyatlarga misol: 'kichik yoshdagi bolalar chiroyli o'yinchoq us-tida talashadilar yoki u yoki bu hududning tegishliligi haqidagi masala hal qilinmaganligi uchun davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning taranglashuvi.

Munosabatlarning muayyan tizimida konflikt bu doimo birorta resurs-ning yetishmovchiligidir: bitta direktor lavozimiga ikkita o'rribbosarning da'vogarligi, do'konda tanqis mahsulot olish uchun navbatda turganlar o'rtasida bo'ladigan janjal. Resurslar tanqisligini kompensatsiya qilish ko'pincha yuzaga kelgan muammoni bordaniga hal qilishi mumkin. Kishilar kundalik hayotlarida to'qnash keladigan ko'p sonli muammolarni shu tariqa yo'q qilishga erishishi mumkin emas. Oddiy, tipik konfliktlar obyektlarini ajratish eng umumiy xarakterdagi muammolar darajasini aniqlashga imkon beradi. Masalan, kundalik turmushimizga xos bo'lgan transport va navbatda turishda bo'ladigan konfliktlar davlat miqyosidagi transport qatnovi va tovar ta'minoti tanqisligi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Ba'zan konfliktlar aniq obyektga ega bo'imasligi mumkin, ya'ni obyekti bor konfliktlar bilan birga obyektsiz konfliktlar bo'lishi mumkin, bunda subyektlarning birorta narsa ustidan nazorat qilishi o'zaro maqsad-intilishlari istisno qilinadi. Masalan: ko'p qavatli uylarda yonma-yon yashovchi qo'shni xonadonlarning birida uy egasi ilmiy asarni yozish bilan band bo'lganda, qo'shnisi pianinoda mashq qila boshlaydi. Birinchi qo'shni ikkinchisiga murojaat qiladi va shu tariqa konflikt yuzaga keladi. Bu konfliktda qo'shnilar birorta narsa ustidan nazorat o'rnatishga intilmaydilar, balki birinchisining samarali ishlashiga ikkinchisi xalaqit beradi. Yoki jinoiy ish yuritish amaliyotida shunday holatlar uchraydiki, tasodifiy o'tkinchi bezoriga tanbeh beradi, shunda konflikt avj olishi mumkin. Bunda konflikt bir subyekt tomonidan ikkinchisining axloqiy qarashlarini buzish orqasida ro'y beradi.

2 §. Konflikt chegaralari

Konflikt tabiatini va uning o'xhash vogeliklardan farqini tushunish uchun uning chegaralarini, ya'ni uning makon va vaqtligi tashqi doirasini aniqlash muhim.

Konflikt chegaralarini aniqlashda uch xil nuqtayi nazarga asoslanish mumkin: makon — fazoviy chegara, vaqt chegarasi, ichki tizim chegarasi.

Konfliktning makon (maydon) chegarasi konflikt yuz beradigan joy, hudud bilan belgilanadi. Bu hudud turlicha bo'lishi mumkin, masalan, turar joy maydonidan boshlanib, butun yer shari bilan tugashi mumkin, ya'ni oshxonadagi janjal yoki jahon urushi. Konfliktning makondagi chegaralarini aniq belgilash asosan xalqaro munosabatlarda muhim bo'lib, konflikt ishtirokchilarining muammolari bilan bog'liq. Bunday masala ya-

qin o't mishda Tog'li Qorabog', Dneprbo'yi, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz, Checheniston va boshqa joylarda millatlararo konfliktlarda bir necha marta o'rta ga qo'yildi. Bu yerlarda zarur choralarni ko'rish uchun konfliktning hududiy chegaralari zonasini aniq belgilash lozim bo'ldi.

Vaqt chegaralari – bu konfliktning davomiyligi, uning boshlanishi va tugashidir. Konflikt boshlanganligi, davom etayotganligi yoki tugab bo'lganligi haqida xulosa qilish vaqtning u yoki bu daqiqasida konflikt ishtirokchilari harakatlariiga yuridik baho berishga bog'liq. Bu holat ayniqsa konfliktga yangidan kelib qo'shilgan shaxslarning roliga to'g'ri baho berishda o'ta muhim.

Konfliktning boshlanishi ikkinchi tarafga yo'naltirilgan ta'sir harakatning obyektiv (tashqi) harakatlari bilan boshlanadi, bunda ikkinchi taraf bu harakatlarning unga qarshi yo'naltirilganligini tushunishi shart va shunda u ham qarshi kurash boshlaydi. Konfliktni boshlangan deb hisoblash uchun kamida uchta shartning bo'lishi shart:

1) birinchi ishtirokchi ikkinchi ishtirokchiga, ya'ni o'z raqibi manfaatiga zid ravishda faol va ongli tarzda harakat qiladi; bu yerda harakat deganda ham jismoniy harakat, ham axborot berish (og'zaki nutq, matbuot, televideniye va b.) tushuniladi;

2) ikkinchi ishtirokchi (raqib) ushbu harakatlar uning manfaatlariga qarshi qaratilganligini tushunib yetishi kerak;

3) yuqoridaq holatlardan kelib chiqib, ikkinchi ishtirokchi birinchi ishtirokchiga qarshi qaratilgan va unga javoban faol harakat-choralarni ko'radi. Shu daqiqadan boshlab konflikt boshlangan deb hisoblanadi.

Agar faqat bиргина ishtirokchi harakat qilsa (bir tomonlama) yoki harakatlarini fikran rejalshtirsa (harakatlarini oldindan o'ylab reja tuzsa, raqib harakatlarini tasavvur etsa, bo'lajak konfliktning qanday kechishini bashorat qilsa) – bu hollarda konflikt bo'lmaydi. Biroq bo'lg'usi harakatlarni oldindan rejalshtirish konflikt uchun poydevor bo'lib hisoblanishi mumkin, ba'zi olimlar buni konflikt rivojlanishining latent (yashirin) bosqichi deb ataydilar. Bunday bosqichni ajratib ko'rsatish xalqaro ahamiyatdagi katta konfliktlarni tahlil qilish uchun muhimdir. Sobiq Ittifoqqa hujumni ko'zda tutgan «Barbaross plani»ni Hitler 1940-yilda tasdiqlagan-da sobiq Ittifoq bilan Germaniya o'rtasidagi harbiy konflikt hali boshlanmagan edi, bu konfliktning latent bosqichi bo'lib, ochiq konfliktning boshlanishi 1941–yilning 22-iyuniga to'g'ri kelgan.

Xalqaro munosabatlardagi konflikt faqat taraflarning qarama-qarshi kurashi sifatida bиргина harbiy harakatlardan iborat bo'lib qolmaydi. Zo'rlik vositalarisiz hal qilinadigan diplomatik konflikt, savdo, chegara, siyosiy konfliktlar bo'lishi mumkin. Biroq hamma holatda ham gap taraflarning o'zaro qarama-qarshi harakatlarida (hech bo'lmasa so'z orqali kurashish) haqida boradi. Shunday qilib, konflikt doimo ikki tomonlama yoki ko'p

tomonlama harakat tarzida boshlanadi. Qoida bo'yicha konflikt taraflardan birining harakati bilan boshlanadi, bu esa ko'p hollarda konflikt sababchisini aniqlash imkonini beradi.

Masalan, 1991-yildagi Iroq va Quvayt o'rtasida bo'lgan konfliktning sababchisini aniqlash qiyin bo'limgan. Iroqning qo'shni mamlakatga nisbatan agressiv, bosqinchilik harakati BMT va butun jahon hamjamiyati tomonidan salbiy baholangan.

Rossiya va MDH davlatlarining hududida XX asrning 90-yillarda bo'lib o'tgan ko'p sonli millatlararo konfliktlarning sababchisini aniqlash esa qiyinroq. Dastlabki qadamlarning noaniqligi, harakatlarning chalkashligi, o'zaroy ablovlar, axborotlarning xolis emasligi konfliktning borishini orqaga suradi, uning tez va asoratsiz tugashiga to'sqinlik qiladi, asl aybdorlarning aniqlanishini qiyinlashtiradi.

Konfliktning tugashi bir xil natija bilan yuz bermaydi. Konflikt tamom bo'lishi (masalan, taraflarning kelishuvi bilan), konfliktdan taraflardan birining chiqib ketishi yoki uning yo'q qilinishi (urush tufayli yoki jinoyat sodir etilishida) bilan ro'y berishi mumkin. Nihoyat, konflikt tugatilishi va uning avj olishining to'xtatilishi uchinchi shaxslarning aralashuvi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim hollarda jinoiy konfliktlar shu tariqa tugaydi. Xalqaro munosabatlar amaliyoti xalqaro konfliktlarga barham berish borgan sari uchinchi shaxslar harakatlari va aralashuvi asosida hal etilayotganligini ko'rsatmoqda (BMT qo'shinlarini kiritish, diplomatik vositachilik va b). Aytish o'rinniki, «BMT tinchlik o'matish maqsadida aralashishning bir necha turini farqlaydi. Xavf ostida bo'lganlarga tirik qolish uchun vositalarni zudlik bilan taqdim etishni maqsad qilib qo'ygan insonparvarlik yoki ekstern yordamdan tashqari aralashishning asosiy kategoriyalari quyidagilar hisoblanadi:

tinchliksevarlik: adovatni to'xtatish va bitimga erishish maqsadida zarur bo'lganda diplomatik, siyosiy va harbiy chorallardan foydalangan holdagi aralashuv;

tinchlikni qo'llab-quvvatlash: bitimning bajarilishini zarur bo'lsa kuch ishlatalish yo'li bilan ta'minlash va kuzatish;

tinchlikni barpo etish: uzoq muddatga mo'ljallangan barqarorlik va adolatni ta'minlash maqsadida konflikt sabablari va o'tmish arazlarini yo'qotish bo'yicha dasturni amalga oshirish»¹.

Shunday qilib, konfliktning tugatilishi deb barcha qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning o'zaroy harakatlarining to'xtatilishiga aytildi.

Konfliktning ichki tizi'n chegaralari — har qanday konflikt muayyan tizim ichida: oilada, xizmatdoshlar guruhida, davlatda, xalqaro hamjamiyatda bo'ladi. Ichki tizim aloqalari murakkab va turlichadir. Bir tizimga

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 36.

kiruvchi taraflar o'rtasidagi konflikt juda chuqur, keng ko'lamlı yoki qisman va cheklangan bo'lishi mumkin. Davlatlararo konfliktlarda keskinlashgan o'zaro munosabatlarning yoyilib ketishi, tarqalish xavfi faqat hududda emas, shuningdek, ijtimoiy, milliy, siyosiy jihatdan ham kuchayishi hamda bunday konflikt jamiyatning eng keng qatlamlarini ham qamrab olishi mumkin.

Konfliktning ichki tizim chegaralarini aniqlash uning barcha ishtirokchilarining ichidan aynan konfliktlashuvchi taraflarni aniq ajratib olish bilan uzviy bog'liqidir. Bevosita qarama-qarshi kurashuvchi taraflardan tashqari konflikt ishtirokchilari bo'lib konfliktga to'g'ridan to'g'ri aralashmagan uning qiziqtiruvchilari, yordamchilari, tashkilotchilari kabi shaxslar, shuningdek, konfliktlashuvchi shaxslarning maslahatchilari, tarafдорлари va raqiblari, hakamlik sudyalari ham bo'lishlari mumkin. Bu shaxslar yoki tashkilotlarning barchasi tizim elementlari sanaladi. Shunday qilib, tizimdagi konflikt chegaralari unga jalb etilgan ishtirokchilar doirasining katta-kichikligi bilan belgilanadi. Konfliktning ichki tizim chegaralarini aniqlash bo'layotgan jarayonlarga ta'sir qilish, xususan, tizimni buzilishdan saqlash uchun muhimdir.

3 §. Konflikt sabablari va motivlari

Jamiyatdagi sababiy bog'liqlik. Ijtimoiy muhitda sababiylik ko'p murakkablik va chalkashlik bilan xarakterlanadi. Har bir ijtimoiy harakat turli-tuman va aksariyat hollarda ziddiyatli hodisalarni keltirib chiqaradi. Konfliktlarning asl sabablarini aniqlash esa hodisalar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning butun zanjirini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Turli konfliktlardagi taraflar xatti-harakatlari sabablarini tahlil etishda ularning odatda o'z manfaatlarini qondirishga bo'lgan intilishlaridan iborat ekanligini tushunish qiyin emas. Faraz, o'ch olish, hasadgo'ylik, ko'rolmaslik, nosamimiylit, araz, qabul qilingan qarordan qoniqmaslik, bugungi kunda yoki kelgusida o'zini moddiy jihatdan ta'minlashga bo'lgan intilish sud amaliyotida uchrab turadigan turmush konfliktlari sabablarining aksariyati hisoblanadi. Guruhiy konfliktlarning motivlari ham bулардан farqlansa-da, ular ham o'ziga xos xilma-xil, masalan, iqtisodiy qiyinchiliklar, siyosiy ehtiroslar, rahbarlikka intilish, milliy g'urur va sh.k. Xalqaro maydonda davlatlar xatti-harakatlari motivlari ham shu kabi turli-cha bo'lishi mumkin. Aslini olganda konfliktlar sabablarini hozirgi hayotning butun murakkabligini aks ettirishga qodir. Aytish joizki, «Konflikt tahlili quyidagilar:

- vaziyat sabablarini va tarixini, shuningdek, joriy hodisalarni tushunish;
- faqat asosiy yoki aniq ko'rinish turgan taraflarni emas, balki konfliktga jalb qilingan barcha ishtirokchi (guruuh)larni aniqlash;
- barcha bu ishtirokchi (guruuh)larning nuqtayi nazarlari va ularning o'zaro munosabatlarini bilish;

- konflikt negizida yotgan omillar va tendensiyalarni aniqlash;
- muvafaqqiyatsizliklar va yutuqlardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish uchun zarurdir.

Konflikt tahlili bu bir martalik tadbir emas, u o‘zgaruvchan omillar, dinamika va sharoitlarga harakatlarni moslashtirishga yordam qiluvchi doimiy jarayon bo‘lib qolishi kerak»¹.

Biroq individrlar va ijtimoiy guruuhlar xatti-harakatlarining (sabablari) motivlari konfliktlarning chuqur sabablari bo‘la olmaydi, chunki bu motivlarning o‘zi ham izoh talab etadi. Inson tashqi vaziyat o‘zgarishlariga befarq bo‘lmay, o‘zgarib boradi; o‘z navbatida psixologik omillar iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning borishiga ta’sir o‘tkazadi. Ijtimoiy ong tafakkur, hissiyotlar, ehtiyojlar, motivlar, manfaatlar orqali namoyon bo‘ladi, bundan esa muayyan kishilarning fikrlari, mavqeyi, harakatlari, ehtiyojlari, xulq-atvori shakllanadi. Bunda aynan hissiy darajada qayd etiladigan va guruuhlar, jamaolarning xatti-harakati, xulq-atvori, nuqtayi nazari sifatida umumlashadigan ijtimoiy ongning individual ifodalanish turli shakllarida ma’naviy sohadagi ziddiyatlar oshkora va keskin ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, borliq ziddiyatlari aks etadi.

Umuman, keng ko‘lamli konfliktli vaziyat jamiyatdagi ijtimoiy tarqoq jarayonlarning kechishi haqida, muayyan jamiyatning barqarorligini yoki hududiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy tuzilmalarning qisqa muddatli yoki uzoq davom etadigan ko‘p yoki kam darajadagi, ba’zan esa tuzatib bo‘linmaydigan dezintegratsiyasi haqida guvohlik beradi.

Hozirgi zamon jamiyatida konfliktlar oqibat natijada obyektiv mavjud ijtimoiy ziddiyatlarning tug‘ilishi va namoyon bo‘lishidan iborat.

Bunday nuqtayi nazar markscha nazariyada keng ishlab chiqilgan. K. Marksning fikricha, jamiyat qotib qolgan emas, sinfiy kurash orqali u doimo o‘zgaradi. Bunday jamiyat ishchi sinfi tomonidan o‘zining qaramlik holatini anglab borgan sari ko‘proq ziddiyatlashib boraveradi, toki ijtimoiy inqilob sodir bo‘lib, ekspluatator sinfnii qulatmaguncha. Bunday jarayon umumjahon xarakteriga ega va vaqt kelib sifbsiz jamiyatga olib kelishi muqarrar.

Ijtimoiy-tarixiy jarayonni bunday tushunish ba’zilar tomonidan jiddiy asoslantirilgan e’tirozlarga sabab bo‘ladi. Marks ijodiy merosini o‘rganuvchi ba’zi tadqiqotchilar shu narsaga e’tibor beradilarki, bu ma’nodagi sinfiy konfliktga uning turli xil xatti-harakat shakllarini nazariy tahlil etmasdan qaralgan. Ba’zi olimlar esa, uning ta’limotida sinflar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mutlaqlasntirishni ko‘rganlar.

M. Veber esa konfliktlarning paydo bo‘lishini faqat kambag‘allik va boylik tafovutlariga bog‘liq deb hisoblamaydi. U notenglik xususiyatiga qar-

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 40.

ab e'tibor, hurmatning turli darajada bo'lishi, bir xilda bo'lmanan obro', mavqe, maqomli guruhlar tushunchasini kiritgan. Bunda Veber turli guruhlarning moddiy va g'oyaviy manfaatlari bilan diniy ong o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib o'tgan.

R. Darendorf esa aynan sinflarni konfliktlashuvchi ijtimoiy guruhlar deb hisoblagan. Uning fikricha, sinfiy konflikt jamiyat xarakteri bilan belgilanadi. Konflikt odatda iqtisodiy munosabatlar bilan emas, balki boshliqlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlar orqali vujudga keladi, uning bosh sababları kishilarning bir-birlari ustidan hukmronligi, hokimiyatga esa bo'lishlaridir. Konflikt uchun asos faqat ishchilar ustidan tadbirkorlar hokimiyatining o'rnatilishi emas, konflikt boshqaruvchilar va bo'ysunuvchilar mavjud bo'lgan har qanday tashkilotda paydo bo'lishi mumkin (kasalxonada, harbiy qismda, universitetda va h.). Darendorf o'zining «Industrial jamiyatda ijtimoiy sinflar va sinfiy konflikt» nomli mashhur asarida obyektiv «yashirin» va anglashilgan «oshkora» manfaatlarning mavjudligi haqidagi xulosani chiqarish uchun Marksning ko'p nazariy xulosalaridan foydalangan. Sinflar, uning fikricha, qachonki «yashirin» manfaatlarni «oshkora» manfaatlarga aylanganda vujudga keladilar.

Hozirgi zamон олимларидан Per Burde esa hozirgi konfliktlarning rivojlanish xususiyatlari ustida fikrlash uchun amaliy tavsiyalar beradi. Uning fikricha, sinflar to'g'risidagi markscha nazariyaning kamchiligi obyektiv mavjud tafovutlar majmuyini e'tiborga olmaslik, ijtimoiy borliqning faqat iqtisodiy maydon bilan cheklash natijasidir.

K. Boulding, L. Kraysberg, M. Krozeler fikricha, konfliktning o'zi turli xil maqsadlarga intiluvchi guruhlarning qarshi kurashidan iborat. K. Bouldingning ta'kidlashicha, hamma konfliktlar umumiy elementlarga xamda rivojlanishning umumiy me'yorlariga ega bo'ladi, bu elementlarni o'rganish konflikt hodisasini uning istalgan ko'rinishida o'rganish, tasavvur qilishga imkon beradi.

Demak, konfliktlarni tushunishda va asoslashdagi asosiy yondashuvlar yirik ijtimoiy uyushmalar o'zaro munosabatlarining xususiyatlarini ko'rib chiqish doirasida shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

Notenglik konflikt manbayi sifatida. Ijtimoiy notenglikning asosiy belgilari bo'lib mulkchilik, hokimiyat, maqom munosabatlardagi farqlar hisoblanadi. Bu xususiyatlar u yoki bu darajada jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasida aks etadi, ijtimoiy guruhlar, individlar o'rtasidagi munosabatlardagi notenglik bo'lib namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy notenglik bilan ijtimoiy guruhlar va individlarning hayot tarzida, madaniyatida, ruhiyatidagi muhim farqlar ham bog'liq bo'ladi.

Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish, ularni ayirboshlash va taqsimlash yuzasidan bo'ladigan ijtimoiy harakatlar ijtimoiy guruhlar o'rtasida tanglikka, muayyan sharoitlarda esa ochiq konfliktga olib borishi muqarrardir.

So'nggi o'n yilliklarning tarixiy tajribasi shundan guvohlik beradiki, davlat sotsializmi xususiy mulkchilikni va sinflarning ijtimoiy notengligini butunlay tugata olmadi. U jamiyatni ijtimoiy konfliktlardan ham qutqara olmadи.

Bugungi kunda bozor iqtisodi ishlab chiqarish tizimining eng yaxshi si hisoblanadi, biroq uning afzalliklari insonparvarlik xarakteriga ega bo'lishi uchun demokratik davlat bozor iqtisodi vujudga keltirishi mumkin bo'lgan insonni qullikka solish va begonalashtirish tipik shakllarini yumshatish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi kerak. Amalda bu davlat tomonidan daromadlarni yo'qsillar foydasiga qayta taqsimlashni, progressiv soliqqa tortishni joriy etishni anglatadi. Bunday qayta taqsimlashning mexanizmi va vositalari turli yo'llar bilan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan: mu-zokalar, kelishuvlardan to konfliktlarga. Biroq kelajakda konflikt-larning bo'lishi istalmagan narsa, chunki bu o'zaro ijtimoiy talofatlar bilan kechadi. Yuridik adabiyotlarda bu xususda bildirilgan ba'zi fikrlarga ko'ra «Mikrodarajadagi shaxslar o'zaro ta'siridan boshlab to guruqlar, tashkilotlar, jamoalar va millatlar orqali insoniy o'zaro ta'sirning barcha tiplarigacha, shu jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlар va hokimi-yatning taqsimlanishi masalalari – bularning hammasi konflikt orqali rivoj-lanadi, o'zgaradi va sodir bo'ladi. Konflikt bu munosabatlarda muvozanat yo'qligi sababli yuzaga keladi, masalan, noteng: ijtimoiy maqom, iqtisodiy ahvol, boylikka egalik yoki hokimiyatning taqsimlanishi. Bular o'z navba-tida kamtsitilish, ishsizlik, kambag'allik, jinoyatchilik va tazyiq ostida bo'lish kabi muammolarga olib keladi. Bu darajalarning har biri boshqalari bilan aloqador va kelgusida ijobiy o'zgarishlarga yoki buzg'unchi zo'rlikka olib keluvchi qudratli «shoxobcha»ni shakllantirishga qodirdir»¹.

Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatda katta ijtimoiy guruhlarning noteng- li bilan bog'liq konfliktlarni butunlay bartaraf qilishning samarali usullari mavjud emas. Birinchidan, insoniyat tarixi shuni ko'rsatadi, ijtimoiy notenglik doimo qaror topaveradi. Davriy tarzda takrorlanadigan inqiloblar notenglikni amalga oshirilishi tiplari, shakllari va metodlarini ko'p darajada o'zgartiradi, biroq uni yo'qotishga kuchi yetmaydi. Har qanday jamiyatda doimo turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida manfaatlar konflikti, hech bo'limganda hayotiy muhim resurslarga ega bo'lish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan huquq uchun kurash mavjud bo'lgan va bunday keyin ham bo'ladi. Bu kurash uning obyekti bo'lgan resurslarni vaqt chegaralariga bog'liq ravishda davom etadi.

Manfaatlar va ehtiyojlar. Ijtimoiy konfliktlar tabiatini tushunish manfaatlar qarama-qarshi kurashini tahlil qilishdan iborat qadimiy an'anaga ega.

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С. 24.

Turli-tuman konfliktlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kurashuvchi taraflar xatti-harakatining negizida qandaydir aniq sabablar yotmasin, ular taraflar manfaatiga borib taqaladi, konflikt bo'lganda bu manfaatlar qarama-qarshi yoki bir-birini istisno qiladi. Gitler Germaniyasi o'zga davlatlar yerlarini egallashga intilgan, Yevropa mamlakatlari esa mustaqillikka intilganlar. O'g'ri birovning mulkini o'g'irlasa, mulkdor uni himoya qiladi. Erxotinlar pul masalasida janjal qiladilar, ularning har biri oila mablag'idan mustaqil foydalanishga harakat qiladi va ular o'z manfaatlarini ma'qullab o'zini haqli deb hisoblaydilar.

Konflikt asoslari sifatida manfaatlarni tahlil qilishda ba'zi tadqiqotchilar unga yaqin turgan ijtimoiy va ruhiy hodisalarga e'tiborni qaratadilar, ya'ni manfaatni uzviy keltirib chiqaruvchi hodisalarga. Masalan, biror narsaning tanqisligi holatini asoslovchi ehtiyojlar kategoriysi, bunda organizm (shaxs, guruh, jamiyat) shu yetishmovchilikni to'ldirishga harakat qiladi. Ehtiyoj manfaatni keltirib chiqaradi, manfaat bu anglashilgan ehtiyoj, ba'zida esa uni qanoatlashtirishning anglashilgan yo'li hamdir.

K. Ledederning fikricha, ijtimoiy konflikt inson ehtiyojlarining butun majmuyini nomutanosib qanoatlanirish yoki unga putur yetkazish natijasidir.

Xavfsizlikka, tan olinishga, o'xshashlikka, ijtimoiy mansublikka va shu kabilarga bo'lgan ehtiyojlar faqat alohida individga emas, balki ijtimoiy guruhlarga, etnik uyushmalarga, butun jamiyatga va davlatlarga xos. J. Ber-tonning fikricha, «asosiy insoniy ehtiyojlarni to'liq qanoatlanadirigan tashkiliy intilishlar, harakatlar konfliktni haqiqiy yakunlanishiga olib keliishi mumkin». Shu munosabat bilan ko'p mualliflar konfliktning psixologik sababi deganda asosiy insoniy ehtiyojlarining birortasiga tahdid solish (frustratsiya)ni tushunadilar. Konfliktda kurashuvchi taraflar o'z maqsadlari sari harakat qiladilar, biroq bu maqsadlarga bir vaqtning o'zida ikki tomonning bir-birlariga zarar yetkazmasdan turib erishishlari istisno qilinadi.

Deprivatsiya konsepsiysi. Yirik ijtimoiy kolliziylar sabablarini aniqlash uchun deprivatsiya deb ataladigan konsepsiyanidan foydalanish mumkin. Bunda gap shunday holat to'g'risida ketadiki, bu holat uchun talablar va ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi yaqqol farqlanish xosdir. Vaqt o'tishi bilan deprivatsiya kuchayishi yoki kamayishi yoxud o'zgarmasdan qolishi mumkin. Deprivatsianing kuchayishi bir tomondag'i talablar (kutilayotgan natijalar), ikkinchi tomonдан, ularni qanoatlanirish imkoniyatlari o'rtasidagi nisbatga bog'liq. Deprivatsianing o'sishi, birinchidan, shakllangan talablarning imkoniyatlarini kamayishida ro'y berishi mumkin, masalan, iqtisodiy krizis sharoitida. Bunday sharoitda talablar quyidagi formula bilan belgilanadi: «faqat yomon bo'lmasa bo'ldi». Ikkinchidan shunday vaziyat bo'lishi mumkinki, bunda kutilayotgan natijalar, talablar ularni qondirish imkoniyatlaridan ko'proq o'sib boradi. Mana shunda dep-

rivatsiya kuchayadi va demak, konfliktlarning vujudga kelish ehtimoli kuza tiladi.

Deprivatsiya barqaror darajasining saqlanishi yoki uning kamayishi ehtiyojlarni qondirish sharoitida talablar (kutilayotgan natijalar) darajasining pasayishi yoki kutilayotgan natjalarga nisbatan talablarni qondirishning juda tez o'sishi sharoitida yuz berishi mumkin, bu esa jamiyatda axloqiy-psixologik muhitni barqarorlashtirish, keskinlikni yumshatishga imkon beruvchi ruhiy shart-sharoitni yaratadi. Va aksincha, deprivatsiyaning kuchayishi ijtimoiy tanglikning ortishiga, ochiq ijtimoiy, siyosiy va etnik konfliktlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Irratsional elementlar. Konfliktlarning paydo bo'lishida ijtimoiy subyektlar manfaatlарининг то'qnashuviga оlib kelган у яки бу обьектив сабабларни аниqlash mumkin. Masalan, bir ayolni sevuvchi ikki erkak o'rtasidagi konflikt yoki transport vazirligi bilan fermerlar o'rtasidagi ularning hududida avtomagistral qurilishidan kelib chiqqan то'qnashuv обьектив shakllangan vaziyatdan qonuniy tarzda kelib chiquvchi ziddiyatlarga asoslanadi, бу vaziyatda har qaysi tarafning haqiqiy ehtiyojidan to'qnashadi.

Biroq jamiyatda ziddiyatlar va demak, konfliktlar ham juda ko'p uchraydi, ularning hammasi ham biror jiddiy sabablar bilan bog'liq emas, balki odamlarning asl ehtiyojlari va maqsadlariga to'g'ri aloqador bo'lmasan subyektiv omillar va kishilarning xarakterlari, kayfiyatlar, oddiy, arzimagan injiqliklari kabi sabablar bilan ham ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bunday «subyektiv» ziddiyatlar oilada, xizmatda va boshqa ishlarda doimiy muloqotda bo'lishga majbur bo'lgan ayrim individumlar o'rtasida tez-tez sodir bo'lib turadi. Bu ziddiyatlar juda mayda, boshqa kishilar nazarida arzimaydigan, soxta bo'lishi mumkin, biroq xarakter xususiyatlarga ko'ra normal o'zaro munosabatlар uchun yengib bo'limas to'siqlar bo'lishi mumkin. Psixologlarning ta'kidlashicha, xarakter yoki xulq-atvorning eng ta'sirchan jihatlari bo'lib, me'yordagi, tabiiy sifatlar bo'lishi, biroq bunday sifatlar boshqa odamlarda bo'limasligi mumkin: punktuallik, tejamkorlik, anqlik, sabrlilik va b.

Boshqa bir odamning kiyinish odati yoki ovqat yeish usuli ham norozilikni yuzaga keltirishi mumkin. Ko'pincha temperament, ta'sirlanishning tezligida farqlanuvchi kishilar o'rtasidagi to'qnashuvlarni tushunish qiyin bo'ladi. Nihoyat, konflikt sababi bo'lib kimningdir shunchalik ta'sirchanligi, ahmoqona qilig'i bo'lishi mumkin.

Konflikt haqidagi odatdagi fikr shundan iboratki, konflikt doimo o'z manfaatlарини оqilona qo'llab-quvvatlovchi kishilar o'rtasidagi mantiqan tushuniladigan ziddiyatdir.

Biroq dastavval bunday tushunishga mutaxassislar tomonidan kuzatiladigan ko'p omillar qarama-qarshi turadi. Masalan, oilaviy janjalda er ziddiyatni iloji boricha yumshatishga harakat qilib xotiniga yon bosadi,

ayol esa arning bunday harakatini «bejiz emas» deb tushunib, battar «to‘nini teskari kiyib oladi» va konflikt yangi kuch bilan avj oladi. Davlatlararo muzokalarlarda bir taraf unga bиринчи со‘з berilmagani uchun о‘zini haqoratlangan (kamsitilgan) deb biladi va muzokalarlar uziladi. Mana shunga о‘xshash konfliktlar sabablarining murakkabligini tasdiqlovchi shu kabi ko‘p misollarni keltirish mumkin, biroq bular har doim ham qat’iy man- tiquy tuzilma (rekonstruksiya)da e’tiborga olinavermaydi va ko‘pincha yo‘qotib bo‘lmaydigan irratsional elementlari bilan kechadi, bu esa konfliktning individual о‘ziga xosligini tashkil qiladi va uni oddiy vositalar bilan hal qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

Bu, ayniqsa, millatlararo konfliktlarda ko‘rinadiki, bu konfliktlar odamlar xatti-harakatining puxta ishlab chiqilmaganligi, oqilona emasligi (ir- ratsional bo‘lishi), destruktiv (buzg‘unchi) xarakterdagи hissiyotlarning ustun kelishi oqibatida boshqara olinmaydi va mabodo ular kengayib, avj olsa, haqiqiy halokatga aylanishi mumkin.

Psixoterapeutik amaliyotdan ma‘lumki, odamning muloqot jarayonida sodir etadigan xulq-atvori, harakatining noaniqligi boshqa kishilarda asabiy reaksiyani tug‘dirishi mumkin va konfliktlarga olib kelishi mumkinki, bular go‘yo boshqa shaxslarga butunlay bema’ni va sababsizdek bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga barcha muammo munosabatlarning tar- tibga solinmaganligida va chalkashligida, psixologik jihatdan «turli tilda» ekanligidadir.

Shaxsiy konfliktda irratsional element, agar unda ruhiy kasal yoki aqli noraso shaxs ishtirok etsa, uning haqiqiy asl sababi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday holatlar kam emas. Biz bu yerda shaxsnинг ichki konfliktlari ustida to‘xtalmaymiz, ayni vaqtida milliy yoki diniy hislar bilan qo‘zg‘algan omma orasida ba‘zan konfliktni kuchli keskinlashtirishga qodir odamlarning hozir bo‘lib qolishini yodimizdan chiqarmasligimiz kerak. Shu bois kompleks fan bo‘lgan konfliktlogiya shunday kam ahamiyatli bo‘lgan holatni e’tiborga olishi lozim.

O‘z-o‘zidan tushunarlik, «obyektiv» va «subyektiv» ziddiyatlar, shuningdek, «irratsional» elementlar deb atalgan narsalar real hayotda qat’iy chegaralarga ega emas va bu yerda konfliktli xulq-atvor sabablarida bo‘lishi mumkin bo‘lgan variantlar doirasini ko‘rsatish uchun juda shartli qilib belgilanadi. Hamma hollarda biz u yoki bu tarzda kishilar manfaat- lari bilan ish ko‘ramiz, bu manfaatlar ko‘p yoki kam ahamiyatli, barqaror va o‘zgaruvchan, oshkora yoki yashirin bo‘lishi mumkin.

Ziddiyatlar darajasi. Ziddiyatlarning «obyektiv»ligi va «subyektiv»ligini ularning ikki xil darajadagi manfaatlar bilan bog‘liqligini e’tiborga olganda turli nuqtayi nazardan tushunish mumkin. Sodda qilib aytganda bunday bo‘lish u yoki bu tashqi faoliyatdagи ehtiyojlar bilan yoki mustaqillikka, o‘z-o‘zini saqlab qolishga, o‘z-o‘zini hurmat qilinishiga bo‘lgan ehtiyojlari bi- lan bog‘liq.

Odamlar o'rtasidagi jiddiy to'qnashuvga qator holatlar sabab bo'lishi mumkin, masalan, ikki odam restoranda bitta stolga da'vo qiladi, urushlar ikki davlatning biror hududda o'z ta'sirini saqlab qolish yoki birining ikkinchisi ustidan hukmronligini o'rnatish, o'z mustamlakasiga aylantirishga bo'lgan intilishidan kelib chiqadi.

Yuqoridagi ikki holatda mohiyat bo'yicha turli darajadagi manfaatlar to'qnashadi. Birinchi holatda har qaysi subyekt o'zining xususiy manfaatidan kelib chiqib, o'ziga xalaqit berayotgan boshqa subyekt bilan kurashadi. Ikkinci holatda ozodlik, daxlsizlik, asosiy huquqlarni hurmat qilinishini saqlash bilan bog'liq motivlar ahamiyatli. Inson uchun muhimrog'i bu uning individual erkinligi, jismoniy daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmati bo'lsa, davlat yoki millat uchun esa mustaqbilligi, hududi yoki chegarasining daxlsizligi, jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida tan olinishi muhimdir. Bunday manfaatlardagi ziddiyatlar ning eng keskin ifodalanishi – boshqa ijtimoiy subyekt bilan to'liq mos kelmaslik va uni yo'q qilish uchun kurashish hisoblanadi.

Yuqorida gap ijtimoiy ziddiyatlarning darajalari haqida boradiki, bu darajalar taraflarning manfaatlari qanchalik muhimligini farqlaydi. Ziddiyatlarni darajalarga ajratish ularning bir-biridan qanchalik chuqurligiga qarab farqlanishini ko'rsatadi. Bu esa subyektning konfliktga jalb qiliniganligi darajasini, konfliktni hal qilish imkoniyati va usullarini belgilab beradi.

4 §. Shaxsni huquqiy begonalashtirish

Begonalashtirish fenomeni. Insonlar o'z mehnatlari natijalari, o'zlarini to'plagan moddiy va ma'naviy boyliklar, erishgan yutuqlari nafaqat ularning o'zlaridan ajralib uzoqlasha borishini, shu bilan ularni o'zlariga bo'ysundirib xuddi o'z xususiy hayotiga ega bo'lishayotganini payqay boshlaganlarida ijtimoiy hayot alohida olingan inson hayoti bilan butun jamiyat yutuqlari o'rtasidagi farqlanishni, nomuvofiqlikni tasdiqlovchi ko'plab misollarni namoyon eta boshlagan vaqtida ijtimoiy-siyosiy adabiyotda begonalashtirish muammoi tadqiqotchilar diqqat markazida turgan. Badiiy shaklda bu muammo aka-uka Grimmlar, Gofman asarlarida, ayniqsa, avstriyalik yozuvchi oustav Mayrinkanining «Golem» nomli fantastik romanida aniq shaklda ifoda etilgan. Bu asarda XVII asrda bo'lib o'tgan voqealar tarixi bayon qilingan, bir kohin sun'iy odamni yasaydi, u ibodatxonada qo'ng'iroq chalg'uvchilik qilishi va turli og'ir ishlarni bajarishi kerak edi. Golem shunday yasalgan ediki, uning tishlari bilan tutib turuvchi qog'ozga sehrli so'zlar yozilgan bo'lib, bu yozuv uning ishlash qobiliyatini ta'minlar edi. Bir kuni kechki ibodatdan so'ng kohin Golem og'zidagi qog'oz bo'lagini olib qo'yishni yodidan chiqaradi, u es, itoatkorlikdan chiqib, qorong'i

ko'chalar bo'ylab yugurib ketadi, yo'lida o'ziga duch kelganlarni o'ldiradi. Avstriyalik muallif kitobida voqeа nisbatan yaxshi yakunlanadi. Kohin Golemni quvib yetadi va qog'oz bo'lagini yirtib tashlaydi, bu uning halokati edi. Bulgakovning «It yuragi» asarida ham shu mazmundagi voqeа bayon etiladi. Afsuski, hayotda insonlarning o'zlarini tomonidan o'z farovonliklariga xizmat qilish uchun yaratgan narsalarini jilovlashga osonlikcha erishib bo'lmaydi.

Begonalashtirish muammosini nazarij jihatdan ko'tarish masalasi Yangi davr mutafakkirlari asarlarida mufassal yoritilgan. Ular o'z zamondoshlarining e'tiborlarini ijtimoiy munosabatlар sohasiga, burjua ijtimoiy munosabatlarining qaror topishi jarayoniga qaratdilar. J.J. Russo fikricha, jamiyat odamlarni buzadi va ma'naviy qashshoq qiladi. U inson faoliyati mahsulidan insonlarga qarama-qarshi turuvchi kuchga aylanadi. Tabiiy jarayonlar dastlab hukmonrik qilgan davrda erkin va qaram bo'lmagan insonlar ijtimoiy munosabatlarning shakllangan tizimi ta'siriga tushib qoladilar, o'ziga o'xshaganlar quliga aylanib qoladilar. Insonning bunday begonalashtirish holatidan chiqib ketishi uchun Russo «ijtimoiy shartnomma» tuzish zarur deb biladi, ya'ni fuqarolarning bunday bitimga ixtiyoriy roya etishlari avvalgi tenglik, erkinlik va mustaqillikni qaytarishga imkon beradi.

«Ijtimoiy shartnomma» nazariyasi katta siyosiy ta'sirga ega bo'ldi, ijtimoiy tartibsizlikni jilovlashga, ijtimoiy munosabatlarni barcha insonlar va tabaqalar manfaatlariga bo'ysundirishga bo'lgan umidni uyg'otib, ilk burjua munosabatlari davri ilg'or mutafakkirlarini ruhlantirib yubordi. Biroq tovar munosabatlarining rivojlanishi nazariy konsepsiylar va siyosiy shioldan mustaqil va qat'iy tarzda yuz o'gira boshladi. Alovida shaxslar va sinflarning xususiy iqtisodiy manfaati jamiyatniadolat va tafakkur asosida qurishga bo'lgan har qanday urinishlarni chippakka chiqardi. «Ijtimoiy shartnomma» nazariyasining begonalashtirishni yenga olmasligi va uning tabiatini tushuntira olmasligi oydin bo'lib qoldi.

Bu muammoni hal qilishga yo'naltirilgan keyingi nazariy urinishlar nemis klassik falsafasi bilan bog'liq bo'ldi. Bu yerda begonalashtirish fenomeniga odamning faol tabiatiga xos ichki xususiyat sifatida qaraldi. Nemis klassik falsafasi begonalashtirishni yengishning amaliy yo'llarini ko'rsatish o'rniga uning tabiatini tushuntirishga harakat qildi. Fixtening fikricha, inson mohiyatiga ko'ra o'z-o'zini anglash yoki sof «Men»dir bo'lib, u o'z faoliyatida predmet, ya'ni «Men emas»ni begonalashtiradi. Bu Fixtening predmetlilikni asoslashi o'ziga xos tarzda begonalashtirishni anglatadi.

Gegel falsafasidagi begonalashtirish muammosi ham e'tiborga loyiq. Bu yerda begonalashtirish muammosi, birinchidan, tabiat va jamiyat tarixida absolyut ruhning ifodasi sifatida, ikkinchidan, begonalashtirishning tarixan o'tkinchi shakllari muammosi sifatida talqin qilinadi.

U o‘zining «Ruh fenomenologiyasi», «Huquq falsafasi», «Estetika» asarlariida rim jamiyatni, krepostnoylik va hozirgi zamon burjua huquqiy holati sharoitlarida begonalashtirishning tarixiy shakllari farqlanishiga e’tiborni qaratdi, shu bilan jamiyat tarixiy taraqqiyot qonuniyati va undagi begonalashtirish jarayoni muammosini ilgari surdi.

Shuni aytish joizki, K. Marks nemis klassik falsafasi tomonidan muammoning hal etilishini yaxshi bilgan holda uning begonalashtirish muammosini hal qilishga qo’shgan hissasini yuqori baholadi. U bu muammoga nazariy-mantiqiy darajada emas, balki ijtimoiy tuzilmaning amaliy masalasi sifatida qarash muhimligidan kelib chiqdi.

Marksning dastlabki asarlarida begonalashtirish holati mehnat taqsimoti xususiyatlari va xususiy mulkchilikning hukmron shakllari bilan uзви bog‘liklikda tushuntirildi. Begonalashtirish muammosi, eng avvalo, mehnatni begonalashtirish muammosi sifatida tadqiq etildi. Marks o‘ziga zamondosh bo‘lgan jamiyatda (bu jamiyatni u ishlab chiqarish vositalari bilan yollanma ishchi o‘rtasidagi antagonistik munosabatlarga qurilgan jamiyat deb hisoblagan) ishchilar mehnat faoliyatiga majburiy tashqi jarayonga bo‘lgandek munosabatda bo‘lishini qayd etadi, unda ishchi «o‘z jismoniy va ma’naviy energiyasini to‘la namoyon qila olmaydi, balki o‘zining jismoniy tabiatini izdan chiqaradi va o‘z ruhini buzadi». Ishlab chiqarish va butun jamiyatni kapitalistcha tashkil etish jihatidan ishchi nafaqat mehnat faoliyatini jarayonidan, shu bilan birga uning natijalaridan, o‘z mehnati mahsulotlaridan begonalashgan hisoblanadi. Ular ishchiga emas, balki alohida xususiy mulkdorga yoki umumiy kapitalist — davlatga tegishli bo‘ladi.

Markscha g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar begonalashtirishni yo‘qotishga olib kelmadi. Aksincha, bu yo‘nalishda uning yangi shakllari paydo bo‘ldi, ularning ko‘plari o‘zining ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra yanada xavfliroq edi. Inson faqatgina ishlab chiqarishdagi «vintcha» bo‘lib qolmadidi. U hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlari va ayrim shaxslar qo‘lidagi o‘yinchoqqa, o‘zgalar erkini ijrochisiga aylandi.

Begonalashtirishning psixologik va ijtimoiy tabiatini. Begonalashtirish fenomeni doimo individ va jamiyat hayotida qayta ishlab chiqilaveradi. Begonalashtirishni bartaraf etib bo‘lmaslik ko‘pchilik olimlarning begonalashtirishni tarixiy o‘tkinchi xarakteri haqidagi g‘oyalardan voz kechishlariga olib keldi. Mashhur rus faylasufi Berdyayev begonalashtirishni bulyumlarning o‘z tabiatiga ko‘ra bartaraf etib bo‘lmaydi degan fikrga kelgan. Insonning ijodkorlik mohiyati hamisha uning tafakkuri va qo‘llari yaratgan asarlarni uning o‘zidan ajralib uzoqlab borishini keltirib chiqargan va keltiraveradi, bu asarlar o‘z mantiqi va taqdiri qonunlari bo‘yicha mavjud bo‘ladilar. Har qanday moddiylashgan borliqni Berdyayev begonalashtirilgan borliq deb hisoblaydi. Ijtimoiylik qator hollarda muammo ni yanada kuchaytiradi. Insonni begonalashtirish va insonparvarlik inqirozini Berdyayev inson va tabiatning uзви birligini buzuvchi texnik taraq-

qiyot va o'ziga zamondosh bo'lgan sivilizatsiya bilan bog'laydi. «Burjuva sivilizatsiyasi dunyo nokoinotligining chegarasidir. Unda inson ichki jihatdan halok bo'ladi, tashqi jihatdan avtomatlashtirilgan inson bilan almashtiriladi... Biroq sivilizatsiyaning texnik kuchlari insonning o'zini ustidan hukmronlik qiladi, uni qulga aylantiradi, uning qalbini o'ldiradi».

Mashhur nemis faylasufi Haydegger ham begonalashtirishga ijtimoiy munosabatlar mavjudligining atributi, ichki xususiyati sifatida qaragan. Kundalik tashvishlar dunyosini, inson qiyofasining yo'qolishini, uning jamiyat funksional birligiga aylanishini ijtimoiy xulq-atvorning begonalash-tirilgan normalarida inson mohiyatining erib ketishi deb tushuntingan. U ijtimoiy muloqot vositalari va normalaridan foydalaniib, har birimiz boshqalarga taqlid qilib harakat qilamiz, o'qiyimiz, ko'ramiz, adabiyot va san'at asarlari haqida fikr beramiz deb tushuntiradi.

Psiyologiya fani nafaqat begonalashtirish mavjudligi faktini inkor etib qolmaydi, shu bilan birga bu fenomenni inson hayotining barqaror, uzoq mavjud bo'luvchi yo'ldoshi deb hisoblaydi.

Shaxsni huquqiy begonalashtirishning mohiyati va shakllari. Fuqarolik jamiyatni amal qilishini tartibga soluvchi huquqiy institutlar va normalar tizimi davlat faoliyati, boshqaruv va davlat tuzilishi shakllari xususiyatlari hamda siyosiy rejim bilan bevosita bog'liq. Huquq faqat jamiyat iqtisodiy tuzumiga bog'liq bo'lmasdan, balki hukmron tabaqalar va guruh-larning siyosiy erkclariga, fuqarolar siyosiy madaniyatiga va davlat faoliyati an'nalariga qarab jiddiy o'zgarib boradi. Huquq aholining ayrim guruhlari manfaatlarini yuridik jihatdan mustahkamlab, ikkinchi tomondan bir vaqtning o'zida uning boshqa guruhlari erkinligini cheklaydi. Tarixiy taraqqiyot jarayoni, bu holatda odamlar manfaatlari va ehtiyojlarining vaqt ichida o'zgarishi jarayoni huquqiy begonalashtirish imkoniyatini yanada ko'proq darajada kuchaytiradi. Shu bois huquq tarixi o'z huquqini qo'lga kiritish uchun, huquqiy hujjatlar va qoidalar tizimida begonalashtirishni bartaraf etish uchun olib borilgan doimiy kurash tarixidan iborat ekanligi tasodifiy emas.

Turli mamlakatlarning siyosiy va huquqiy tizimi bilan tanishish begonalashtirish fenomenini siyosiy va huquqiy munosabatlarning har qanday tizimiga xosligini ko'rsatadi. Kishilarning yuridik ijodi mahsuli bo'lgan huquqiy tizim hamma yerda muayyan mustaqillikka ega bo'ladi va o'zining bu sifatida jamiyat individlari va ayrim guruhlarning hayotiy manfaatlari va huquqlarini u yoki bu darajada begonalashtirib fuqaro xulq-atvori omili rolini o'ynay boshlaydi. Bu jarayonda huquqiy begonalashtirishning umumiy jihatlari, shakllarini ko'rish mumkin. Masalan, har qanday mamlakat huquqining negizi bo'lib muayyan jamiyat hayotining uzoq tarixi jarayonida shakllangan odat, huquqiy an'ana hisoblanadi. Har bir alohida olingan holda bu tarix o'ziga xosdir, biroq u hamma yerda siyosiy boshqaruv huquqiy shakllarining xalq ruhiyatiga mos kelishi kabi yagona muammoni

yuzaga keltiradi. Bu shakldagi huquqiy begonalashtirish o'zgarishlarsiz qolmaydi, uning o'zgarishlari huquqiy hujatlar tizimida insonlar manfaatlarni rasmiylashtirishning muayyan aniq jarayonlariga ta'sir etadilar. Hatto davlat siyosiy rivojlanish tarixiga doir yetarli tajribaga ega bo'lмаган holarda ham huquqiy begonalashtirishning bu shakli boshqa mamlakatlar odatlari va an'analarini o'zlashtirish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Huquqiy begonalashtirishning keng tarqalgan shakli bu hokimiyatning muayyan institutlari va tashkilotlarida, mavjud huquqiy tizimdagi shaxsni begonalashtirish hisoblanadi. Har bir aniq holatda individ uning o'zigacha mukammal ishlab chiqilgan va shu bilan uning ehtiyoj va manfaatlari mustaqilligini begonalashtiruvchi huquqning tayyor tizimiga duch keladi. Siyosiy-huquqiy institutlar amaldagi tizimining o'rnatilgan normalari, tamoyillari, qoidalarining muayyan ahvoli shaxsni huquqiy begonalashtirish darajasi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu tizimdagi kichik o'zgarishlar begonalashtirish holatiga jiddiy ta'sir etishi mumkin. Masalan, sovet huquqiy tizimi davlat (partiya)da muhim rahbarlik lavozimida bo'lish muddati chegaralarini nazarda tutmagan. G'arb mamlakatlarining huquqiy tizimlarida aniq yozib qo'yilgan bu norma hozirgi zamon davlati (eski tuzum parchalanishi natijasida qaror topgan davlat) siyosiy rivojlanish xususiyatlariga ta'sir etishi mumkin.

Tarixiy tajriba, hokimiyatning bir tomonlama uzurpatsiya qilinishi va xalqdan ajralib qolish jarayonlariga qarshi turish institutlariga ega bo'lgan jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni tez sezuvchan siyosiy tizimlar huquqiy begonalash tirishning eng keskin shakllarini zudlik bilan yenga oladigan barqaror vosita ekanligini ko'rsatadi. G'arbdagi siyosiy tizimlar jamiyatning davlat-huquqiy institutlari doimiy takomillaшganligi bois eng barqaror hisoblanadilar.

Siyosiy va huquqiy qurilishda ishtirok etish jarayonida shaxsni huquqiy begonalashtirish to'g'ridan to'g'ri va vakillik demokratiyasi rivojlanishi bilan bog'liq. Fuqarolarning mitinglar va namoyishlar, ish tashlashlar va norozilik harakatlarini amalga oshirishga bo'lgan huquq va erkinliklari, bevosita demokratiyaning boshqa shakllari huquqiy begonalashtirishga, uning darajasini kamaytirishga, jamiyat huquqiy va siyosiy hayotini rivoj lantirish jarayoniga fuqarolarning bevosita daxldorlik muhitini yaratish orqali jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy rivojlanishni tartibga solishda bevosita demokratiya shakllari orqali fuqarolar ishtiroki, shuningdek, shiddatli ijtimoiy o'zgarishlar tarixiy davrlarida (inqiloblar, qayta qurishlar va h.) bunday ishtirok etishga bo'lgan urinishlar darajasi eng yuqori baholanadi.

Aholining aksariyati erk-irodasini bevosita namoyon bo'lishi ta'sirida jamiyat katta qadamlar bilan asrlar mobaynida omma tashabbuskorligini bo'g'ib qo'ygan, uni davlat ishida ishtirok etishdan begonalashtirgan normalar, qonunlar, yurishturish qoidalarini rad etib, yanada yuqori bosqichga qarab harakat qila boshlaydi.

Shaxsni huquqiy begonalashtirishni yengishda vakillik demokratiyasi shakllari ham o‘z ijobiy rolini o‘ynaydi.

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida bevosita va bilvosita ishtiroki huquqiy tizimning shakllanishi va amal qilishi jarayonida yuzaga keladigan begonalashtirish holatini barham toptirish imkonini beradi.

Huquq ijod etish faoliyati natijalari shaxsni huquqiy begonalashtirish omili bo‘lishi mumkin bo‘ladigan vaziyat hayotda o‘z tabiatiga ko‘ra boshqacha holatlar asosida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, huquqiy madaniyat past bo‘lgan jamiyatda odamlar garchi davlat tomonidan ko‘p qonunlar qabul qilinsada, ular go‘yoki mavjud emasdek bo‘lib ko‘rinadigan vaziyatga tez-tez duch keladilar. Qonunlar mavjudligi sharoitida fuqarolar o‘z kundalik hayotlarida ularga rioya etmaydilar. Bunday holatda odamlar boshliq fikri, kuch ishlatish, tanish-bilishlik yoki majburlovni ma’qul ko‘radilar. Hozirda ham qonun matbuotda e’lon qilinishi bilan kuchga kirishi odatiy hol bo‘lsa-da, biroq fuqarolar ulardan uzoq vaqt davomida foydalana olmaydilar, chunki tegishli mansabdor shaxslar ularni qabul qilingan qonun bo‘yicha yuqori turuvchi organning tushuntirish va sharhlarini kutishga «sodda» tarzda ishontiradilar.

Shaxsni huquqiy begonalashtirishning turli shakllari o‘zaro uzviy bog‘langan, ular o‘z birligida siyosiy huquqlar, erkinliklar va majburiyatlar maydonini tashkil etadi. Bu ijtimoiy taraqqiyotning o‘tkinchi bo‘limgan va doimiy o‘zgaruvchan omildir. Inson faqat o‘z huquqlari va manfaatlari uchun bo‘lgan kurashdagina jamiyatda begonalashtirish holatini yengishi va istagan darajadagi erkinlikni qo‘lga kiritishi mumkin.

Huquqiy begonalashtirishning konfliktliligi. Har bir inson voyaga yetganidan so‘ng uning o‘zidan oldin va uning shaxsiy ehtiyojlarini, odatlarini hech bir darajada e’tiborga olmagan tarzda shakllangan fuqaro xulq-atvori normalari va qoidalari tizimini uchratadi. Bunday vaziyatda inson mavjud huquqiy tizimga moslashishi yoki uni o‘z manfaatlaridan kelib chiqib o‘zgartirishi kerak. Ikki holatda ham konfliktlar bo‘lishi ehtimol, biroq ikkinchi holatda esa muqarrardir.

Totalitar tip jamiyatlarda ijtimoiy konfliktlar kam uchraydigan voqelik hisoblanadi. Bu yerda gap faqat hokimiyatga qarshilik ko‘rsatishning har qanday urinishlariga nisbatan zo‘rlik va majburlov ishlatish ijtimoiy «tinch-totuvlik»ning kafolati bo‘lib hisoblanishida emas. Bunday jamiyatlarda muhitning o‘zi ijtimoiy munosabatlarni me’yorda amal qilishining qator muhim sharoitlariga ega bo‘lmaydi. Bu yerda ijtimoiy guruahlarning umumiy manfaatlarini shakllantirish va unga alohida individlarning qo‘shilish jarayonini ta’minlay oladigan zarur tashkiliy shakllar yo‘q. Mashhur fransuz tadqiqotchisi A.Tokvil fikricha, guruahlarning birortasi ham qarshilik ko‘rsata olmaydigan markazlashgan davlat hokimiyati yetakchi mavqega erishsa ijtimoiy konfliktlar «yo‘qolib boradi».

Totalitar tizimlarda ochiq konfliktlarning vujudga kelishini ijtimoiy tashabbus va o‘zaro tashkillashuv mexanizmlarining yo‘qligi ham qiyinlashtiradi. Bunday tizimlar yuqorida sanksiyalarinmagan tashabbus bilan chiqisha olmaydi. Bunday sharoitlarda siyosiy konfliktlar faqat davlat byurokratik apparatining o‘zidagi elementlar o‘rtasida, uning negizida yuzaga kelishi mumkin. Yopiq jamiyatda konfliktlilik ham yopiq xarakterga ega bo‘ladi. Hokimiyat tuzilmalarida yuz bergen konfliktlar haqidagi haqiqatni jamiyat ular tugab bo‘lganidan so‘ng ma’lum bo‘lgan natijalar va ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra bila oladi.

Hozirgi zamon totalitarizmining asosiy xususiyatlari faqat fashistik rejimlar uchun xos bo‘lmagan, shuningdek, ular asta-sekinlik bilan turli darajalarda deyarli barcha sotsialistik mamlakatlarda amalda namoyon bo‘ldi. Bu ijtimoiy konfliktlilikning umumiyligi ahvoliga ham ta’sir etdi. Birinchi qarashda qaror topgan sotsializmning uzoq tarixi davomida jamiyatga jiddiy ijtimoiy ziddiyatlar va konfliktlar ma’lum bo‘lmagandek ko‘rinishi ajablanarli. Haqiqatda ular ko‘p bo‘lmagan. Hozirda sotsializm mamlakatlarda ro‘y bergen yirik ijtimoiy konfliktlar sonini barmoq bilan sanash mumkin. Bunday holatning sababi faqat sotsialistik tuzumning ijtimoiy xususiyatlardagina emas, shu bilan birga ijtimoiy konfliktga aylanishga qodir bo‘lgan norozilikning erkin namoyon bo‘lishiga sun’iy tarzda to‘sinqil qiluvchi totalitarizmning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Sobiq Ittifoqda «ijtimoiy uyg‘unlik» insonlar ongiga qudratli targ‘ibot apparati vositasida ta’sir etish orqali erishilgan.

Demokratik jamiyatda faqat totuvlik emas, shuningdek, konfliktlilik ham ijtimoiy taraqqiyotning odatiy holatiga aylanadi.

Demokratik jamiyat o‘zining mustahkam yaxlit birligi va konfliktlar yo‘qligi bilan emas, balki o‘z harakatchanligi bilan barqarordir. U nafaqat ijtimoiy konfliktlarni barham toptiradi, balki ularning erkin namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratadi. Biroq totalitar tizimdagisi konfliktlardan farq qilib, ular qonun doirasidagi, qoida bo‘yicha nisbatan tinch kechuvchi konfliktlardir. Ijtimoiy o‘z-o‘zini tartibga solish rivojlangan mexanizmlarining mavjudligi demokratik sharoitda ko‘p darajada ijtimoiy to‘qnashuvlar keskinlashuvning eng so‘nggi shakllarining bo‘lmasligini belgilaydi. Ilmiy asoslangan va tekshirilgan uslublar bo‘yicha muzokaralar, kelishuvlar, munozaralarning muayyan tartibini nazarda tutgan ijtimoiy texnologiya yordamida ijtimoiy konfliktlar umumdemokratik yo‘nalishda keskin salbiy ijtimoiy oqibatlarsiz kechadi.

Jamiyatning totalitar va demokratik tiplari sharoitida konfliktlilik tavsifi (eng umumiyligi jihatda) shaxsni huquqiy begonalashtirishni barham toptirishning hukmron siyosiy rejim xarakteriga qarab turli darajada bo‘lishi haqida xulosa qilishga olib keladi. Ijtimoiy munosabatlarni konfliktlarsiz tartibga solishning ideal huquqiy tizimi mayjud bo‘lmaydi. Faqat alohida fuqarolar va ular birlashmalarining xususiy manfaatlarini ifodalash va

qo'llab-quvvatlash erkinligi orqali haqiqiy umumiy manfaatni shakllantirish mexanizmiga o'tish mumkin.

Shunday qilib, shaxsni huquqiy begonalashtirish muammosini qisqacha tahlil etish asosida quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarni chiqarish mumkin:

1) begonalashtirish falsafiy kategoriya bo'lib, uning mazmuni alohida fanlar tomonidan o'rganiladigan uning xususiy jihatlariga qaraganda mislsiz boy, kuchli va ko'p qirralidir;

2) begonalashtirish fenomeni inson hayotiy faoliyatining ajralmas xususiyati, uning sharoitlari, jarayoni va natijasining individlar ustidan hukmronlik qiluvchi va ularga majburiy bo'lgan muayyan xulq-atvor normasiya, mustaqil kuchga aylanish imkoniyatidir;

3) begonalashtirish fenomeni inson tabiatи va jamiyat bilan uzviy bog'liq, shu bois uning salbiy jihatlarini barham toptirish faqat yakka individlar va jamiyat hayotini doimiy insonparvarlik yondashuvi asosida takomillashirish orqali ro'y berishi mumkin;

4) begonalashtirishning namoyon bo'lish xususiyatlari va shakllari muayyan tarixiy davr umumiy xususiyatlarga uzviy bog'liq holda tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'p darajada o'zgaradi. Biroq mavjud bo'lgan har bir davr begonalashtirish fenomenini butunlay yo'q qila olmadi. «Yangi jamiyat»ni barpo etish, «yangi inson»ni yaratishga bo'lgan urinishlar insonni begonalashtirish yangi shakllarining ko'rinishlari bo'ldi, xolos;

5) shaxsni huquqiy begonalashtirishni yo'qotish jarayoniga konfliktlilik xos. Jamiyatning konfliktlilik darajasiga ta'sir etuvchi ko'p sonli omillar ichida undagi begonalashtirishning muayyan aniq holati ham o'z o'rniiga ega. Biroq jamiyatda konfliktlilik ahvoli bilan begonalashtirishning bog'liqligi bir xil emas.

Begonalashtirishning yuqori darajasi kichik konfliktlilik bilan yuz berishi mumkin, kam darajadagi konfliktlilik esa begonalashtirishning salbiy oqibatlarini umumiy barham toptirishga qodir shakllariga ega bo'lishi mumkin.

5 §. Konflikt funksiyalari

Konfliktning ijtimoiy roli va funksiyasi. Konfliktning ijtimoiy hayotga ta'siri jamiyat va inson hayotining barcha sohalarida kuzatiladi. Bunday ta'sirni oydinlashtirishga funksiya tushunchasini kiritish orqali erishiladi. Bu tushuncha bir tomondan jamiyat hayotida ijtimoiy konfliktning umumiy ahamiyatini, boshqa tomondan esa ijtimoiy konflikt bilan ijtimoiy hayotning boshqa jihatlari (komponentlari) o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Birinchi holatda funksiya deganda konfliktli munosabatlар ijtimoiy oqibatlarining muayyan majmuyi tushuniladi. Ikkinci holatda funksiya deganda bu faoliyat yo'nalishi deb tushuniladi. Nazariy tahlilda bu ikki

nuqtayi nazarni e'tiborga olish muhim, shuningdek, ikki holatda ham funksiyaning ichki ziddiyatlari bo'lishini yoddan chiqarmaslik kerak, chunki unga xos ziddiyatlar xarakteri faqat jamiyatninggina emas, shuningdek, konfliktning o'zini tabiatiga ham bog'liq.

Konflikt funksiyalarini ijtimoiy hayotning ikki asosiy sohasiga qarab ikkita katta guruhga bo'lish mumkin: moddiy va ma'naviy. **Moddiy funksiyalar** har qanday konfliktlar, shu jumladan yuridik konfliktlar ham asosan ijtimoiy hayotning iqtisodiy tomonlari bilan bog'liq bo'lganlari bois namoyon bo'ladilar. Bu bog'liqlik moddiy manfaatlarda, foyda ko'rishda, shuningdek ijtimoiy yo'qotishlarda, zarar ko'rishlarda ifodalanadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda alohida konfliktlarning salbiy oqibatlari juda sezilarli bo'ldi. Qimmatbaho texnikaning qo'llanilishi, texnologik jarayonlarning murakkabligi kam ahamiyatli ishlab chiqarish konfliktini iqtisodiy jihatdan juda noxush hodisaga aylantirishi mumkin. Bunday sharoitda konfliktli vaziyatlarning o'z vaqtida hal etilmasligi korxona uchun katta zararni keltirib chiqaradi. Moddiy zarar miqdori konfliktning o'z ko'lamiga ham bog'liq. Hozirgi zamondagi sharoitida yadro qurolini qo'llash bilan kechadigan xalqaro konflikt sivilizatsiya kelajagiga xavf soluvchi halokatni keltirib chiqarishi mumkin.

Moddiy funksiyalar faqatgina konfliktning halokatli oqibatlarida namoyon bo'lmaydi. Ba'zida ular yaratuvchilik mazmuniga ham ega bo'ladilar. Konflikt jarayonida taraflardan biri konflikt boshlanguniga qadar o'z tasarrufida bo'limgan moddiy qiyatlarni qo'lga kiritishi mumkin. Boshqa tomonidan, konflikt moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishida umumiyligi yuksalishiga olib keluvchi ijtimoiy kuchlarning qayta taqsimlanishiga yordam qilishi mumkin. Mulkiy xarakterdagi yuridik konfliktlar boyliklarni qayta taqsimlanishiga, bir tarafning foyda va ikkinchi tarafning zarar ko'rishiga olib keladi.

Konfliktlarning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri beqiyosdir. Bu yerda konfliktlar ma'naviy sohadagi tub va tez sodir bo'ladigan o'zgarishlarning rag'batlantiruvchi vositasi rolini o'ynashi mumkin. Ular hodisalarga odadagi bir tomonlama baho berish jarayonini to'xtatib, ijtimoiy hayotga boshqa tomonidan, ijtimoiy e'tibordan chetda qolgan xususiyatlarini anglab olib qarash imkoniyatini yaratadi. Shaxslararo konfliktlar uning ishtirokchilari ruhiy holatiga jiddiy ta'sir eta oladi.

Ogholantiruvchi funksiya konfliktni jamiyat muayyan holatining ko'rsatkichi sifatida xarakterlaydi. Konflikt bu yerda odadagi ijtimoiy aloqalar va munosabatla da nimadir izdan chiqqanligini, nimadir tub o'zgarishlarga muhtojligini ko'rsatadi. Qoidaga ko'ra konfliktning o'zi uni yuzaga keltirgan sabablarni chuqur aks ettirmaydi. Biroq uning mavjudligi qator masalalarni amaliy ko'rib chiqish uchun yetarli hisoblanadi. Agar analogiya qo'llanilsa, konfliktning ogholantiruvchi funksiyasini tirik organizm rivojlanishidagi og'riqning fiziologik roliga qiyoslash mumkin.

Axborot funksiyasi ogohlantiruvchi funksiyaga yaqin hisoblanadi. Konflikt doimo aniq sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, ular bilan obyektiv bog‘liq va unda bu sabablar o‘z ifodasini topadilar. Konfliktli vaziyatning avj olishi, kechishi, o‘zgarishlari uni yuzaga keltirgan sabablar haqida muayyan axborot yuklamasini ifodalaydi, ularni o‘rganish ijtimoiy jarayonlarni bi-lishning muhim vositasi hisoblanadi.

Ijtimoiy konfliktlarda konflikt subyektlari va ishtirokchilarining ehtiyojlari, manfaatlari, intilishlari, shuningdek, ularning ijtimoiy noroziligi va qoniqmaslik sabablari to‘laligicha aynan o‘z ifodasini topadiki, bu holat odatdagи faoliyatda va xulq-atvorda yashirin bo‘ladi. Konflikt holatida taraflar o‘zlarining ham, ular manfaatiga qarshi turganlarning ham harakatlarini yanada aniq tasavvur qiladilar, ijtimoiy taraqqiyot ziddiyatlari va obyektiv muammolarining mavjudligini yanada chuqur anglaydilar.

Differensiatsiya funksiyasi konflikt ta’sirida vujudga keluvchi ijtimoiy differensiatsiya jarayonini xarakterlaydi, bu holat ko‘pincha avvalgi ijtimoiy tuzilmalarni buzish va o‘zgartirish orqali yuz beradi. Bu funksiya konfliktdagi ijtimoiy xulq-atvorning umumiy xususiyatini ifodalaydi, unga jalb etilgan ijtimoiy kuchlarning qayta joylashuvi va qayta guruhlashuvidan iborat. Konflikt ta’sirida ijtimoiy differensiatsiya jarayoni ikki qarama-qarshi yo‘nalishda rivojlanadi. Agar jonli tabiat analogiyasidan foydalansila, yirik va uzoq davom etuvchi konfliktda ijtimoiy differensiatsiya jarayoni jonli hujayraning bo‘linishini yodlatadi. Dastavval harakat yagona markazni cho‘zishga yo‘naltiriladi, avvalgi butunning alohida elementlarini o‘ziga tortuvchi qarama-qarshi qutblar shakllanadi. Bu yo‘nalishda qarama-qarshi kurashuvchi kuchlar qutblanishi yuz beradi. Shu bilan birga qarama-qarshi jarayon ham yuz beradi, ya‘ni birlashish jarayoni, yangidan paydo bo‘lgan markazlar atrofida parchalangan kuchlarning jipslashish jarayoni yuz beradi. Masalan, konfliklashuvchi davlatlar o‘z ittifoqchilarini safarbar qiladilar, janjallahuvchi odamlar o‘z nuqtayi nazarlari tarafdarlarini to‘playdilar. Konfliktning bu ta’siri shu darajada kuchli bo‘lishi mumkinki, u ijtimoiy konfliktning differensiyalovchi ta’siridan, ijtimoiy kuchlarning qutblanishi va yangi jipslashish jarayonidan chetda qolishni xohlagan shaxslar yoki ularning birlashmalarini ham o‘z ta’sir doirasiga tortishi mumkin.

Dinamik funksiya. Ijtimoiy konflikt dinamik funksiyasining siyosiy ahamiyati o‘z vaqtida marksizm tomonidan sifsiy kurash va ijtimoiy inqilobga oid xulosalarida ishonchli qilib ochib berilgan. Markscha tushunchalarda har qanday ijtimoiy konflikt ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi va ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keluvchi vosita ekanligi umumiylar tarzda aks ettirilgan. Tub qayta o‘zgarishlarning umuman bo‘lmasligi ijtimoiy hayotning tinch va bir maromda kechishini ta’minlaydi, kichik o‘zgarishlar muammo mohiyatiga ta’sir etmaydi va vaqt ichida sekinlik bilan yuz beradi. Biroq konflikt yuzaga kelsa hamma narsa harakatga keladi. Odam-

larni yillar davomida qoniqtirib kelgan xulq-atvor va faoliyatning odatiy normalari hayratlanarli darajadagi keskinlik va afsuslanishsiz uloqtirib tashlanadi. Konflikt zarbalari ta'sirida jamiyat qayta o'zgaradi, avvalgi tinchlik holati yo'qoladi. O'zgarishlar avvalgicha kam ahamiyatli va sezilarli emasdek tuyuladi, biroq insonlar o'rtasidagi munosabatlarda, qarashlarda, xulq-atvorda darz ketishlar kuzatiladi. Ijtimoiy konflikt qanchalik kuchli bo'lsa, uning ijtimoiy jarayonlarni borishiga bo'lgan siyosiy ta'siri shunchalik yaqqol bo'ladi, yuzaga kelgan o'zgarishlar va ularni amalga oshirish tezligi shunchalik sezilarli bo'ladi.

Konfliktning funksional ziddiyatliligi. Konflikt funksiyalarini tavsiflashda shuni qayd etish zarurki, ular jamiyatda qarama-qarshi yo'naltirilgan tendensiyalarning o'zaro ta'siri orqali namoyon bo'ladilar. Bu esa ularning dialektik, ichki ziddiyatli tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Konflikt funksiyalari – ziddiyatlarni aniqlash va hal qilish usuli bo'lib xizmat qiladi. Agar qarama-qarshi kuchlar, ularning manfaatlari ochiq kurashga aylanuvchi tanglikni yuzaga keltirsa, tabiiyki, unda bu kurash ertami-kechmi tugaydi. Konflikt va uning hal qilinishi yuzaga kelgan berk holatdan chiqish yo'llaridan biridir.

Konflikt funksiyasiga bunday yondashuvda quyidagicha savol yuzaga keladi: konfliktning yuzaga kelishi yaxshimi yoki yomonmi? Odatda har qanday konfliktga bir tarzda salbiy baho berish qabul qilingan. Aslida ham odamlar faqat turmushdagi janjallar va kelishmovchiliklardan, xizmatdagi ko'ngilsizliklardangina emas, balki keyingi paytlarda millatlararo, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa qarama-qarshiliklar, kurashlardan charchagan. Shu bois ko'pchilik tomonidan konflikt salbiy, noxush hodisa deb baholanadi va haqiqatda ham u taraflardan biri uchun keraksiz voqelikdir. Shu bilan birga konflikt faqatgina muqarrar ijtimoiy voqelik emas, balki shu bilan birga yana foydali ekanligi to'g'risida nuqtayi nazar ham mavjud.

Konfliktni noxush, keraksiz voqelik deb tan oluvchi tadqiqotchilar uni me'yorda amal qiluvchi ijtimoiy tizimga putur yetkazuvchi hodisa deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, konflikt dastlab tizimda mayjud emas va odatda tizimni barqaror va muvozanat holatiga qaytaruvchi kuchlar yuzaga kelganda (yoki faollandashganda) u yuz beradi. Biroq bundan konfliktning o'zida tizimni barqaror holatda tutib turish uchun zarur bo'lgan institutlarni paydo bo'lishiga sababchi omillar yotganligi tushuniladi. Bu institutlarga: qonunchilik faoliyati, turli nizolarni hal etish uchun qabul qilingan tartiblar, siyosiy bahslar, munozaralar, tortishuv (debat)lar, bitimlar vositasida sotuvchi va xaridorlarning raqobatlashuvchi manfaatlari hal qilinadigan bozor va shu kabilar kiradi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, konfliktni umuman salbiy hodisa deb hisoblovchi mutaxassislar ham unda ba'zi ijobjiy xususiyatlarning borligiga e'tibor beradilar.

Boshqa bir ilmiy yondashuv esa, konfliktni normadan chetga chiquvchi va

o'tkinchi vogelik deb emas, balki ijtimoiy munosabatlarning doimiy va hatto eng muhim tarkibiy qismi deb qaraydi. Bunday yondashuv Aristotel, Gobbs, Gegev, Marks, Veber qarashlariga asoslanadi. Bu qarashga ko'ra jamiyatdagi har qanday tanqislik fakti o'z-o'zicha konfliktni yuzaga keltirish uchun yetarlidir; har qanday inson istalgan doirada (guruhdha) o'zining tanqis resurslarga bo'lgan ulushini, zarur bo'lsa, boshqalar hisobidan ko'paytirishga harakat qiladi. Hudud va boyliklar (resurs) uchun kurashuvchilarda yana yo'l boshchilikka, hokimiyatga va mavqe uchun kurashga moyillik bo'lsa, konflikt bo'lishi muqarrar. Darendorning fikricha, «Real borliq uchun turli qarashlarning kesishuvi, konfliktlar, o'zgarishlarning bo'lishi zarur. Aynan konflikt va o'zgarishlar insonlarga erkinlik beradi; bularsiz erkinlikning mavjud bo'lishi mumkin emas».

Uchinchi guruh olimlar esa konflikt ziddiyatni u yoki bu tarzda hal qilganligi uchun uni foydali deb hisoblaydilar. Biroq konflikt nimaning evaziga hal etiladi? Tizimni buzish yoki unga jiddiy zarar yetkazish yo'li bilan yoki taraflardan birini yo'qotish vositasida hal etilishi mumkin. Yaxshisi, obyektiv mavjud ziddiyatni konflikt darajasiga yetkazishasdan, uni tinch, ma'rifiy vositalar yordamida yo'qotish kerak. Shu sababli konfliktlarning foydaliligi haqida faqat muayyan konkret holatlarda va shartli ma'noda gapirish mumkin.

Ziddiyatni hal etish – ijtimoiy konfliktning obyektiv funksiyasidir.

6 §. Konfliktlar sohalari va tipologiyasi

1. Konflikt sohalari

Konflikt subyektlari va ularning namoyon bo'lish sohalariga qarab konfliktlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: iqtisodiy, siyosiy, millatlararo, turmush, madaniy va ijtimoiy konfliktlar.

Jamiyatning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy konfliktlarning mohiyati va yoyilish darajasi sezilarli darajada o'zgardi. Negaki, davlat mulkchiligi hukmronlik qilgan va bozor munosabatlari mavjud bo'lmagan jamiyatda iqtisodiy konfliktlar uchun negiz juda cheklangan va tor bo'ladi. Bunda Sovet Ittifoqida ishsizlik, ish tashlashlar, sinflar kurashi bo'lmagan degan fikrlar targ'ibot ma'nosida bo'lmaganligi ma'lum, umum davlat miqyosida ko'p yillard davomida iqtisodiy sohada konfliktlar amalda uchramagan yoki juda mahalliy va qisqa muddatli bo'lgan.

Bozor munosabatlariiga o'tishda boshqacha manzarani kuzatish mumkin. Mohiyatiga ko'ra bozorning o'zi doimiy konfliktlar uchun maydondir, biroq u raqobat kurashi yoki raqibini siqib chiqarish ko'rinishida emas, balki, avvalo, dialog, ba'zida sherigini foydali kelishuvga majburlovchi turli harakatlar (tahdid solish, shantaj, zo'rlik) bilan birga ro'y beradigan savdo bitimlari shaklida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqa kuchli konfliktli vaziyatlar ham yuz beradi: ish tashlashlar, pul muomalasidagi inqirozlar va b. Bozor iqtisodi maxsus

ishlab chiqilgan qoidalar bilan tartibga solinuvchi, doimo yuzaga keluvchi mehnat konfliktlarini ham taqozo etadi. Garchi mehnat nizolari har qanday ijtimoiy tuzumda mavjud bo'lsa-da, ular aynan istagan tovari (ishchi kuchini ham) oldi-sotdisiga asoslangan bozor iqtisodi uchun ko'p darajada xosdir.

Katta ko'lamdagi iqtisodiy konfliktlarning xususiyati shundaki, ularga aholining keng qatlamlari jalb qilinadi. Aviadispetcherlarning ish tashlashi faqat aviatsiya kompaniyalariga emas, shuningdek, minglab yo'lovchilarga ham taalluqli. Agar ish tashlash vrachlar tomonidan amalga oshirilsa, millionlab jabrlanuvchilar paydo bo'ladi. Shu bois ba'zi turdag'i ish tashlashlarni man qilish jamiyat hayotini barqarorlashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Siyosiy sohadagi konfliktlar – bu umuman demokratik jamiyatdagi odatiy vogelikdir. Ularning xususiyati shundaki, ular katta miqyosdagi ijtimoiy hodisalarga, qo'zg'ololnarga, ommaviy tartibsizliklarga, oqibat natijada fuqarolik urushiga aylanishi mumkin. Hozirgi davrdagi ko'pchilik siyosiy konfliktlar uchun millatlararo jihat xarakterlidir. Deyarli barcha hollarda siyosiy konflikt bir vaqtning o'zida milliy ham hisoblanadi yoki har qalay uning milliy tomoni bo'ladi (vatanparvarlik, separatizm yoki diniy harakat).

Mehnat, sog'lijni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ta'lim sohasidagi manfaatlar qarama-qarshiligi bilan kechuvchi konfliktlar yuqorida bayon qilingan konfliktlarning ikki turi – iqtisodiy va siyosiy konfliktlar bilan uзви bog'liq. Bu konfliktlar bevosita ijtimoiy tuzum tabiatiga bog'liq emas va ularning ko'lami unchalik katta emas. Xuddi shunday fikrni kishilar o'tasida ularning ish yoki yashash joylarida sodir bo'ladigan turmush konfliktlari ga nisbatan ham bildirish mumkin.

2. Yuridik konflikt tipologiyasi

Konfliktli o'zaro munosabatlarning aralash variantlari ko'p uchrab turadi. Masalan, jamoat tashkilotlari (siyosiy partiya, kasaba uyushmasi) bilan davlat organlari o'tasidagi konflikt dastlab yuzaga kelganda, yuridik xarakterga ega bo'lmashligi mumkin, biroq keyinchalik huquqiy konfliktga aylanib, u yoki bu qonunchilik normalari (konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliyaviy) ta'siriga tushishi mumkin. Yuridik konfliktlarning aralash tiplari fuqarolar o'tasidagi o'zaro munosabatlarda, ayniqsa, ish joyida yoki turar joyida uzoq davom etuvchi nizolarda uchrab turadi. Masalan, oilaviy janjal sifatida boshlangan konflikt – ma'muriy huquqbazarlik, hatto jinoyatga (kaltaklash, bezorilik) o'tishi mumkin; muassasadagi ma'muriy o'zaro munosabatlар mehnat, ba'zida huquqning turli sohalari bilan tartibga solinadigan siyosiy konfliktga aylanishi mumkin. Milliy munosabatlар sohasidagi konfliktlar yuridik nuqtayi nazardan ko'pincha ko'p tarmoqli xarakterga

ega. Ularga konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy, protsessual, xalqaro huquq normalari qo'llanilishi mumkin.

Tegishli huquqiy normalar tabiatiga qarab yuridik konfliktlar tipologiyasiga to'xtalsak, bunda konflikt sifatida istalgan huquq normasini: vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi yoki man etuvchi normalarni turlicha sharhlash va tushunish yotadi (yoki ularga rioya etmaslik, ularni buzish). Man etuvchi normalar bilan bog'liq konfliktlar tez-tez bo'lib turadi. Biroq normaning xarakteri faqat konfliktlar soniga emas, balki uning subyektlariga ham ta'sir qiladi.

Vakolat beruvchi normada konflikt vakolatli subyekt bilan xususiy shaxs – jismoniy yoki yuridik shaxs o'tasida yuzaga keladi, bunda xususiy shaxsning manfaatlari vakolatli subyekt tomonidan buzilgan bo'ladi yoki shunday bo'lgan deb taxhmin qilinadi.

Misol, 1993-yili davlat tomonidan viloyat hududidagi yer uchastkalari fuqarolar uchun dala hovli barpo etish uchun ajratilgan. Biroq, dala hovlilar uchun ajratilgan yer uchastkalaridan avval chorva mollarini o'tlatish va yem-xashak tayyorlashda foydalanib kelayotgan qo'shni qishloqlar aholisi tomonidan norozilik bildirilgan. Bu yerda konflikt yer uchastkalariga huquqi bor shaxslar bilan yozilmagan qoida tarzida foydalanuvchilar o'tasida yuzaga kelgan. Bu konflikt mahalliy hokimiyat tomonidan mahalliy aholining ehtiyojlari uchun boshqa yerni ajratish yo'li bilan hal qilingan. Bu holda yuridik konflikt uchun xos bo'lgan ikkita emas, balki uchta taraf: dala hovli egalari, qishloq aholisi va hokimiyatning mahalliy organlari ishtirok etgan.

Majburlovchi normani qo'llash holatida konflikt subyektlari doirasi kengroq: u burchli shaxs va davlat o'tasida (majburiyat bajarilmagan holda), shuningdek, shu shaxs bilan uning kontragenti o'tasida yuzaga kelishi mumkin. Gap shundaki, majburiyat faqatgina jismoniy va yuridik shaxslarnigina bog'lamaydi, balki davlat ham uning ijrosining kafolati sifatida chiqadi. Misol, avtobusdag'i nazoratchi o'z majburiyatini bajarib chiptasiz yo'lovchini jarimaga tortadi, yo'lovchi esa jarimadan bosh tortib, janjallasha boshlaydi. Agar nazoratchi chiptasiz yo'lovchi bilan konfliktga kirishishni istamay, uni qo'yib yuborsa, u avtomatik ravishda davlat bilan bo'ladigan boshqa konfliktga kiradi.

Man etuvchi normalarni qo'llashdagi konfliktlarda tegishli jismoniy yoki yuridik shaxs bu normalarni buzadi. Bunga atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar misol bo'ladi.

Bunday tipologiyaga huquqni qo'llovchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi bo'yicha yuridik konfliktlarni tasniflash yaqin turadi. Bu tasnif konfliktli vaziyat vujudga kelgan holda bu organlarning kompetensiyasi haqida tasavvur hosil qilish uchun qulay. Bu kompetensiya huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan yetarli darajada aniq belgilangan bo'ladi (sud, arbitraj, prokuratura, militsiya va b.).

Konfliktlarni organlar tizimi bo'yicha tasniflash hammadan ham fuqarolar uchun foydali, chunki ular turli nizoli masalalarni hal etish uchun qayerga murojaat etishlari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

III BOB. KONFLIKTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MEXANIZMI

1 §. Konfliktli vaziyat

Konfliktli vaziyat tushunchasi. Konfliktgacha bo'lgan hodisalarini ko'rib chiqsak, ularning ikki guruhdan iborat ekanligini aniqlash mumkin: qarama-qarshi kurashuvchi taraflar ishtirok etayotgan obyektiv hayotiy vaziyat va taraflarning o'zi – muayyan manfaatlarga ega kishilar.

Ma'lumki, hayotiy vaziyat o'zining ko'p jihatlari bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Inson turmushi yoki ijtimoiy guruh mavjud bo'lishi holatlari o'zgaruvchan, tezlik bilan yoki aksincha, sekinlik bilan kechuvchi, uzoq vaqt o'zgarmaydigan tarzda o'tishi mumkin. Ular muayyan ma'naviy muhit va u yoki bu darajadagi moddiy ne'matlar bilan xarakterlanishi mumkin. Ular subyektlarning hududiy joylashuvi, turli ijtimoiy ierarxiyalar va boshqa ko'p omillar bilan bog'liq.

Konfliktli vaziyat deganda insonlar manfaatlari bilan bog'liq bunday holatlarning shunday jamlanishiki, bu ijtimoiy subyektlar o'rtaida real qarama-qarshilik uchun obyektiv tarzda negiz yaratadi. Bu ta'rifni batatsil ko'rib chiqsak, vaziyatning bosh xususiyati bu konflikt predmetining vujudga kelishidir. Vaziyat, konfliktdan oldin yuzaga kelishi uchun u taraflar tomonidan hali foydalanmasligi va hatto to'la ma'noda anglanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, ilmiy muassasada shtatlar qisqarishi kutilmoqda. Ko'p xodimlar, ayniqsa, nafaqa yoshidagilar bu tadbir ta'siri ostiga tushishlari mumkin. U yoki bu lavozimlarni tugatish haqidagi masala kun tartibiga aniq qo'yilmaganligi uchun konfliktning vujudga kelganligi haqida gapirishga ertalik qiladi. Biroq konfliktli vaziyat bor, chunki bo'lishi kutilayotgan keshishmovchiliklar predmeti va kurash mavjud, jamoada tanglik paydo bo'lgan, bu vaziyat ishtirokchilarining keyingi harakatlarini yuzaga chiqaradi, belgilab beradi.

F.M. Borodkin va N.M. Koryak mehnat jamoalaridagi turli konfliktli vaziyatlarni tahlil etib, tashkilotlarda konfliktlar uchun negiz yaratuvchi turli tipik vaziyatlarni quyidagicha umumlashtirganlar: a) tashkilotlarning tarkibiy bo'linmalari o'rtaida texnologik aloqalarning nomuayyanligi; b) turli farmoyishlar beruvchi ko'p sonli boshliqlarning mavjudligi; d) bir boshliqqa bo'ysunuvchi xodimlarning ko'p miqdorda bo'lishi, bu boshqaruvda tartibsizlikni yuzaga keltiradi; e) mas'uliyatni bir xodimdan ikkinchisiga o'tkazish, bu umumiylashtirish holatini yuzaga keltiradi; f) bir qator

xodimlarning uncha yuqori bo'lmagan shaxsiy va ishchanlik sifatlariga ega bo'lishi. Tabiiyki, shunday sharoitlarda jamoada konflikt va ziddiyatni yuzaga kelishi juda yengil yuz beradi. Bu ro'yxatga tanglikni yuzaga keltiruvchi yana qator boshqa omillarni kiritish mumkin, masalan, boshqaruv tizimini qayta tashkil qilish, yuqori idoralarning shtatlar qisqarishi haqidagi ko'rsatmalari, ish haqini to'lash bilan bog'liq qiyinchiliklar va b.

Xalqaro sohadagi konfliktli vaziyatlar o'ta murakkab va turlichadir. Masalan, Dnestrbo'yi respublikalarida Moldova hukumati bilan shu hududdagi rus tilida so'zlashuvchi aholi o'rtaida konflikt yuzaga kelgan. Bu hududda taraflar qarama-qarshiligining boshlanishi Moldaviya SSR Oliy Soveti til haqidagi qonunning muhokama qilinayotgan vaqt, ya'ni 1989-yilning yoz - kuz fasliga to'g'ri kelgan, bu qonun moldav tilini butun respublika hудуди uchun yagona davlat tili sifatida tasdiqladi. Bunga javoban Dnestrbo'yining ko'p korxonalarida mehnat jamoalarini kengashlari tuzilib, ular bu masala yuzasidan referendum o'tkazilishini talab etganlar. Bu talab respublika hukumati tomonidan rad etilgan. Dnestrbo'yi konfliktining boshlanishi shunday yuz bergan.

Konfliktli vaziyat obyektiv ravishda bo'lg'usi qarama-qarshi taraflar erki va xohishidan tashqari (masalan, muassasada shtatlar qisqarishi) yoki taraflardan birinjing yoxud ikkisining xohishi bilan yuzaga kelishi mumkin. Bunda shu narsa juda muhimki, har qanday vaziyat obyektiv mazmunga (u real mavjud hodisalar bilan belgilanishi mumkin) va subyektiv mazmunga (bu hodisalarga taraflarning har biri qanday ta'sir etishiga bog'liq) ega, chunki subyekt shulardan kelib chiqib konfliktda harakat qila boshlaydi.

Konfliktli vaziyatni qabul qilish. Konfliktli vaziyatni subyektiv tarzda aks ettirish ishning haqiqiy holatiga to'g'ri kelishi shart emas. Adabiyotda konfliktni anglab olish har doim o'zida subyektivizm elementini aks ettiriши va shu sababli muayyan darajada buzib aks etilishi haqida fikr to'g'ri bildirilgan.

Dnestrbo'yi vaziyatida moldav rahbarlarining harakatlarini xarakterlovchi obyektiv faktlar shu hudud aholisi tomonidan tezda ilg'ab olingan va tub millatga mansub bo'lmagan shaxslarga nisbatan kamsitilish deb qabul qilingan.

Ko'p o'tmay Dnestrbo'yi avtonomiyasini yaratish maqsadida Dnestrbo'yi aholi punktlarining ko'pchiligidagi referendumlar o'tkazilib, ularda ovoz ber ganlarning ko'pchiligi suverenitetni yoqlagan. Bu holdagi barcha voqealarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yuzaga kelgan vaziyatni subyektiv baholash obyektiv holatlar bilan ko'p darajada mos kelgan. Biroq moldav hukumatining harakatlarini Dnestrbo'yi aholisi tomonidan Moldaviyadagi eng ekstremistik harakat oqimlarining shiorlari va chaqiriqlari bilan bevosita o'xshashdek qabul qilinganligini istisno qilish kerak emas, bu hukumatning diskriminatsiyaviy maqsadlarini ma'lum darajada bo'rttirib yuborishni anglatadi.

Vaziyatni noto'g'ri qabul qilish keng ko'lam kasb etishi mumkin. Ma'lumki, konflikt sababi bo'lib boshqa subyektni tushunmaslik hisoblanishi

mumkin. Mutaxassislar «adekvat tushunilmagan» va «soxta» konfliktlar kategoriyalarini ajratadilar¹.

Birinchisiga shunday holatlар kiradiki, bunda konfliktli vaziyat mavjud va taraflar uni shundayligicha qabul qiladilar, biroq haqiqiy ahvoldan jiddiy chetga chiqqan holda qabul qiladilar. Jiddiy chetga chiqish deganda paydo bo'lgan muammoning ko'lamlarini haddan ziyod kengaytirish (mutlaq xususiy sabab yuzasidan paydo bo'lgan kelishmovchilik umumiy xarakterga ega kelishmovchilik sifatida noto'g'ri talqin qilinishi mumkin) yoki aksincha uni haddan ziyod toraytirish mumkin, ya'ni konfliktli vaziyat to'liqmas yoki qisman aks etishi mumkin. Boshqa turdag'i chetga chiqish «shartli» konflikt vaziyatida mavjud bo'ladi, bunda ziddiyatlarning mavjud bo'lishi kurashuvchi taraflar tomonidan anglashilmaydigan yengil o'zgaruvchi vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Millatlararo konfliktlarda bu hol tez-tez uchraydi.

«Soxta» konfliktda esa obyektiv konfliktli vaziyat butunlay bo'lmaydi, subyektlar o'rtasida birorta ziddiyat yo'q, shunga qaramasdan taraflar o'zaro munosabatlarning konfliktliliginini his etadilar va qarama-qarshi kurashni boshlaydilar. Yuridik adabiyotda bu masalada bildirilgan yana bir fikr diqqatga sazovordir, ya'ni: «Insonlar hayotni va unga xos bo'lgan qiyinchiliklarni turlicha tushunadilar, chunki:

- har birimizda takrorlanmas xarakter va o'ziga xos hayotiy tajriba bor;
- har birimiz erkak yoki ayol bo'lib tug'ilamiz;
- har birimiz tug'ilishda muayyan muhitga tushib qolamiz va butunlay boshqa tajriba, dunyoqarash va rolga ega bo'lamiz;
- har birimiz turli qadriyatlarga ega bo'lamizki, bular bizning tafakkurimizga va xulq-atvorimizga ta'sir etadi hamda bir xil harakatlarni sodir qilishga va boshqalaridan voz kechishga majbur qiladि.

Shu sababli biz boshqa odamlar bilan tanishganimizda va ishlaganimizda hammamizning aynan bir xil narsalarni turlicha qabul qilishimiz ajablanarli emas².

Yuqorida ko'rsatilgan hollarda noadekvat bo'lgan yoki soxta qabul qilishning ikkala tarafga xosligi kam kuzatiladi. Odatda faqat bir subyekt vaziyatni xato yoki buzib, boshqasi esa to'la adekvat holda tushunadi. Birinchi subyekt vaziyatni konfliktli deb tushunib, shunga mos harakat qila boshlaydi, boshqasi esa konfliktli harakatlarni o'ziga yo'naltirilganligini bilgandan so'ng bu vaziyatni «konfliktli» deb baholash uchun ko'proq asosga ega bo'ladi. Mabodo ikkinchi subyekt vujudga kelgan muammo ning tasodifiyligini anglab yetmasa, vaziyatning u tomonidan baholanishi obyektiv bo'la olmaydi. Soxta qabul qilish kimningdir oldindan

¹ Qarang: Петровская Л.А. О понятийной схеме социально-психологического анализа конфликта. М., 1977 г.

² Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.

ko'zlanmagan harakatlarini qasddan, ataylab qilingan, ya'ni shaxsnинг muayyan manfaatlariga mos keluvchi harakat deb tushunish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday muammoni hal qilish uchun odatda konfliktni boshlagan harakatlar ehtiyyotsizlik tufayli, qasddan bo'limganligini aniqlash va tushunish yetarli hisoblanadi. Biroq ko'pincha bu imkoniyatlar e'tibordan chetda qoldiriladi va taraflar bir-birlarining harakatlarida yovuz qasdi ko'radilar, bu esa konfliktning kuchayishi va chuqurlashishiga olib keladi.

Konfliktlili vaziyatni noadekvat yoki soxta qabul qilishning sababi sifatida qaraganda shuni ta'kidlash muhimki, agar bunday qabul qilish kognitiv konflikt genezisida bayon qilinayotgan nuqtayi nazar mazmunini buzib sharhlash bilan bog'liq bo'lsa, mafaattlar konflikti genezisida esa bu, eng avvalo, opponent motivlarini baholashdagi xatolar bilan belgilanadi.

Soxta qabul qilish odatda boshqalarning so'zi va harakatlarini noto'g'ri tushunish bilan bog'liq. U turli sabablardan kelib chiqadi: xabarning ikki xil mazmunga ega bo'lishi, xabarning dastlabki mazmuniga muloqot matni orqali kiritiladigan xatoliqlar bilan va b. Muayyan holatlarda savol berish yoki hatto xushomad qilish haqorat sifatida qabul qilinishi kuzatilgan. O'zgalarning xatti-harakatlaridagi ma'noni bunday qabul qilishdagi tafovutlar ko'pincha madaniyatdagi farqlar, muloqotning turli qoidalari bilan belgilanadi.

Afsuski, xatolik orqasida yuzaga kelgan konflikt keyinchalik go'yoki o'zining real predmetiga ega bo'lgan konflikt kabi avj olishi mumkin. Konflikt jaryonining o'zidayoq haqiqiy konfliktlili vaziyat vujudga keladi. Bunday holat ko'pincha kriminal konfliktlarga xos belgidir. Shu munosabat bilan A.M. Yakovlev hatto jinoiy xatti-harakatni yuzaga kelgan vaziyatga nisbatan noadekvat reaksiya sifatida xarakterlagan. Vaziyatni noadekvat baholashning o'zi turli shaxsiy omillar bilan izohlanadi: dunyoqarashning cheklanganligi, ruhiy ta'sirlanish (stress), oqibatlarni oldindan ko'ra bilishning sustligi, narkotik yoki alkogol ta'sirida bo'lish va h. Bunda vaqt omilining ham ahamiyati bor: hamma narsani birdaniga obyektiv hal qilish mumkin emas.

Konfliktlili vaziyat va shaxs. Shunday qilib, shaxslar o'rtasidagi konflikt-da konfliktlili vaziyatni taraflar tomonidan qabul qilish xarakteri katta ahamiyatga ega. Yuzaga kelgan vaziyatni e'tiborga olib, shaxs o'z xarakteri va qarashlarining xususiyatlariga muvofiq holda harakat qiladi. Aynan shu narsa bilan bir xil vaziyatda turli kishilar (guruuhlar) tomonidan turlichcha, ba'zan zid harakatlar sodir etilishini tushuntirish mumkin. Aynan konkret vaziyat bilan shaxs xususiyatlarining o'zaro ta'siri konfliktni yuzaga kelтирishi mumkin yoki odamni undan qutqarishi mumkin.

2 §. Konfliktning rivojlanishi

Latent bosqich. Konfliktdan oldin uning latent — yashirin bosqichi shart hisoblanib, unda tashqi harakatlarni istisno qilganda konfliktning barcha elementlari mavjud bo'ladi.

O‘z navbatida bu bosqich konflikt rivojlanishining bir qator izchil jara-yonlarini yoki davr (etap)larini o‘z ichiga oladi.

Birinchi davr — obyektiv konfliktli vaziyatning yuzaga kelish davri.

Ikkinci davr — bunday vaziyatda subyektlar (yoki hech bo‘limganda subyektlarning biri) tomonidan o‘z manfaatlarini anglab yetish davri.

Uchinchi davr — o‘z manfaatlarini qondirish uchun to‘sinqi anglab yetish (kognitiv konfliktda — o‘zga qarashlarni anglash) davri. Bu to‘sinqalar uch turda bo‘lishi mumkin. Birinchidan, bu to‘sinqalar bo‘lg‘usi konfliktning doimiy ishtirokchilar deb qaralishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslarning pozitsiyalariga bog‘liq emas, balki obyektiv vaziyatdan kelib chiqishi mumkin. Masalan, ximiya zavodi atmosferani ifloslantirib atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablarni doimiy ravishda buzib kelgan. Sababi — mazkur kimyoviy ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan suvni muhofazalash inshootlarining sanoatda ishlab chiqilmaganligidadir. Zavodning manfaati — bu mazkur vaziyatni o‘zgartirish, oshkora huquqbuzartikka barham berishdir. Zavod bilan konfliktlashuvchi tarafning o‘zi yo‘q. Bu yerda konfliktli vaziyat bevosita konfliktni yuzaga keltirmaydi. Ikkinchidan, ishtirokchilarning o‘z subyektiv xususiyatlari ularning manfaatlarini qondirish uchun to‘sinq bo‘lishi mumkin. Masalan, zavod misolida ko‘radigan bo‘lsak, uning o‘zi tozalash inshootlarini o‘z kuchlari bilan qurishi mumkin edi, biroq kerakli tashabbusni namoyon etmagan. Biroq bunda zavodning tashqi tartibdagi konfliktga kirishuvini kuzata olmaymiz. Bu yerda konflikt jamaoa ichida bo‘lishi mumkin.

Nihoyat, uchinchidan, tashqi to‘sinq mavjud va obyektiv belgilangan, masalan, tozalash inshootini qurish uchun qo‘srimcha xarajatlarga vazirlikning mansabдор shaxsi tomonidan rozilikning berilmasligi. Bu holatda to‘sinq yetarli asosda mavjud va anglashilgan, bu esa konfliktning keyingi rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

To‘rtinchi davr — o‘z manfaatlarini va boshqa tarafning tegishli qarshiliklarini anglash davri.

Beshinchi davr — taraflarning biri tomonidan o‘z manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirgan muayyan harakatlarini o‘z ichiga oladi (masalan, zavod ma’muriyatining vazirlikka rasmiy murojaati).

Biroq bu murojaatga berilgan rad javobi konfliktning boshlanishi bo‘lib, unda ikkala tarafning pozitsiyalari aniq shakllangan bo‘ladi va bir-biriga nisbatan amaliy harakatlar boshlanadi. Bu oltinchi davrdir.

Konflikt rivojlanishining oltita davri ko‘rsatilgan izchillikda bir-birining o‘rniga kelishi shart emas. Ba‘zilari tushirilib qoldirilishi, boshqalari takrorlanishi, ularning izchilligi boshqacha tarzda bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltiligian mantiqiy sxema konflikt tashqi rivojlanishining eng tipik misolidir.

Tabiiyki, bunda konflikt ochiq shaklga ega bo‘ladi, bu esa kamida uch holat bilan xarakterlanadi. Birinchidan, ishtirokchilarning har biri uchun konfliktning mavjudligi shak-shubhasizdir;

Ikkinchidan, harakatlar amaliy ahamiyat kasb etadi, ular tashqi shaklga ega bo‘ladi, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, nizoli obyektni egallash bo‘yicha harakatlar sodir etish, zo‘rlik, tahdid va b.;

Uchinchidan, latent bosqichdan o‘tgan konflikt haqida konfliktga u yoki bu darajada ta’sir etishga qodir bo‘lgan uchinchi shaxslar, begona shaxslar xabardor bo‘ladilar. Bunday ta’sir bir xil ahamiyatli bo‘lmaydi. U ba’zida konfliktni sustlashtirishi yoki, aksincha, millatlararo konfliktlarda taraflarning yovuz kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin.

Ba’zi konfliktlarda boshqacha darajadagi konfliktlarga o‘tish kuzatiladi, masalan, shaxsiy munosabatlardan guruhlar o‘rtasidagi konfliktga o‘tish mumkin.

Tashqi harakatlar. Konflikt odamlar, guruhlar yoki individlar o‘rtasidagi munosabat bo‘lganligi bois u har qanday ijtimoiy munosabat kabi yuris-prudensiyada yaxshi o‘rganilgan yuridik ahamiyatli xulq-atvor singari kamida to‘rtta elementdan iborat bo‘ladi, ya’ni: konflikt subyektlari, obyekti, qarama-qarshi jarayonning ichki, ruhiy (subyektiv) va tashqi (obyektiv) tomonlari. Konfliktli xulq-atvor obyektiv jihatdan konflikt ishtirokchilarining qarama-qarshi yo‘naltirilgan harakatlaridan iborat. Bu harakatlar orqali konfliktlashuvchi tomonlarning fikriy, ruhiy, irodaviy sohalardagi yashirin jarayonlari amalga oshiriladi. Har bir taraf manfaatlarining qaror topishiga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sirning almashinishi va raqib manfaatlarini cheklash ijtimoiy hodisa sifatida konflikt mohiyatini tashkil etadi.

Konflikt tuzilmasini to‘liq tushunish va demak, u qanday rivojlangan va oqibatda nimani kutish mumkinligi haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun yuqorida ko‘rsatilgan elementlarni tahlil etish lozim. Ishtirokchilar tashqi harakatlarining o‘zi harakat joyi va vaqtiga bog‘liq holda o‘z mohiyatini keskin o‘zgartiradi. Vaqt omili juda muhim. O‘z vaqtida erishilmagan bitim yoki aksincha, rad etish konfliktda manfaatdor tomon kutayotgan natijani bermasligi yoki teskarri natijani berishi mumkin.

Konfliktagi barcha harakatlarni shartli ravishda asosiy va yordamchi harakatlarga bo‘lish mumkin. Asosiy harakatlar bu manfaatlardagi mavjud qarama-qarshilikni o‘zgartirishga olib keluvchi yoki saqlab qoluvchi bevosita konflikt predmetiga yo‘naltirilgan harakatlardir. Yordamchi harakatlar asosiy harakatlarning bajarilishini ta’minlaydi va konflikt markaziy muammosini hal qilishga qodir emas.

Konfliktlashuvchi taraflarning asosiy, tashqi harakatlarini obyektiv nuqtayi nazarga ko‘ra ikki guruhga: tajovuzkor va mudofaa harakatlariga bo‘lish mumkin.

Tajovuzkor harakatlar dushmanga hujum qilish, uning mulkiga zarar yetkazish, nizoli obyektni qo‘lga kiritish, dushmanni ajratib qo‘yish, quvish, tutqunlikka solish va qarshi taraf manfaatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri kamshitishga qaratilgan boshqa harakatlardan iborat. Ayrim mutaxassislar fikricha, «Zo‘rlik insonlarga jismoniy, ruhiy, ijtimoiy yoki ekologik zarar yetkazish

mumkin bo‘lgan va yoki insonlarning o‘zlarini to‘la namoyon qilishga imkon bermaydigan harakatlar, so‘zlar, ko‘rsatmalar, tuzilmalar yoki tizimlardan iborat»¹.

Mudofaa harakatlari nizoli obyektni ushlab turish, o‘z-o‘zini himoya etish, moddiy qiymatlarning yo‘q qilinishi yoki zararlanishidan himoya qilish kabi harakatlardan iborat.

Tahdid solishlar. Konfliktda ko‘rsatilgan harakat tiplaridan tashqari raqibga ta‘sir etish vositasi bo‘lgan tahdid solish ham foydalaniladi. Tahdid solishdan maqsad bu boshqa tomonning manfaatlarini xavf ostida qoldirish yoki raqibni o‘zining maqsadlariga erishishga yordam berishga majburlashdir.

Tahdid solish kurash yoki muzokaralar olib borish jarayonida qo‘llanilishi, ba’zida konfliktning mustaqil bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

Tahdidni qo‘llash konfliktda zo‘rlik ishlatishga turtki bo‘lishi mumkin. Tahdid bu faqat raqibga nisbatan qo‘ylgan kelishmovchilikdan guvohlik beruvchi qat’iy talab, shart bo‘libgina qolmay, shuningdek, dolzarb muammoiy vaziyat doirasidan tashqariga chiqqan ochiq dushmanchilik ko‘rsatkichi hamdir.

Tahdid – bu konfliktda muayyan ma’nodagi taktik vositadir. Tahdid solish – terrorchi mafkuradagi davlatlar va terrorchilar harakatlarining odatiy usulidir (garovga olish, samolyotni portlatish xavfi va b.).

Kurash dinamikasi. Konfliktdagi taraflarning biri yoki ikkalasi ham to‘qnashuvdan bosh tortishga yoki yon berishga harakat qilmasa, u holda qarama-qarshi kurash boshlanadi.

Taraflardan birining kuch jihatdan ancha ustunligi uning g‘alabasini ta’minlagan hollarda, endi boshlangan konflikt juda tez tugashi mumkin. Biroq ko‘p hollarda aksincha, konflikt uzoq davom etadigan xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, muayyan to‘qnashuvning tez yakunlanishi konfliktli vaziyatning barham topishini anglatmaydi va konflikt yangitdan avj oladi.

Millatlararo va siyosiy asosdagи konfliktlar ayniqsa uzoq vaqt davom etadi. Hozirgi davrdagi ko‘pchilik konfliktlarning ildizlari uzoq o‘tmishga va ommaviy ruhiyatning chuqur qatlamlariga borib taqaladiki, ularning dastlabki asl sabablarini amaliy jihatdan aniqlashning imkoni yo‘q. Bunga misol qilib ba’zi mamlakatlarda keng tarqalgan qonli o‘ch olish holatlarini keltirish mumkin. Uzoq davom etuvchi konfliktlar uchun keskin va nisbatan osoyishta holatlarning, faol qarama-qarshilik qilish va o‘ziga xos «tinch» davrlarning almashinib turishi xosdir.

Shaxslararo konfliktlarning bir turi bo‘lgan oilaviy konfliktlar ham uzoq davom etish xususiyatiga ega. Oilaviy konfliktlarda bir xil holatlar-

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001.С.23.

ning takrorlanishi, davriylik kuzatiladi. Oilaviy janjallar ko‘pincha bir-birini takrorlaydi. Ular vaqtinchalik tinchigandek bo‘lsa ham, kelishmovchilik-larning haqiqiy va yashirin sabablarini tugata olmaydi.

Konfliktning eng keskin bosqichi bo‘lgan kurash odatda hujum va mudofaaning almashinishi hamda muayyan sharoitlarga bog‘liq turli harakatlar va vositalarni qo‘llashdan iborat. Har qaysi taraf muayyan umumiyy strategiyaga rioya etishi mumkin va bunda harakatlarning almashinivi nazorat qilinishi mumkin. Muzokaralar vaqtida to‘xtatilgan kurash, agar ular natija bermasa yoki erishilgan kelishuv taraflardan biri tomonidan buzilsa, qayta tiklanadi. Xalqaro amaliyot muzokaralarni uzish yoki o‘t ochishni tugatish haqidagi bitimlarni buzish hollari kurashni yanada avj oldirganligini tasdiqlaydi. Ba‘zida muzokaralarning o‘zidan raqiblardan biri vaqtincha tinch holatga erishish uchun taktika maqsadlarida foy-dalanishi mumkin.

Bir guruh konfliktolog mutaxassislarning fikricha, «Konflikt dinamikasi o‘zaro munosabatlar va vaziyat xususiyatlarini yanada aniq tushunishda, faoliyatni ko‘p darajada samarali rejalashtirish va harakatlanishda yordam qiladi. Bunday tushunishga ikki yo‘l bilan erishiladi:

1) turli nuqtayi nazarlar asosida bu konfliktlarning bat afsil tahlilini amalga oshirish;

2) bu konfliktlarga aloqador alohida masalalar va muammolarni tad-qiq qilish.

Konflikt tahlili deganda nuqtayi nazarlarning ko‘pligiga asoslanib konfliktning realligini tushunish va tadqiq qilish amaliy jarayoni tushuniladi. Bunday tushunish keyinchalik strategiya va harakatlarni ishlab chiqish asosiga qo‘yiladi¹.

Konflikt yetarli darajada ijobiy yo‘nalishda rivojlanishi va mavjud ziddiyatni to‘la yoki hech bo‘limganda vaqtinchalik hal qilish bilan tugashi mumkin. Biroq ko‘pincha unda boshqa xususiyat ham ustun kelishi mumkin: kurash avj oladi va keskinlashadi, konflikt o‘sib boradi. Kurash dinamikasining bunday holati odatda konflikt eskalatsiyasi deyiladi.

Konflikt eskalatsiyasi. Konflikt eskalatsiyasining tashqi namoyon bo‘lish xususiyati – bu, eng avvalo, kurashning jadallahushi hisoblanadi. Konflikt spiralni burash metodi bo‘yicha rivojlanadi: bir tarafning harakati ikkinchi tarafning qarshi harakati bilan birga kechadi va bu keyingi harakat o‘z oqibatlarining ko‘lamiga ko‘ra konflikt boshlanishi nuqtasidagiga aynan bo‘lmaydi.

Bir tarafning harakatlari boshqa tarafning ko‘p marta kuchliroq va o‘z navbatida yangi tajovuzkor bo‘lgan javob harakatlarini keltirib chiqaradi. Konflikt eskalatsiyasi odatda vaziyatni shunchalik chigallashtiradiki, bun-

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.41.

da konfliktda haq yoki aybdorlarni topish mumkin bo‘lmay qoladi. Konfliktologik tadqiqotlarda bu masalada ham muayyan fikrlar bildirilgan: «Ba’zida konfliktni jadallashtirish zarur bo‘ladi. Masalan, odamlarning hamma narsasi yaxshi bo‘lganda, o‘z ehtiyojlarini qondirishda hamma uchun hokimiyat va resurslar yetarli bo‘lganda boshqa odamlarning ahvoli unchalik yaxshi emasligi yoki ular bir chekkada qolib ketayotganliklari e’tibordan chetda bo‘ladi yoki bu holatni tan olishni istamaydilar. Shunda zarur o‘zgartirishlarni kiritishga imkoniyat paydo bo‘lishi uchun konfliktni aniqlash, uni oydinlashtirish zaruriyati yuzaga chiqadi.

Jamoalar va inson huquqlarini rivojlantirish sohasida ishlovchilar ko‘pincha ularning vazifalari bu konfliktni hal qilish emas, balki konflikt muammosining tan olinishi va faol harakatlar boshlanishi eng yaqqol namoyon bo‘ladigan aynan konfliktning intensivlanishi ekanligini tushunib yetadilar. Bu ko‘pincha manfaatiga putur yetkazilgan guruhga qo‘shilish va shu guruh imkoniyatlarini orttirish uchun strategiyadan foydalanan hisoblanadi. Masalan, JARda XX asr davomida vaziyatni o‘zgartirishni maqsadi deb bilgan faollar yashirin konfliktlarni ochiq konfliktlarga aylantirish va keyinchalik ular bilan ish olib borish uchun kuch-g‘ayrat sarf etg'anlar.

Konfliktlarni intensivlashtirish – bu muayyan tinch (zo‘rlik ishlatishni nazarda tutmaydigan) maqsadlarda yashirin konfliktlarni yanada oydinlashtirish va oshkora qilishdir.

Konflikt eskalatsiyasi bu tanglik va zo‘rlikning kuchayishidir¹.

Eskalatsiya konfliktda ichki o‘zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Konflikt yaqqol jadallahuvi sabablarini izohlovchi asosiy o‘zgarish bu konflikt predmetini va tegishlicha o‘zaro ta’sir shakllarining almashinuvidir.

Konfliktning sezilarli chuqurlashuvi va kuchayishi bilan bog‘liq eng keng tarqalgan va tipik holatlardan biri bu nizoda asoslantirishdan e’tirozlarga, shaxsiy haqoratlashlarga, hatto jismoniy ta’sir ko‘rsatishga o‘tishdir.

Bu vaziyatda tanqid shaxsni o‘ziga o‘zi baho berishga bo‘lgan tahdid sifatida qabul qilinadi, o‘z o‘ziga baho berishni himoya qilishga bo‘lgan urinish konflikt predmetini «shaxsiy» darajaga qo‘yishga olib kelishi mumkin. Totalitar va teokratik rejimlarda jiddiy tanqid doimo davlat xavfsizligiga xavf sifatida qaralgan va qat’iy ta’qib qilingan. Parlament tortishuvlarida, davlatlararo munosabatlarda boshqacha nuqtayi nazarni bayon etish ko‘pincha o‘z mavqeyini o‘tkazishga bo‘lgan urinish deb baholanadi.

Manfaatlar konfliktida predmet almashinuvni yuz berishi mumkin. Ni-zoli obyekt tufayli boshlangan qarama-qarshi kurash yanada keng miq-yosdag'i to‘qnashuvga aylanishi mumkin.

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.45.

Manfaatlar konfliktida predmet o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘zgarishga «obyekt yo‘qolishi» tipik misol bo‘ladi. Uning mazmuni shundaki, nizoli obyekt tufayli boshlangan kurash yanada katta to‘qnashuvga aylanadi, bunda konfliktning dastlabki predmeti asosiy rol o‘ynamaydi. Qo‘snilar o‘rtasidagi yer tomorqlari chegaralari tufayli boshlangan janjal o‘zaro dashmanchilik va har xil shaxsiy noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Kavkazorti va Shimoliy Kavkazdagagi hududiy e’tirozlar tufayli boshlangan ko‘p sonli konfliktlar o‘zaro dashmanchilikka, tinch aholiga qarshi genotsidga olib kelgan.

Keltirilgan misollarda konfliktning «kattalashuvi» kuzatiladi, yanada chuqur ziddiyatlarga o‘tish to‘qnashuvning ko‘pchilik turli nuqtalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Konflikt yanada keng hududlarga tarqaladi, o‘z epitsentrini o‘zgartiradi.

Konflikt eskalatsiyasida yana ham ko‘p miqdordagi ishtirokchilarini jalb qilish hisobiga qarshi kurashuvchi subyektlarning o‘ziga xos «yiriklashuvi» yuz beradi. Individlar o‘rtasidagi konfliktning guruhlararo konfliktlarga o‘zgarishi, raqobatlashuvchi guruhlar tuzilmasining o‘zgarishi va soining ortishi qo‘llaniladigan vositalar majmuyini yanada samarali kuch ishlatish metodlari hisobiga kengaytirib konflikt xarakterini ham o‘zgartiradi.

3 §. Konfliktning tugashi

Konfliktning tugash shakllari. Konfliktlar tipologiyasi bir xil emas, konfliktlar o‘zgaruvchan, biri boshqasiga o‘xshamaydi. Bunday vaziyatda konfliktlar tugashining yagona shakllarini aniqlash yoki ularni hal qilishning qandaydir universal usullarini topish qiyin masaladir. Biroq muammoning murakkabligiga qaramasdan to‘plangan nazariy va amaliy tajribaga tayanib ba’zi xulosalarni chiqarish mumkin.

Eng avvalo, konfliktning tugashi uni hal qilishdan ancha keng tu-shunchadir. Konflikt ikkala tarafning halokati bilan yakunlanishi mumkin, biroq bu uning hal qilinganligini anglatmaydi. Agar konfliktni tugashiga uning tamom bo‘lishi, turli sabablarga ko‘ra to‘xtashi deb qaralsa, uning hal qilinishini qarama-qarshi kurashni tinch yoki kuch ishlatish vositalari bilan to‘xtatuvchi konflikt ishtirokchilarining o‘zi yoki uchinchi tarafning u yoki bu ijobiy harakati (qarori) deb tushunishimiz kerak.

Amaliy faoliyat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, konfliktni hal qilish uchun ozmi-ko‘pmi kuch-g‘ayrat sarflash kerak. Konfliktning «o‘z-o‘zidan hal qilinishi» ma’noga ega emas. Albatta, konfliktni umuman payqamaslik, inkor etish, yaxshi holatda tushuntirishga harakat qilish mumkin. Biroq u stixiyali rivojlanadi, keskinlashadi, boshqa konfliktlarga ta’sir qiladi va natijada tizimni to‘la buzishi mumkin.

Konfliktni muvaffaqiyatli hal qilish shart-sharoitlari ko‘p darajada taraflar va boshqa ishtirokchilarining imkoniyatlari va xohish-erklari bi-

lan belgilanadi. Konfliktni to'xtatishning bosh, eng faol asosi bu konfliktli vaziyatni yuzaga keltirgan obyektiv sabablarni bartaraf qilish hisoblanaadi. Konflikt ham tashqi harakatlar, ham konfliktlashuvchi subyektlarning o'zları bilan belgilanganligi sababli uning hal qilinishi ham mazkur ikki guruh omillarga bog'liq. Masalan, oilaviy konflikt er-xotinlarning biri yoki ikkalasining bevafoligi bilan bog'liq bo'lsa, uning yaxshi hal qilinishi er va xotin ruhiyatining xususiyatlarida ifodalanadi va o'tmishdagi xatolarni bartaraf etish, birgalikda hayot kechirishga bo'lgan intilish bilan belgilanadi. Ba'zi xizmat bilan bog'liq konfliktlarda ko'p narsa tashqi holatlarga bog'liq. Masalan, bo'lim yoki muassasaning qayta tashkil etilishi ulardagi mayjud ichki konfliktlarni to'la bartaraf etadi.

Adabiyotda bildirilgan fikrlarni umumlashtirish orqali konfliktning yakunlanishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- tomonlarning o'zaro yarashishi natijasida konfliktning to'xtashi;
- konfliktni simmetrik hal etish yo'li bilan to'xtatish (bunda ikkala taraf yutadi yoki yutqizadi);
- konfliktni assimmetrik hal etish yo'li bilan to'xtatish (bunda faqat bir taraf yutadi);
- konfliktning boshqa qarama-qarshi kurashga o'sib o'tishi;
- konfliktning asta-sekin bosilishi.

Bu tasnidha konfliktning obyektiv boshlanish asoslari uni hal qilishning subyektiv usullari bilan qo'shilganligini ko'rish mumkin. Ularni yanada bo'ladigan bo'lsak boshqacha tasnifga ega bo'lamiz. Masalan, konfliktlarga aralashish natijalariga qarab tasniflasak, unda konfliktning hal qilinishi, uni tartibga solish yoki bartaraf etishni farqlash mumkin.

Amerikalik tadqiqotchi R. Dal konfliktni yakunlashning uch muqobil imkoniyatini ajratib ko'rsatadi: tupik, zo'rlikni qo'llash va tinch yo'il bilan tartibga solish. Turli variantlarni boshqacha uyg'unlashtirib aytish mumkinki, konflikt taraflarning ikkalasi yoki birining halokati bilan tugaydi, «yaxshi vaqtlar kelguncha» to'xtatiladi yoki biron-bir tarzda konstruktiv hal etiladi.

Birinchi holatga qирғин urush misol bo'lishi mumkin. O'tgan asrlarda yuz bergen ko'pchilik urushlarda ko'p sonli quruqlikdagi qo'shin askarlari va tinch aholining aksariyat qismi halok bo'lgan bo'lsa (Ikkinchi jahon urushi 50 mlndan ziyod kishining yostig'ini quritgan), endilikda ehtimol tutilgan atomli urushda butun insoniyatning halokati ham istisno qilinmaydi. Shu sababli yadro qurolini kamaytirishga, dunyonи o't olishiga olib keluvchi xalqaro konfliktlarni bartaraf etish yo'lidagi astoydil harakatlarni ro'yobga chiqarish uchun uzoq vaqt talab etilmoqda.

Konfliktni u yoki bu vaqtga to'xtatib turish, kechiktirish, sekinlashtirishni kurashning to'la yakunlanishi deb hisoblab bo'lmaydi. Biroq konflikt baribir ochiq kurash sifatida davom etmaydi va tanglik sustlashadi. Bu holat taraflarning kuchsizlanishi bilan, yangi kurash uchun kuchlarni

to'plash zaruriyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Konfliktning vaqtinchalik bosilishi tashqi tasavvurni tug'dirishi, biroq uning haqiqiy rivojlanishini ifoda etmasligi ham mumkin: shunchaki «ochiq» konflikt vaqtinchalik «yashirin» shaklga o'tishi mumkin.

Konfliktni hal qilish mexanizmlari va asoslari. Adabiyotlarda konfliktlarni hal qilishning maqsadga muvofiq asoslariga quyidagilar kirishi haqida fikr beriladi, ya'ni: konflikt sabablari; taraflar xulq-atvor motivlarini o'z ichiga olgan qarama-qarshi kurash diagnostikasi; vaziyatli va pozitsiyaviyi tahlilni amalga oshirish (vujudga kelgan vaziyat va taraflar nuqtayi nazarlarini aniqlashtirish); konfliktlar borishini va oqibatlarini bashorat qilish (shu jumladan konflikt u yoki bu tarzda tugaganda har bir taraf uchun foyda yoki zararni aniqlash). Bu harakatlarning barchasi faqat uchinchi taraf (visitachi, hokimiyat organi) tomonidangina emas, shuningdek, subyektlarning o'zlarini tomonidan amalga oshirilishi foydalidir, bunda taraflar o'tkazilgan tahlildan so'ng umumiy qarorlarni ishlab chiqish zaruriyatini tushunishga yaqinlashadilar.

Konfliktli vaziyat mohiyatini aniqlash, uni obyektiv tushunish, konflikt ishtirokchilari tomonidan adekvat anglash kelishuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ba'zi hollarda vaziyat taraflar tomonidan buzib qabul qilinsa, konfliktni umuman tugatish mumkin. Kelishmovchiliklar predmeti qanchalik aniqroq va qat'iy belgilansa, konfliktni hal qilishning samarasini uchun shuncha imkoniyatlar tug'iladi.

Konfliktni hal etish asoslaridan foydalanish, uni hal qilish mexanizmlariga olib keladi: a) konfliktning ishtirokchilarning o'zlarini tomonidan hal qilinishi; b) uchinchi tarafning aralashuvi. Bundan tashqari, konflikt turli bosqichlarda hal qilinishi mumkin. Ba'zi hollarda uning rivojlanishini taraflar endi qarama-qarshi kurashga kirishganlarida va birinchi noqulayliklar va talafotlarni his qilganlarida to'xtatish mumkin. Boshqa hollarda konflikt tuzatib bo'lmas zarar yetkazilgandan keyingina hal qilinishi mumkin (insonlar halokati, turarjoylarning qulashi, mulkni yo'q qilib yuborilishi va boshqalar).

Konfliktlarni hal qilishning keng tarqalgan yo'li – bu tinchliksevar kuchlarning aralashuvidir. Bu kuchlar konfliktli vaziyatning o'ziga (1), konfliktni saqlab turuvchi holatlarga (2), shuningdek, ishtirokchilarning o'ziga (3) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Konfliktni muvaffaqiyatli hal etishning muhim qoidalaridan biri – bu «haq» va «nohaq» taraflarni bir-biriga qarshi qo'yish emas, balki ikkala tarafning manfaatlarini to'la yoki qisman qondirishga imkon beruvchi qarama-qarshilikni hal qilish yo'llarini topishdir.

Ma'lumki, konflikt asosi bu subyektlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Shu sababli konfliktlarni hal etishning eng maqbul va natijali yo'li – bu ko'rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf etilishidir. Biroq bu yo'nga har doim ham erishib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ziddiyatlarning turli tipla-

rini (ochiq, yashirin, obyektlı, obyektsiz va h.), ularning darajalarini, subyektlari xususiyatlarini, shuningdek, konfliktni to'xtatishga intiluvchi kuchlar ixtiyoridagi obyektiv imkoniyatlarni ham e'tiborga olish kerak.

Konflikt asosida yotuvchi ziddiyatlarni bartaraf etishning asosiy usullari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- konflikt obyektni bartaraf etish;
- konflikt obyektni taraflar o'rtasida bo'lib olinishi;
- obyektdan foydalanish navbatini yoki birgalikda foydalanish qoidalarni o'rnatish;
- obyektni boshqa tarafga bergenlik uchun taraflardan biri tomonidan kompensatsiya qilish;
- konflikt taraflarini ajratib qo'yish;
- taraflar munosabatlarini ularning umumiy manfaatlarini aniqlashga yo'naltirish va b.

Konfliktlarning hal qilinishi — bu mohiyatiga ko'ra nizoli masala bo'yicha taraflar o'rtasida kelishuvga erishishdir. Bunday kelishuvning uch asosiy turi bor:

- 1) taraflar fikrining bir-biriga mos kelishi natijasidagi kelishuv;
- 2) qonunchilikka yoki tashqi kuchning axloqiy erkiga muvofiq bo'lgan kelishuv;
- 3) qarama-qarshi kurashuvchi taraflardan biri tomonidan ma'qullangan va ilgari surilgan kelishuv.

Birinchi va uchinchi hollarda konfliktni hal qilish raqiblarning ikki taraflama faolligini taqozo etadi. Xalqaro va ichki siyosat sohasidagi amaliyat shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda konfliktni hal qilish jarayonini kuchli raqib tomonning o'z erkini nisbatan zaif tomonga bir tomonlama majburan o'tkazish sifatida tushunish mumkin emas. Negaki majburiy qabul qilingan qarorning umri qisqa bo'ladi, konflikt u yoki bu shaklda yana tiklanadi. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqida avvaldan mavjud hududiy chegaralarning sun'iyligini eslash kifoya. Ittifoq inqirozga uchraganda va unga bog'liq millatlararo nifoqlarning vujudga kelganidan so'ng, xalqlarning hududiy bo'linish muammosi juda keskin tarzda namoyon bo'ldi.

Shu sababli kuch ishlatish yo'li, ya'ni harbiy yo'l bilan konfliktni hal etish mustahkam negizga ega bo'lmaydi. Urushda mag'lubiyatga uchrash, boy berilgan manfaatlarni qaytarishga bo'lgan intilish — zo'ravonlik kayfiyatlarini keltirib chiqaradi. 1905-yildagi rus — yapon urushi Rossianing mag'lubiyati bilan tugadi. Biroq 1945-yilda Sobiq Ittifoq revansh oldi. Bu o'z navbatida ko'p yillar cavomida Kurill orollari muammosi ustida bosh qotirayotgan yapon tarafiga yoqmadi.

Hozir ikki mamlakat o'rtasidagi konflikt go'yoki to'xtatilgandek ko'rindi. Biroq uzil-kesil qarorga erishilmadi. U yoki bu urushlar natijasida vujudga kelgan boshqa hududiy muammolar vaqtiga vaqtiga bilan kun tartibidan joy olib turadi.

Biroq ikkala tarafni ham qanoatlantiruvchi qarorga erishilmasa, nima qilmoq kerak? Bunday vaziyat ba'zi hollarda konflikt yo'naliшини о'згартирishi mumkin. Bu nafaqat taraflar qarama-qarshi kurashi predmeti va motivlarini, shuningdek, ba'zida ishtirokchilarning o'зларини ham almashinuvini anglatadi. Fuqarolik va mehnat nizolari bo'yicha sud amaliyotida bunga o'xhash vaziyatlar uchrab turadi.

Ba'zan mehnat va fuqarorlik-huquqiy nizolari yillar davomida cho'ziladigan sansalorlikka aylanishi mumkin. Konflikt predmeti allaqachon yo'q bo'lib ketgan, nizoli qaror qabul qilgan rahbarlar tarkibi ham o'zgargan, shikoyatchi esa hanuz qonun talablariga e'tibor bermay vaziyatni o'z foydasiga hal qilishga erishmoqchi bo'ladi. Bu yerda motivatsiya o'zgaradi, «motivning maqsad tomon o'zgarishi» namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, konflikt yangi jihatlarga ega bo'lib o'zgaradi.

Sanatoriyyada tibbiyot hamshirasi bo'lib ishlovchi M. shtatlar qisqariishi bo'yicha ishdan bo'shatilgan. U ishdan bo'shatilish motivlari bilan rozi bo'lмаган, bunga haqiqiy sabab bosh vrach bilan bo'lgan yomon o'zaro munosabatlar deb hisoblagan. Sanatoriya ma'muriyatining qarori ustidan sudga shikoyat qilganida natija bermagan. Shunda M. sanatoriya bosh vrachi ustidan prokuraturaga, kasaba uyushmasi qo'mitasiga va markaziy gazeta tahririyatiga shikoyatlar yozgan. M. konstitutsiyaviy sudgacha qator shikoyatlarni yozaverib, natijada bu konfliktga ellikdan ortiq tashkilatlarni jalb qilgan. Uning o'zi esa ishga tiklash masalasi uni allaqachon qiziqtirmayotganligi (u bu vaqtida xususiy klinikada ishlayotgan edi)ni aytib, gap sanatoriya bosh vrachi va boshqa xodimlarning «insonga noinsoniy munosabatda bo'lganliklari» uchun jazolash «prinsipi» haqida ketayotganligini bildirgan.

Chuqur va keng ko'lamli konflikt tizimni inqirozli holatga va oqibat natijada uni buzishga, halokatga yoki jiddiy o'zgarishga olib kelishi mumkin.

Inqiroz odatda jamiyat qadriyatları tiziminining shikastlanishi, hokimiyat, boshqaruvin institutlarining buzilishi, ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi, anomaliyaning vujudga kelishi, ya'ni odamlar o'rtasidagi mavjud tartibotning ochiq buzilishi bilan bog'liq. Shu sababli ba'zida kimlardir rivojlanayotgan konfliktga befarq qaraydilar ham. Ko'pincha esa kishilar konfliktlarni zudlik bilan bartaraf etish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilishga moyil bo'ladilar.

Ma'rifiy hayot kechirish norozilar, «qiyonoqqa solinganlar»ni yuzaga keltirishni rad etib, balki odamlar o'rtasidagi usoq muddatli munosabatlarga asoslangan turmush farovonligini ta'minlashdan iborat. Tarixiy tajriba esa kuch ishlatish va boshqa tarafni aldash bilan yutuqqa erishish, ularni hokimiyat va mulkchilik tizimida mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi.

Konfliktni barham toptirishga yo'naltirilgan shaxslar va guruhlarning kuch-g'ayrati hamma hollarda bir xil emas, ikkala tarafning manfaatlarini e'tiborga olish kerak. Bir taraf haq bo'lmasligi mumkin, boshqasi ham

aybsiz, kamchiliksiz bo'lmaydi. Biroq birinchi tarafning o'z manfaatlari bo'lishi mumkin va agar ular umuman e'tiborga olinmasa, konflikt vaqtincha bosilishi mumkin, biroq yo'qolmaydi. Konfliktologlar tomonidan konfliktni tinch yo'l bilan hal etishning qator usullari ishlab chiqilgan, shuningdek, buning uchun zarur omillar ko'rsatilgan.

Ularga quyidagi usullar va omillar kiradi:

— institutsional: jamiyatda maslahatlar, muzokalar o'tkazish va o'zaro foydali qarorlarni axtarish uchun xizmat qiluvchi mexanizmlar, jumladan, qonun chiqarish, sud va ijro hokimiyati doirasidagi mexanizmlar (konstitutsiyaviy sud, arbitraj va b.)ning mavjudligi;

— konsensual: maqbul qaror qanday bo'lishi haqida konfliktlashuvchi taraflar o'rtasida kelishuvning mavjudligi;

— kumulyativ omil: u qanchalik oz bo'lsa, tinch yo'l bilan hal etish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, konflikt yangi muammolar va ishtirokchilar bilan o'sib bormaydi;

— tarixiy tajriba omili: bunga o'xhash konfliktlarni hal qilish usullari kiradi. Bunda oqsoqollar va boshqa obro'li shaxslar muhim rol o'ynashlari mumkin;

— kuchlar muvozanati omili: agar konfliktlashuvchi taraflar majburlash imkoniyati bo'yicha taxminiy teng bo'lsalar, ular konfliktni tinch yo'l bilan hal qilish yo'llarini qidirishga majbur bo'ladilar;

— psixologik omil: konflikt vaqtida qaror qabul qilishga mas'ul bo'lganlarning shaxsiy xususiyatlariga ko'p narsa bog'liq bo'ladi. L. Kozerning yozishicha, konflikt subyektlari uning befoydaligi va noo'rirligini tushunib yetsalar o'z xatti-harakatlarini konfliktni yuzaga keltirgan dastlabki maqsadga erishish uchun emas, balki mavjud vaziyat yuzaga keltirgan ijtimoiy tanglikni kamaytirish uchun qaytadan o'zgartira boshlaydilar¹.

Ijtimoiy guruhlar konfliktlarini hal etish. Konflikt tadqiqotchisi uchun va ishtirokchilarining o'zları uchun ham yirik ijtimoiy muammolarni tartibga solishning zarurligini tushunib yetish muhim, bu muammolar negizida ko'p konfliktlar yuzaga keladi. Bu ishda ziyolilarning turli ijtimoiy qatlamlari asosiy rolni o'ynaydi, chunki aynan shu ijtimoiy guruh fikrlarning qo'zg'alishini susaytirishi, g'azablangan taraflarga «yaxshilik va bosiqlik»ni yoyishi kerak. Aynan shu jihatdan shovinistik va millatchilik maskurasini qoralash eng ta'sirchan hisoblanadi.

Tinchlik va kelishuv haqidagi chaqiriqlar bilan kechuvchi ko'p tadbirlar o'zining muhimligiga qaramasdan vaqtinchalik hisoblanadi. Qoida bo'yicha ular konflikt mohiyatiga ta'sir etmaydi, balki faqat uning belgilariiga taalluqli bo'ladi.

¹Qarang: Coser L. Op.cit, -P.36.

U yoki bu konfliktlashuvchi taraf rahbarlarining rasmiy yoki norasmiy harakati o‘ta ahamiyatlidir. O‘z tayinlanishiga ko‘ra hokimiyat markazlari odamlarning ziddiyatli manfaatlarini muvosiqlashtirishni uddalay olishi kerak. Hokimiyat tuzilmalarining rahbarlari kamida muayyan erk-irodaga, mahorat va intellektgiga ega bo‘lishlari so‘zsiz talab etiladi.

Ijtimoiy guruhlarning biror ahamiyatlari konfliktida yo‘lboshchilarda institutlashtirish, instrumental (iqtisodiy va boshqa turdagagi rag‘batlantirish, sanksiyalar, targ‘ibot, qonunlarni ishlab chiqish va b.) va bosqichli muntazam yondashuvlarni tezlik bilan jamlashga bo‘lgan xohish; milliy xususiyatlarga qaramasdan taraflar uchun teng sharoitlarni yaratish; millatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish, nihoyat, hakam sudyalarni jalb etishga bo‘lgan intilish kuzatilgan. Aytish joizki, Tog‘li Qorabog‘dagi konflikt ni to‘xtatishga bo‘lgan ko‘p sonli urinishlarda yuqorida sanalgan harakatlardan hech biri amalga oshirilmagan, muzokaralar rejasiz va oldindan tayyorgarliksiz, tartib-siz olib borilgan va, tabiiyki, birorta ijobiy natijaga erishilmagan.

Faqat millatlararo konfliktlarda emas, shuningdek, ko‘pgina boshqa konfliktlarda ishlatilishi mumkin bo‘lgan usullardan biri bu taraflarni ajratish, ularni bir-biridan alohida qilishdir. Turmush konfliktlarida bu qo‘shnilarni turli joylarga ko‘chirish, oilada — ajralish, tashkilotda — konfliktlashuvchi xodimlarni turli bo‘limlarga o‘tkazish bo‘lishi mumkin. Xalqaro amaliyotda taraflarni ajratish «xavfsizlik yo‘lagi»ni o‘rnatish, tinchliksevar kuchlarni kiritish va h.ni taqozo etadi. Tabiiyki, taraflarni ajratish qarama-qarshi kurashuvchi kuchlarning qarshiligiga uchrashi mumkin, biroq ba’zida xalqaro amaliyot ko‘rsatganidek, u yagona samarali usul bo‘lib hisoblanadi.

Konfliktning g‘oyaviy va ijtimoiy-ruhiy elementlariga ta’sir etish ham muhim, xususan, konfliktlashuvchi boshqa taraf haqida, uning harakatlari va xulq-atvor motivlari haqidagi soxta tasvurlardan xalos bo‘lishga harakat qilish kerak. Bunday buzuq tasavvurlar, ortiqcha bo‘rttirib ishoniшlar, soxta axborot, mish-mishlar odatda va, ayniqsa, millatlararo munosabatlarda kam emas.

Konflikt xarajatlarini uning rivojlanishini nazorat qilish orqali kamaytirish mumkin. Bu yerda gap faqat keskinlik yo‘nalishini o‘zgartirishdagina emas, balki uni tartibga solish haqida (masalan, «jamoaviy shartnoma» tizimlaridagi mehnat nizolarida) ham boradi. Qoidaga ko‘ra tarixning doimiy guvohlik berishicha, taraflardan birini cheklashga qaratilgan choralar qabul qilinadi. Bu holda vaqtinchalik samarali bo‘lgan tashviqot, ma’muriy, kuch qo‘llash vositalari qo‘llaniladi. Biroq bu yerda konflikt asosida yotuvchi uzoq vaqt davom etuvchi ziddiyatlarni hal qilish bo‘yicha qo‘srimcha amalga oshiriladigan harakatlar juda muhimdir.

Bir vaqtning o‘zida rahbar barcha tarafni vaqtinchalik qanoatlantiradigan konflikt ni hal etish bo‘yicha choralarini qo‘llashi mumkin (rahbariyatning kompromiss ish tutish uslubi). Rahbarning imkoniyatlari yetarli

darajada bo'imasligi ham mumkin, uning raqiblari va maslahatchilari ba'zida uni jiddiy qarorlarni qabul qilishga undashlari mumkin.

Yirik ijtimoiy konfliktning hal qilinishiga oxirgi maqsad deb qarash kerak emas. Gap shundaki, jamiyatni izdan chiqarishga olib keluvchi yirik guruuhlar o'rtasidagi konfliktlarni bir oddiy sababga ko'ra faqat salbiy ko'rsatkich sifatida asosiy insoniy qadriyatlar darajasiga bir ma'noda joylashtirish mumkin emas; ular (muayyan sharoitlar mavjudligida) faqatgina buzg'unchi funksiyani emas, shu bilan birga barcha ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlovchi funksiyani ham bajarishlari mumkin.

Aslida manfaatlar o'xshashligiga yoki farqlanishiga asoslangan to'qnashuvning tabiiyligi va muqarrarligi tan olinishi haqidagi tezisga tayanadigan bo'lsak, ochiq namoyon bo'ladigan ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash nuqtayi nazaridan yetarli darajada foydali bo'lishi mumkin. Muammo tanglikni olib tashlash, konfliktning o'zini bartaraf etishda emas, balki uning rivojlanishi bilan bog'liq xavfni iloji boricha kamaytirishda, ya'ni to'qnashuvlarni mahorat bilan boshqarishdadir. Bunday yondashuv raqibda ko'rolmaydigan dushmanni emas, balki bo'lg'usi sherik (hamkor)ni ko'rishga majbur etadi.

Bu xususda konfliktologik nazariya eskalatsiya va deeskalatsiyaga yo'naltirilgan harakatlar konfliktlarni yumshatish ishida natijali bo'lishga imkon beruvchi turli sharoitlarni qo'shimcha tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Konflikti hal etish bilan bog'liq yondashuv metodlari konflikt holatlari, bu konflikti hal etishning ehtimol tutilayotgan oqibatlari haqida qo'shimcha bilimlarni talab etadi.

Totuvlikning g'oyaviy asosi bu davlat hokimiyatidagi ko'p ukladli iqtisod konsepsiyasidir. Mulkchilik va hokimiyatni qayta taqsimlash ikki ukladning mavjud bo'lishiga olib keladi: davlat va bozor mulkchiligi. Bunday holatda davlatning o'zi so'zsiz tarzda kuchli bo'lib qolaversa-da, uning funksiyalari torayadi. Qonun doirasida amalga oshiriladigan mulk va hokimiyatning qayta taqsimlanishi konflikti yumshatadi. Iqtisodiyotning davlat va xususiy mulkchilik sektorlari orqasida turgan yirik ijtimoiy guruuhlar alohida faoliyat ko'rsatadilar va bir-birlari bilan asosan raqobatlashuvchi tovar ishlab chiqaruvchilar sifatida to'qnashadilar. O'tish davri xarajatlari shu tariqa nisbatan maqbul miqdorgacha kamaytirilishi mumkin.

Xalqaro konfliktlarni hal qilish. Xalqaro konfliktlarni hal etish bir-muncha murakkab hisoblanadi. Ular an'anaviy ravishda raqobat va zo'rlik bosh, muhim rol o'ynaydigan davlatlararo keskinlashgan munosabatlardan iborat. Bu yerda ko'pinch'a irqi, sinfiy va guruhiy, milliy, hududiylar va boshqa manfaatlar chambarchas qo'shilib ketadi. Kurashga turli xil hukumat va xususiy tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar jalb qilinadi.

Keyingi o'n yillikda xalqaro konfliktlarni tushunishda jiddiy o'zgarishlar kuzatildi. Mayjud ziddiyatlarni tinch yo'l bilan o'zaro maqbul va keng qamrovli vositalar yordamida hal qilish mumkinligi haqidagi g'oya vu-

judga keldi va keng tarqaldi. Bu g'oya tinch yo'l bilan yechimlarni axtarib topishni ilgari surar ekan, uning o'zi konfliktologiya nazariyasining rivojlanishi va amaliy maqsadlar uchun ijobjiy va foydalidir.

Tinch yo'l bilan hal etish usulini tanlashda ochiq namoyon bo'ladigan ziddiyatlarning qat'iy chegaralarini belgilash maqsadga muvofiqdir, chunki yashirin ziddiyatlarga qaraganda ularni boshqarish yengil kechadi. Bunda tashqari, raqibga va konfliktning har qanday ishtirokchisiga dushman sifatida emas, balki hamkor (sherik) sifatida qarash kerak.

Xalqaro konfliktlardagi yangilikni odatda ikki yondashuvni tushunish bilan farqlaydilar.

An'anaviy yondashuv konflikt negizida yotgan ziddiyatlarni hal qilish bilan bog'liq. U jahonda yuz beruvchi o'zgarishlarni yetarli darajada aks ettirgan ijtimoiy nazariyalar bilan muvofiqlashtiriladi. Ikkinci yondashuv keyingi yillarda ishlab chiqilgan. U umumiyo ko'lamdag'i tinchlikni barqarorlashtirishga, shuningdek, qurolli konflikt imkoniyatlarining o'zini cheklashga qaratilgan «tinchlik yaratuvchilik» g'oyalari bilan bog'liq. Qurolli konfliktlar ehtimolini cheklashga qaratilgan tinchlikni o'rnatuvchi usullar o'z ichiga konfliktlarga yo'l qo'ymaslikning institutsional usullarini qidirish va rivojlantirishni oladi. Bu yondashuv davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning bo'lg'usi andozalari uchun ayniqsa ma'quldir. U qisman amalda sinalgan (Serbiya va Xorvatiya, Gruziya va Janubiy Osetiya, Kiprdagi grek va turk jamoalari chegaralariga tinchlikparvar qo'shirlarning kiritilishi va b.) va nisbatan bo'lsa-da o'z samarasini ko'rsatgan.

Muzokaralar yuritish konfliktlarni hal qilish usuli sifatida. Taraflar qarama-qarshiligini bartaraf etishning barcha usullari ichida muzokaralar eng samarali hisoblanadi. O'zaro ta'sir etishning muzokaraviy tipi uchun taraflarning ko'zlangan natijaning hech bo'limganda biror qismiga erishishga, muayyan kompromissga borishga bo'lgan intilishlari xosdir. Muzokaralar jarayoni quyidagi sharoitlar bo'lganda boshlanishi mumkin: 1) taraflar ziddiyatli manfaatlardan tashqari ahamiyatli umumiy manfaatlarga ham ega bo'ladilar; 2) taraflar o'zlarini uchun foydali bo'lgan muayyan bitim yoki bir xil tushunishga erishishning imkoniyati bor deb hisoblaydilar; 3) ular o'zaro qoniqtiruvchi qarorlarni izlashda muzokaraga kiringadilar¹.

Muzokaraviy jarayondan samarali foydalanishga misol bo'lib Dnestrbo'yidagi konfliktli vaziyat hisoblanadi. Bunda qarama-qarshi kurashuvchi taraflarni vaqtinchalik bo'lsa-da kelishirishga erishilgan, oqibatda qon to'kishlar oldi olingen. Chechenistonda esa bunday muzokaraviy jarayon qo'llanilmagan.

Konfliktni bostirish uchun taraflar nizoli masalalar haqida va keyin

¹ Qarang: Shellenberg J.A. The Science of Conflict. N.Y., 1982.

qanday bo'lishlari haqida kelishib olishlari kerak. Bunda nizo predmeti qanchalik aniq va qat'iy belgilansa, konfliktning uzil-kesil hal qilinishi imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi.

Muzokaralar o'z ichiga harakatlarning turli tiplarini oladi: iltimoslar, talablar, takliflar, va'da berishlar, rad etish va h.

Kishilik jamiyati butun tarix davomida muzokaralar yuritishning boy tajribasini to'plagan. Bu tajribaning shakllanishida nafaqat siyosatchilar ning, shuningdek, ekspertlar, jurnalistlar, boshqaruv sohasi mutaxassislari, olimlarning ham katta hissasi bor. So'nggi o'n yillik esa ularni yuritishning ayrim qoidalari va tartiblarini tadqiq etish davri bo'ldi. Muzokaralarning elementlari: uning tarafлari, bevosita ishtirokchilari, predmeti, o'zaro kommunikatsiya kanallari, axborot aniqlandi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra axborotning yetishmovchiligi ishtirokchilarning shubhalanishiha va ishonmasligiga, ya'ni konfliktning chuqurlashuviga olib keladi. Shuningdek, muzokaralarning borishi va natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqishda qiyinchiliklar ham mavjud. Umuman olganda ishtirokchilarning xatti-harakati mavjud vaziyatga, shuningdek, ularning ta'lim va madaniy darajasiga, irodaviy va boshqa shaxsiy xususiyatlarga bog'liq.

Menejmentga bag'ishlangan ishlarda katta e'tibor ishlab chiqarish konfliktlarini hal qilish muammolariga qaratilgan. Bu yerda muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishning o'zi o'ta muhimdir. Unga raqib (muzokaralar bo'yicha hamkor), uning shaxsiy xususiyatlari, ehtimolli argumentlari haqida ma'lumotlarni yig'ish kiradi. Muzokaralar vaqtida konfliktning keskinlashuviga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi xatti-harakat yo'nalishi tavsiya etiladi. Bundagi asosiy qoidalari juda oddiyidir: 1) bir-birlarining huquqlarini tan olish; 2) sherik tomonni batafsil tinglash; 3) sherik tomon nuqtayi nazari tushunilganligini namoyish etish; 4) konfliktning sherik taraf tomonidan qanday qabul qilinayotganligini aniqlash; 5) muhokama predmetini qat'iy shakllantirish; 6) umumiyluq nuqtayi nazarni qayd etish; 7) taraflarni nima ajratayotganligini aniqlash; 8) shundan so'ng konflikt mazmunini qaytadan tasavvur etish; 9) umumiyluq qarorni topish; 10) yak-dillik va farqlarni qayd etib, umumiyluq qarorni qabul qilish.

Muzokaralar yakunlanishida yuz berishi mumkin bo'lgan tipik xatolar va hatto og'ir oqibatlar quyidagilar bo'lishi mumkin, ya'ni:

- sherik taraf o'zining yanglishganligini raqibining xatosi deb biladi;
- sherik taraf o'z manfaatlarini qisman yashiradi;
- sherik taraf zaruriyatsiz «urush holati»ni qabul qilishi yoki mudofaaga kirishishi mumkin;
- sherik taraf o'z ustunligini tan olishni talab qiladi;
- eski arazlar yodga olinadi, raqibning zaif tomonlariga e'tibor qaratiladi;
- muzokaralar nihoyasida «g'olib» va «mag'lub» e'lon qilinadi.

Muzokaralarda tanglik manbalari ko'pincha faqat uning ishtirokchilari

tasavvurlaridagina mavjud bo‘ladi. «Soxta» konfliktlarni hal qilish haqiqiy konfliktlarga nisbatan qiyin bo‘ladi. Faqat malakali olib borilgan muzokaralarga bunday «konflikt-sharpalar»ni kun tartibidan chiqarishi mumkin, bu esa haqiqiy mavjud konfliktlarning hal etilishini ma’lum darajada yengillashtiradi.

Muzokaralar ishtirokchilar o‘rtasidagi ishonchning mustahkamlana borishi bilan yanada yaxshilanishi mumkin.

Mehnat va xalqaro konfliktlar, boshqarma tizimidagi konfliktlarni hal qilishga taalluqli muzokaralarni yuritish bo‘yicha ko‘pgina tavsiyalar amerikalik tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan:

1) muzokaralar tartib asosida va ish mohiyati bo‘yicha olib borilishi kerak;

2) muammoni tomonlarning bir xil tushunishlariga erishish va shundan so‘ng uni birga hal etishga erishish;

3) kishilarga ularning muammolaridan alohida holda qarash, munosabatlarni yaxshilash, ishontirishga intilish muhim;

4) o‘z qarashlaringizni asoslantiruvchi adolatli yondashuvdan foydalaning. Ma’qullamasangiz ham boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarni hurmat qiling;

5) nimaga intilayotganligingizni yoddan chiqarmang, xayollarga ko‘p berilmang.

Konfliktni hal etish usuli sifatida muzokaralarning muhimligidan tashqari ularning jiddiy cheklanganligini ham aytish joiz. Muzokaralar yordamida doim ham har qanday konflikt asosida yotgan obyektiv ziddiyatlarni zaiflashtirish yoki yo‘qotishning iloji yo‘q. Biroq ular avval kelishmovchiliklarni yengish mumkin bo‘lmasan joylarda foyda berishi shubhasizdir.

Ba’zida o‘zaro ta’sirning muzokaraviy tipi kurashga ham aylanishi, xususiy sabab asosidagi muzokaralar orqali yanada chuqur kelishmovchiliklar yoki subyektlardan birining yanada chuqur e’tirozları yuzaga kelishi mumkin. Bunday kurash predmeti bo‘lib muzokaralar predmetini tashkil qiluvchi kelishmovchiliklar emas, balki, masalan, muzokaralar natija bermasa, yashirin kelishmovchiliklar bo‘lishi mumkin.

Garovga olish bilan bog‘liq muzokaralar

Endi konfliktlarning eng keskin va xavfli turlarida, aynan garovga olishdagi muzokaralarni yuritish bo‘yicha g‘arb mutaxassislarining ba’zi tavsiyalariga to‘xtalamiz.

Garovga olishdagi muzokaralarda quyidagi holatlar chuqur tahlil etilishi va e’tiborga olinishi kerak: 1) garovga oluvchilar shaxsi xususiyatlari; 2) garovga olish motivlari va jinoyatchilar maqsadlari; 3) garovga oluvchilarning yaqin va uzoq vaqtga mo‘ljallangan xatti-harakatlari; 4) ular bilan

muzokaralar yuritishning kelishilgan tartibi; 5) muzokara yurituvchi shaxs va psixolog-maslahatchini tanlash; 6) muzokara yurituvchilar, rahbariyat va yorib kirish guruhi o'rtasida qat'iy o'zaro ta'sirni tashkillashtirish.

Ko'rsatilgan vaziyatda muzokaralarning bosh vazifalari quyidagilardir:
a) garovga olinganlar hayoti; b) garovga oluvchilarni tutish; d) mulkni qaytarish yoki himoya qilish.

Muzokaralar predmeti quyidagilardir: garovga olinganlarni ozod etish shartlari; garovga olinganlar va garovga oluvchilar uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish; garovga oluvchilarga erkinlik berish shartlari; tovon to'lash haqidagi masala; muzokaralashuvchi taraflar o'rtasida o'zaro munosabatni shakllantirish haqidagi masalalar va h. Mutaxassislar garovga oluvchilardagi kuchli ruhiy holatni yo'qotishni muhim deb hisoblaydilar, chunki bu ular tomonidan qotilliklar yoki boshqa kutilmagan harakatlarni sodir etish ehtimolini kamaytiradi. Shu sababli muzokaralarni yakunlashga shoshilish va erishilgan barcha bandlarga qat'iy rioya etish tavsiya etiladi. Tavsiyalarda garovga olganlar bilan qanday muloqotga kirishish, uni qanday amalga oshirish, muzokara olib boruvchi shaxslar va muloqotning boshqa ishtirokchilari qanday talablarga javob berishlari lozimligi haqida maslahatlar beriladi. Shubhasiz, muzokaralarni uzilish xavfi va garovga olinganlarni ozod etish uchun kuch ishlatish zaruriyatini doimo e'tiborga olish kerak.

Kuch ishlatish yo'llari qonun doirasida va qachonki tinch yo'l bilan hal etish samara bermagan hollardagina qo'llanilishi mumkin. Kuch ishlatish shakllari turlicha, ular har doim ham odamlarga jismoniy zarar yetkazishni nazarda tutmaydi, balki ommani siqib qo'yish, to'siqlarni o'rnatish, boshlovchilarni tutish, «tinch yo'laklar»ni joriy etish va boshqalarni o'z ichiga oladi, bu vositalarning ko'plari BMT tinchliksevar kuchlari tomonidan Yevropa, Osiyo, Afrika va dunyoning boshqa hududlarida muvafqiyat bilan qo'llanib kelinmoqda.

Ba'zida masalani kuch ishlatish yo'li bilan hal etish xavfining o'zi konfliktdan chiqishga yordam qilishi mumkin.

4 §. Ijtimoiy tanglik

Ijtimoiy tanglik tushunchasi. Ijtimoiy tanglik mohiyatiga ko'ra bu borliqni qabul qilish va baholashning o'ziga xos vaziyati, ijtimoiy ong va xulq-atvorning muayyan holatidir. Odatta bunday vaziyat konflikt uchun xos. Ijtimoiy tanglik ko'lamlari qoida bo'yicha konflikt ko'lamlari bilan qiyoslanadi va belgilanadi. Shaxslararo, guruhlararo, millatlararo yoki jamiyatdagi umumiy tanglik haqida fikr yuritish mumkin.

«Ijtimoiy tanglik» atamasi huquq sotsiologiyasi, psixologiya, ijtimoiy falsafa, tarix va siyosiy fanlar kategoriyalari qatoriga kiradi va unga fanlararo tushuncha sifatida qarash mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy tanglik tabiiy yoki ijtimoiy muhit tazyiqi os-tida yuzaga keluvchi va muayyan vaqt oralig‘ida davom etuvchi guruh yoki butun jamiyatning hissiy holatidir. Insonlarga bo‘ysunmaydigan tabiiy kuchlar ta’sirida (iqlim o‘zgarishi, resurslarning kamayishi, zilzila va b.) kishilar-ning odatdagi holati keskin o‘zgarishi mumkin.

Ijtimoiy tanglik esa har qanday boshqa ijtimoiy hodisa kabi sharoit, vaqt, joyning muayyan uyg‘unligiga amal qiluvchi umumiy va mahalliy shart-sharoitlar va sabablarga ega.

Ijtimoiy tanglikning eng umumiy shart-sharoitlari – bu butun aholi ommasi yoki uning ko‘pchilik qismining ehtiyojlari, manfaatlari, kuti-layotgan ijtimoiy yechimlari bilan ularning amaliy qanoatlantirilishi o‘ftasidagi yuzaga keluvchi va norozilikning kuchayishiga, alohida shaxslar va guruhlar tajovuzkorligining ortishiga, ruhiy qo‘zg‘alish va asabiylikning keskinlashuviga olib keluvchi barqaror va uzoq davom etadigan, hal qilib bo‘lmaydigan vaziyat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, gap konfliktli vaziyatning aholi ongida aks etishi haqida boradi.

Ijtimoiy konflikt jamiyatda quyidagi kamida ikki holat bo‘yicha yuza-ga keladi: birinchidan, odamlarning ko‘pchiligi avvaliga o‘zlarining ijti-moiy, iqtisodiy, siyosiy, milliy, madaniy yoki boshqa hayotiy muhim ehti-yojlari, manfaatlari va huquqlarining qondirilishi xavf ostida qolganligini yoki qondirish mumkin bo‘imasligini oz darajada anglagan bo‘lsalar, ik-kinchidan, mavjud ijtimoiy sharoitlarda o‘z manfaatlarini amalga oshirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan odamlarning nisbatan ozchilik qismi o‘z huquqlarini kamsitishga yoki haqiqiy (yoki soxta) to‘sqliarga qarshi kurash boshlab, jamiyatda qoniqmaslik, qo‘rquv, tushkunlik, loqaydlik kabi kayfiyatlarni tarqatgan hollarda.

Ijtimoiy tanglik har qanday hamjamiyat mavjudligining doimiy bo‘imasada, zarur xususiyatidir. Mikrodarajada inson uni kuchli hissiy holat (stress) sifatida boshidan kechiradi, unga nisbatan «immunitet» ishlab chiqaradi, shu bilan inson ijtimoiy madaniyatining zarur qismiga aylanadi. U yoki bu darajadagi va shakldagi tanglik odamlarga butun hayot-lari davomida hamkorlik qiladi.

Makrodarajada ijtimoiy tanglik ma’rifiy jarayonlarga kirib, butun ja-hon hamjamiyatiga singib boradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tanglik, eng av-valo, ijtimoiy-ruhiy va xulq-atvor darajalarida namoyon bo‘ladi va quyidi-gi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

– ijtimoiy hayotning hayotiy muhim sohalaridagi mavjud sharoit (vaziyat)lardan qoniqmaslik kayfiyatlarining yoyilishi (Sobiq Ittifoqda XX asr 90-yillarda ijtimoiy tanglik narxlarning keskin o‘sishidan, inflyatsiyadan, iste’mol bozorining tanqislashuvidan, shaxsiy xavfsizlikning yo‘qligidan, atrof-muhitning ifloslanishidan qoniqmaslikda namoyon bo‘lgan);

— hokimiyatga ishonchning yo‘qolishi, hokimiyatning obro‘sizlanishi, loqaydlik kayfiyatları, turli mish-mishlarning tarqalishi. Butun jamiyatda, alohida hududiy birlikda ommaviy ruhiy notinchlik, hissiy qo‘zg‘alish muhitini vujudga keltirish;

— xulq-atvor darajasida ijtimoiy tanglik stixiyali ommaviy harakatlar (vhimali ehtiroslar, «qora kun» uchun oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tovarlarini xarid qilish va b.) turli xil konfliktlarga, namoyishlar, ish tashlashlar, norozilik va bo‘ysunmaslikning boshqa shakllariga qo‘shilib ketishida, boshqa hududlarga yoki chet elga majburiy va ixtiyoriy ko‘chib ketish kabi harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkin;

— hududiy darajada ijtimoiy tanglik ko‘pincha turli ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarning omma orasida ta’sir ko‘rsatish va hokimiyat uchun kurashdagi faolligining o‘sishi bilan, turli ekstremistik guruhlar faoliyati, jinoiy elementlar faolligi ortishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

5 §. Konflikt ishtirokchilarining ruhiyati

Kichik va katta guruhlar darajasidagi, shuningdek, shaxs darajasidagi konfliktlar murakkab tabiatga ega va ularni faqatgina obyektiv va subyektiv sabablar o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda tushuntirish mumkin.

Har qanday jamiyatda shaxsiy yoki guruhliy konfliktlar faqat tashqi (iqitisodiy, ijtimoiy, madaniy va b.) sabablar bilan emas, shuningdek, shaxslar va guruhlarning ruhiy xususiyatlari bilan ham yuzaga keladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar konfliktning tashqi va ichki (ruhiy) omillarini bir xil ahamiyatdagi omillar deb qarashga moyildir.

Konfliktli vaziyatlarni tahlil etishda va ularni tartibga solish bo‘yicha amaliy choralarни belgilashda ruhshunoslar uchun eng muhim narsa bu konfliktlilik darajasining ortishiga olib keluvchi shaxslar va guruhlar xulq-atvorining tipologik ruhiy xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Xulq-atvor modelidan kelib chiqib umumlashgan ko‘rinishda konflikt ishtirokchilarining quyidagi uch asosiy ruhiy tipi farqlanadi:

1. Destruktiv (buzg‘unchi) tip. Subyektning bu ruhiy tipi konfliktni yuzaga keltirishga va uni to raqibini jismonan yo‘q qilib yuborishgacha yoki to‘la mag‘lub qilishgacha kuchaytirishga intiladi. Turmushda — bu xudbin, janjal va mojarolar tashabbuskori, muassasada — tuhmatchi, ig‘vogar, omma orasida — tartibsizliklar va buzg‘unchi harakatlar boshlovchisidir. Agar shunday toifa shaxslar bo‘lmaganida ko‘pgina konfliktli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal etilishi mumkin bo‘lar edi. Bu holat so‘nggi vaqtida dunyoning turli hududlarida bo‘lib o‘tayotgan millatlararo konfliktlar misolida yaqqol ko‘rinadi. Xalqaro maydonda harakat qilayotgan bunday subyektlar ham ma’lum (S. Husayn, Ben Laden va b.).

Konfliktli xulq-atvor o‘z-o‘zini nazorat qilmaslik oqibatida kelib chiqadi. Konfliktlarga moyil kishilar qoidaga ko‘ra yengil ta’sirchan, qahrli,

qo'pol, o'tkir hissiyotlarga va tavakkal qilishga moyil bo'ladilar, uzoqni ko'ra bilmaydilar.

2. Konstruktiv (ijobiy) tip. Bu tipdag'i shaxslar konfliktdan qochishga, har ikkala tomon uchun maqbul qarorni topishga intiladilar. Konstruktiv yondashgan odam vositachi yordamidan foydalanadi va tanglikni yumshatishga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshiradi. Konstruktiv tip subyektlar muzokalarlarni ishtiyoq bilan olib boradilar, kelishmovchilik predmetini va uni tartibga solish yo'llarini oydinlashtirishga intiladilar.

3. Konform tip. Konfliktdagi bunday tip shaxs ko'proq yon berishni, kurashni davom ettirishdan ko'ra itoatkorlikni afzal ko'radi.

Ko'p hollarda xulq-atvorning komform modeli boshqalarning tajovuzkor harakatlariga obyektiv yordam qilishi mumkin, masalan, subyektlar o'rtasidagi ziddiyatlar arzimagan sabablarga ko'ra vujudga kelgan bo'lsa. Bu holda xulq-atvorning kompromiss yo'li – bu konfliktni to'xtatishning eng yaxshi usulidir.

IV BOB. KONFLIKT ISHTIROKCHILARI

1 §. Qarama-qarshi kurashuvchi taraflar

Konfliktning asosiy subyektlari bu qarama-qarshi kurashuvchi tomonlar hisoblanadi. Keng ma'noda bu konfliktga jalb qilinganlarning hammasi ham uning bevosita ishtirokchilari hisoblanmasligini anglatadi. Bu yerda konflikt dalolatchilari, guvohlari, vositachilari, tashkilotchilari va boshqa shaxslar nazarda tutiladi. Konfliktda ishtirok etuvchi tomonlar deb bir-biriga nisbatan faol (hujum yoki mudofaa shaklidagi) harakatlarni amalga oshiruvchilar tushuniladi. Odatda konfliktda ikkita qarama-qarshi kurashuvchi tomonlar ishtirok etadilar, ba'zida har biri o'z maqsad va vazifalariga ega bo'lgan uch va undan ortiq tomonlar ham qarama-qarshi kurashuvchi taraflar bo'lishi mumkin.

Masalan, mehnat konfliktlarida xodimlar va ish beruvchilar ishtirok etadilar. Makrodarajada ishchilar manfaatlarini mehnat jamoalari, kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalar himoya qilishi mumkin. Ish beruvchilar tarafida turli tadbirdorlik va davlat tashkilotlari turishlari mumkin. Agar tomonlardan biri biror sababga ko'ra o'z faoliyatini tugatsa konflikt barham topadi (yoki uning ishtirokchilari tarkibi o'zgaradi).

Muayyan shaxslararo konfliktda tomonlar bo'lib individlar maydoniga chiqadi va shu sababli ularning har biri o'zgarmas hisoblanadi, ya'ni ularni boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Guruhiy konfliktda o'zgarmaslik shaxsga emas, balki guruhg'a nisbatan taalluqlidir. Davlatlararo konfliktda esa o'zgarmaslik davlat nomidan harakat qiluvchi mansabdor shaxs yoki organga emas, balki davlatning o'ziga nisbatan belgilanadi.

Ba'zi mualliflar (F. Borodkin, N. Koryak) qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarni quyidagi tarzda darajalarga bo'lishni foydali deb hisoblaydilar: eng quiyi daraja – individ, keyingisi – guruh, jamoa, milliy tuzilma, ijtimoiy qatlam, jamiyat, davlat. Bunday yondashuv unchalik to'g'ri emas. Ikkki shaxs o'rtasidagi konflikt o'zining mohiyati va fojiali tangligiga ko'ra ba'zida guruhiar o'rtasidagi konfliktlarga qaraganda ancha muhim bo'lishi mumkin. Gap subyektning qaysi darajaga mansubligida emas, balki konflikt mexanizmida, uning yo'nalishi, qarshi tomonlarning maqsadlarida va boshqa ko'p holatlardadir.

Kurashuvchi tomonlar turli darajalarga taalluqli bo'lishi, ya'ni bir xil darajada bo'limasliklari ham mumkin. Masalan, individ boshqa shaxs bilan emas, balki guruh yoki davlat bilan konfliktga kirishishi mumkin. Davlatning o'zi ba'zida o'zining tengi bo'lмаган sherik bilan, jamoat tashkiloti, siyosiy partiya, ekstremistlar guruhi va sh.k.lar bilan konfliktlashishi mumkin. Bunday konfliktlar institutlashtirilmagan shakllarda kechsa, odatda juda keskin, vahshiy tus olishi, ba'zida zaif tomonning halokati bilan tugashi mumkin.

Latent bosqichda hamma vaqt ham qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarni aniqlab bo'lmaydi. Biroq konflikt ochiq shaklga o'tsa kurash ishtiroychilari har taraflama aniqlanadi.

Jinoiy jarayon tartibida ko'radigan bo'lsak, jinoyatchi ushlanmaguniga qadar u bilan odil sudlov organlari o'rtasidagi konflikt latent xarakter kasb etadi. Aybdor, albatta, o'zini konflikt tomoni sifatidagi ishtiroykini shubhasiz biladi, biroq huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatni aynan kim sodir etganligini bilmasliklari mumkin. Jinoyatni ochish va aybdorni jazolash bo'yicha protsessual faoliyat gumondor ushlangandan so'ng latent bosqichdan ochiq ko'rinishga o'tganda konflikt oydinlashadi.

Qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning muhim xususiyatlari bo'lib, konflikt yakunini belgilovchi ularning jismoniy, ijtimoiy, moddiy, intellektual imkoniyatlari, ko'nikmalari va mahoratlari hisoblanadi.

Konflikt qarama-qarshi tomonlarining roldan farqli ravishda uning qiziqtiruvchilari, yordamchilari, tashkilotchilari, vositachilari va sudyalarning roli asosan epizodik xususiyatga ega.

Dalolatchi (qiziqtiruvchi) – bu bir tomonni konfliktga undovchi shaxs, tashkilot yoki davlatdir. Dalolatchining o'zi keyin bu konfliktda ishtiroy etmasligi mumkin, vazifasi boshqa shaxslar (guruhiar) o'rtasida konfliktni yuzaga keltirish bilan belgilanadi.

Yordamchi – bu o'z maslahatlari, texnik, tashkiliy ko'magi va boshqa usullar bilan konfliktga yordam beruvchi shaxsdir. Xalqaro siyosatda qurolli konfliktga sabab bo'lgan bosqinchiga yordam qilish tinchlikka qarshi qaratilgan jiddiy jinoyat deb baholanadi. Mana shunday baho tarix tomonidan II Jahon urushi arafasida millatchi Germaniyaga Angliya va Fransiya tomonidan ko'rsatilgan yordamga berilgan edi («Myunxen bitimi»).

Tashkilotchi – bu konfliktni rejalashtiruvchi, uning rivojlanishini belgilovchi, uni ta'minlash yo'llari va ishtirokchilarni muhofaza qilishni nazarda tutuvchi shaxsdir. Tashkilotchi bo'lib taraflardan biri yoki mustaqil shaxs bo'lishi mumkin. Misol, V. Shekspirning «Otello» asarida Otello bilan Dezdemona o'rtasidagi fojiali konfliktda Yagoning o'zi ishtirok etmaydi, biroq uni har tomonlama tashkil etadi.

Vositachilar faqat yuz berayotgan jarayonlar sabablari va sharoitlarini bilishga harakat qilib qolmay (masalan, sudyalar shunday qiladilar), shu bilan birga konfliktning oldini olishga, uni to'xtatishga va hal qilishga ham urinadilar. Bu ma'noda vositachilarni konflikt ishtirokchilari deb hisoblash mumkin.

Amaliy konfliktologiyada vositachilik muammosi muhim ahamiyatga ega. Muzokaralar yordamida kelishuvga erishishda konfliktlashuvchi tomonlarga yordam ko'rsatuvchi qat'iy xolis shaxs – vositachini nazarda tutgan tartib eng samarali hisoblanadi. Vositachilikning o'ziga xosligi shundaki, tomonlar odatda kelishuv bitimini o'zlarini tuzadilar. Vositachi biror ta qaror qabul qilishga vakolatli emas, balki uning yordamida erishilgan kelishuv tomonlarning keyingi harakatlarini belgilab beradi.

So'nggi yillarda millatlararo hududiy konfliktlarning ko'payishi munosabati bilan tinchliksevar kuchlar (BMT qo'shinlari) deb nomlanuvchi vositachilikka tez-tez murojaat qilinmoqda, ko'p hollarda ular konfliktga bevosita qo'shiladilar. Kongo, Somali, sobiq Yugoslaviya hududidagi bunday vositachilar orasida o'ldirilganlar va yarador bo'lganlar ham bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, vositachilar sudyalar singari konfliktda qarama-qarshi kurashuvchi tomonlar hisoblanmaydilar, ularning maqsadlari diametral qarama-qarshi: konfliktni rivojlantirish emas, balki uni to'xtatish, ziddiyatni iloji boricha tinch yo'l bilan hal etish.

Vositachining qator xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi; u dono va ijodkor, konfliktdagи barcha tomonlar uchun axloqiy jihatdan obro'li, xolis va savodxon shaxs bo'lishi kerak.

Konfliktlarni hal qilishning an'anaviy shakllariga taqqoslaganda (besosita to'g'ri muzokaralar olib borish, tomonlarning maxfiy uchrashuvlari va b.) vositachilik qator afzalliklarga ega. Vositachini kurashuvchi tomonlarning o'zlarini tanlaydilar, shu bois u tomonlarning o'zlariga qaraganda muzokaralarni oson boshqaradi nazorat qiladi va qulay axloqiy muhitni yaratadi oladi.

V BOB. KONFLIKTLARNI HAL QILISHNING YURIDIK USULLARI

1 §. Umumiy qoidalar

Muammoning qo'yilishi. Konfliktlarning jamiyat hayotidagi doimiy va umumiy hodisa sifatida tan olinishi har qanday konfliktning u ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'lamda, shaklda va tanglik darajasida muqarrar tarzda namoyon bo'lishini keltirib chiqarmaydi. Ijtimoiy konfliktlarni tartibga solish muammosi konfliktli vaziyat sabablariga ta'sir etish, konfliktning salbiy oqibatlarini tugatish yoki konflikt natijalaridan foydalanish maqsadi da konfliktning borishini muayyan yo'nalishga solish imkoniyatiga asoslanadi.

Konfliktni tartibga solish haqidagi masala nazariy va amaliy jihatdan uni o'rganishga loyiq mustaqil muammodir. Bu muammoni o'rganuvchilar konfliktni tartibga solishni unga bo'lgan eng oqilona yondashuv deb hisoblaydilar. Har doim ham ochiq to'qnashuvdan qutulish mumkin emas, biroq doimo konfliktli hodisalarning rivojlanishi uchun haddan tashqari katta mablag' sarflash va talafotlar ko'rishdan xalos bo'lish mumkin.

Ba'zi amaliyotchi mutaxassislarning fikricha, qator «... atamalar konflikt bilan ishlashga bo'lgan turli yondashuvlarni ifoda etadilar, ularni jarayondagi bo'g'in deb hisoblash mumkin. Har qaysi keyingi bo'g'in avvalgisini o'z ichiga oladi (masalan, konfliktni tinchitish konfliktning oldini olish bo'yicha tegishli choralarini nazarda tutadi). «Konflikt transformatsiyasi» atamasi keng ma'noda faoliyat sohasini umumiy ko'lamda ko'rsatish uchun foydalaniladi.

Konfliktning oldini olish – majburiy konfliktning boshlanishini yo'qotish, barham toptirishni maqsad qilib qo'yadi.

Konfliktni tinchitish kelishuv bitimiga erishish orqali majburiy harakatlarni to'xtatishni maqsad qilib qo'yadi.

Konfliktni tartibga solish zo'rlikni cheklash va tomonlar xulq-atvorigagi ijobjiy o'zgarishlar yordamida kelgusida unga yo'l qo'yumaslikni maqsad qilib qo'yadi.

Konflikt hal qilish konfliktlar sabablariga qaratilgan bo'ladi va konfliktlashuvchi tomonlar o'rtasida yangi mustahkam munosabatlarni qurishga intilishdan iborat.

Konflikt transformatsiyasi konfliktning yanada keng ijtimoiy va siyosiy manbalariga hamda kurashning negativ energiyasini ijobjiy ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga aylantirishga qaratilgan bo'ladi¹.

¹Qarang: Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.28.

Konfliktlarni tartibga solish muammosi ma'lum darajada ijtimoiy jaryonlarni boshqarish muammosining bir qismini tashkil etadi. Fan tomonidan uni boshqarish haqida ishlab chiqilgan asosiy g'oyalar konfliktli vaziyatlarni boshqarishning aniq usul va yo'llarini topishda katta ahamiyatga ega. Konfliktli menejment sohasidagi mutaxassislar umumiylar xarakterdagi qator asosiy qoidalar har bir muayyan holatdagi konfliktni boshqarish muammosini hal qilishni ta'minlashga olib keladi deb hisoblaydilar. Bu asosiy qoidalar quydagilar bo'lishi mumkin:

1. Konfliktli vaziyatning rivojlanishini boshqarish o'z mohiyatiga ko'ra odamlarni boshqarishdir. Bu yerda insонning obyektiv va subyektiv, moddiy va ma'naviy, g'oyaviy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan xulq-atvor omillari va motivlari o'z ahamiyati bilan namoyon bo'ladi.

2. Konfliktni boshqarish – tenglarni boshqarishdir. Konflikt ishtirokchilari orasida qoidaga ko'ra, mutlaq nohaq taraf bo'lmaydi. Hech bo'limaganda konfliktgina ishtirokchilarning biriga nisbatan avvaldan rejalashtirilgan fikr bilan yaqinlashish mumkin emas. Konfliktlarni demokratik tartibga solish nuqtayi nazaridan qaysidir bir tomonni to'xtatib qo'yish, konfliktli vaziyat ayrim subyektlarining xususiy pozitsiyalarini to'la inkor etish katta xatodir.

3. Siyosiy-huquqiy nuqtayi nazaridan konfliktlarni boshqarish bu, eng avvalo, katta guruhlar, odamlar ommasini boshqarishdir. Bu o'z navbatida konfliktlarning oldini olish yoki ularni tartibga solishda muayyan natijalariga erishish uchun zarur usullar, yo'llar, vositalar majmuyiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'yaydi. Bu yerda omma manfaatini ifoda etuvchi tashkilotlar, ommaning o'zini anglash darajasi, ro'y berayotgan hodisalar obyektiv rivojlanishining umumiy ko'لامи katta ahamiyatga ega.

4. Konfliktlarni boshqarish manfaatlar negizida boshqarishdan iborat eng muhim qoidadir. Konflikt ishtirokchilari manfaatini to'g'ri tushunish konfliktli vaziyatni muvaffaqiyatli hal etish kaliti, mustahkam asosga ega kelishuvning muhim shartidir.

Ijtimoiy konfliktlarning oldini olish va tartibga solish ko'proq ular namoyon bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitning umumiylar holatiga bog'liq. Shunga ko'ra konfliktlarni tartibga solish jarayonida qator uzviy jihatlar va bu vazifani yaxshi hal etishga ta'sir etuvchi zarur ijtimoiy shart-sharoitlarni aniqlash lozim.

Konfliktlarni boshqarishda axborotning roli. Konfliktlarga qarshilik ko'rsatishga bo'lgan har qanday urinish konfliktlar hali endi yuzaga kelayotgan vaqtda yoki ijtimoiy muhitga tarqalishi arafasida ularni manfaatdor taraflar tomonidan zudlik bilan ilg'ab olishdan boshlanadi. Shu bois aynan konfliktlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratish kerak.

Ma'lumki, muayyan konfliktning haqiqiy boshlanishi bilan bu hodisaga qarshi harakat qilishdan manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan bu hol aniqlanguniga qadar birmuncha vaqt o'tadi. Bu vaqt oralig'i qisqa

bo‘lgandagina konfliktni yengish uchun zarur maqbul sharoit yuzaga keldi. Pishib yetilayotgan konflikt hali yashirin holatda bo‘lgan vaqtida, o‘zaro munosabatlarning muayyan ijtimoiy tizim doirasida shakllanadigan potensial konfliktli vaziyatni aniqlashga erishilsa, kutilayotgan natija yaxshi bo‘lishi mumkin.

Konfliktlarni o‘z vaqtida aniqlash imkoniyati qator sharoitlar bilan izohlanishi mumkin. Masalan, atrofdagi hodisalarini payqash, sezish xohishi. Ko‘pincha konfliktni, konfliktli vaziyatning aniq elementlarini ko‘pchilik payqab yetadi, biroq hech kim birinchilardan bo‘lib bunga e’tibor qaratishni istamaydi. Ba’zi hollarda odamlar yetilgan konfliktni mumkin qadar uzoq vaqt aniqlanmasdan turilishidan manfaatdor bo‘ladilar. Paydo bo‘layotgan konfliktni sezmaslikni shunchaki xohlamaslik yoki odamlarda tegishli bilim va tajribaning yo‘qligi bilan bog‘liq bunday vaziyatlar juda ko‘p uchraydi. Biroq bundan tashqari obyektiv xarakterdagi qiyinchiliklar ham mavjud.

Konfliktni yuzaga keltingan muhitga yaqin turganlar konfliktni obyektiv qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mehnat konfliktida aynan oddiy xodimlar konfliktga olib keluvchi munosabatlarning murakkablashuvini chuqur his etadilar. Shaxs muayyan ijtimoiy iyerarxiyada qanchalik quyi mavqeni egallasa, ijtimoiy tanglik yoki yashirin konfliktning aniq sabablarini aniqlashning shunchalik qulay obyektiv imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy piramidaning tepasida ijtimoiy borliqni qabul qilishning, demak, ijtimoiy hayot xususiy tomonlarining ijtimoiy ahamiyatini to‘g‘ri baholash imkoniyatlari mavjud. Bu nuqtayi nazarga ko‘ra muayyan ijtimoiy tuzilmada shaxsning mavqeyi qanchalik yuqori bo‘lsa, unga konfliktni o‘z vaqtida aniqlashda katta mas‘uliyat yuklanadi, u konfliktli vaziyatning xavfliligini bevosita yoki bilvosita ko‘rsatuvchi barcha xavfli ogohlantirishlarga sezgirlik bilan qarashi kerak. Rahbarlik funksiyalarini bajaruvchi shaxslar har qanday xavfli signallar ulargacha to‘sqsiz yetib kelishi uchun iloji boricha tashvishlanishlari kerak. Biroq bunda kommunikatsiya va axborot tizimlarining barcha darajalarda tegishli faoliyat ko‘rsatishi, ijtimoiy organizmning barcha hujayralarida axborotning o‘tishi bilan bog‘liq ishlarning obyektiv holati muhim rolni o‘ynaydi. Axborot erkinligi konfliktli vaziyatni egallab olish va konfliktni maqbul yo‘nalishga solish uchun zarur bo‘lgan har qanday usul va yo‘llarni topishning hal qiluvchi shartidir.

Konflikt tahlili. Yuzaga kelayotgan konfliktni o‘z vaqtida aniqlashdan tashqari konfliktlilik holati haqida olingan axborotni lozim darajada qabul qilish ham ahamiyatga ega. Voqelikni bunday qabul qilish ijtimoiy konfliktning siyosiy ahamiyatini yetarli baholamaslikka yoki ortiq baholashga olib keluvchi subyektivizm, soddalashtirish va buzilishlardan xoli bo‘lishi kerak. Konfliktni aslida qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish o‘ta muhim. Muayyan konfliktni subyektiv baholash bilan uning obyektiv rivoj-

lanishi holati o'rtasidagi muvofiqlikka erishish vazifasi muhim va murrakkab bo'lib, amaliyotda uni hal etish qiyin kechadi.

Konfliktni yetarli baholamaslik, uning tahlili yuzzaki o'tkazilishiga va bu tahlil asosida bildirilgan takliflarning kam ahamiyatligini keltirib chiqaradi. Bunday tahlil nafaqat konfliktlarni yengishga mos keladi, balki unga zarar yetkazishi ham mumkin. Konfliktni yetarli baholamaslikning obyektiv va subyektiv sabablari bo'lishi mumkin. Obyektiv sabablar axborot va kommunikatsiya tizimlarining ahvoliga, subyektiv sabablar — alohida shaxs tomonidan yuzaga kelayotgan vaziyatni tegishli tarzda baholay olmaslik qobiliyati yoki baholashga xohishning yo'qligi bilan bog'liq.

Mavjud konfliktni haddan ziyod baholash ham zararlidir, chunki bunda aslida yetarli bo'lgandan ko'proq kuch-g'ayrat talab qilinadi. Muayyan konfliktni ortiqcha baholash yoki ehtimoli tutilayotgan konfliktli vaziyatga nisbatan ortiqcha xavotirlanish aslida yo'q konfliktning aniqlanishiga olib kelishi mumkin. Bu ko'pincha soxta konfliktlar yoki bunday vaziyatlarning sun'iy tug'ilishiga olib keladiki, bunda odamlar turli bo'lmag'ur ziddiyatlar va nizolarda konfliktlarni mavjud deb hisoblaydilar. Bu holat ham keraksiz harakatlar, o'zaro ishonchszilik, gumonsirash kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Yuzaga kelayotgan konfliktni oqilona baholash uchun nima talab etiladi? Buning uchun muhim qulay shartlar quyidagilardir: birinchidan, yuz berayotgan hodisalar haqida eng ko'p qamrab oluvchi va obyektiv axborotning bo'lishi; ikkinchidan, bunday axborot shiddat bilan ijtimoiy iyerarxiyaning barcha qatlamlariga, uning hokimiyat tuzilmalariga, shuningdek, manfaatdor va mas'ul shaxslarga yetib borishi kerak; uchin-chidan, axborotni yetkazish jarayonida uning subyektiv buzilishiga yo'i qo'ymaslik lozim, ya'ni birinchi qo'lidan axborot olish yoki manfaatdor bo'lmagan shaxslardan axborot olish katta ahamiyatga ega; to'rtinchidan, yuzaga kelayotgan konfliktning obyektiv baholanishiga unda bevosita ishtirot etuvchilarning subyektiv intilishlari ehtimolligini hisobga olish ham yordam qiladi.

Agar konflikt haqiqatda yuzaga kelsa, uni diqqat va e'tibor bilan tahlil etish muammosi yuzaga keladi. Bu holda konfliktli jarayonning asosiy jihatlariga — konflikt predmeti, sabablari, ko'lami, ishtirokchilari, tasnifi, ziddiyatlar xarakteri, keskinlik darajasiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Konfliktda kishilarning ishtiroki bevosita qabul qilishni ta'minlovchi ochiq, ba'zida esa yashirin ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bu ayniqsa, konfliktning haqiqiy ishtirokchilari, ularning subyektlariga taalluqli bo'ladiki, ular har doim ham o'zlarining konfliktdagi ishtirokining oshkorra bo'lishidan manfaatdor bo'lavermaydilar.

Konfliktni bartaraf qilish uchun uning sababi bo'lgan sharoitni, ya'ni konfliktni yuzaga keltirgan u yoki bu moddiy yoki ma'naviy qadriyatlar yoki holatlarni aniqlash katta ahamiyatga ega. Konflikt predmeti iqt-

sodiy, siyosiy, tashkiliy, diniy va boshqa omillar va holatlar bo‘lishi mumkin. Predmet haqidagi muayyan bilimga ega bo‘lish konfliktni barham toptirishga yo‘naltirilgan harakatni muvofiqlashtirishning muhim shartidir. Bunday bilimga ega bo‘lish orqali konfliktni adolatlari hal etish bo‘yicha qadam qo‘yish, uning ishtirokchilariga konflikt bilan bog‘liq zararlarni qoplashni tavsiya etish, nihoyat, konfliktli vaziyatni yuzaga keltirgan predmetni ekvivalentiga almashtirish haqida xulosaga kelish mumkin. Konfliktning predmeti xususiyatlarni aniqlash natija bermasligi ham mumkin. Bu holda tahlil qilinayotgan konflikt mohiyatiga ko‘ra predmetsiz deb tan olinadi. Bunday xulosa chiqarish konfliktga qarshi turganlar uchun ham muhimdir.

Ro‘y berayotgan konfliktning haqiqiy ko‘lamini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Konflikt mikro, makro va megakonflikt bo‘lishi mumkin. Konflikt ko‘لامи uning haqiqiy chegaralarini o‘rnatish, uning jamiyatda tarqalish doirasi, uning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasini belgilash jihatidan ahamiyatga ega bo‘ladi. Konflikt o‘lchamlari uni bartaraf etish bo‘yicha qo‘llaniladigan harakatlarning mutanosibligini aniqlash, bu harakatlarni amalga oshirish doirasini ko‘rsatish nuqtayi nazaridan muhim. Konfliktlar sabablarini aniqlash, uni yuzaga keltiruvchi ziddiyatlar tahlili, uning rivojlanish tangligi va keskinligini hisobga olish ham kam ahamiyatli emas.

Jamiyatning o‘zida konfliktlarni tartibga solish va tugatishning turli imkoniyatlari mavjud. O‘z fuqarolariga moddiy ta’minotning eng yuqori darajasini ta’milagan jamiyatda moddiy ne’matlarni taqsimlash bilan bog‘liq konfliktlar iqtisodi zaif mamlakatlarga qaraganda juda oson bartaraf qilinadi. Totalitar rejim sharoitiga nisbatan demokratik muhitda konfliktlarni tartibga solish yengil amalga oshiriladi. Totalitar siyosiy rejimda ko‘pincha ijtimoiy to‘lqinlar, muammolar mavjud emasdek, hattoki jamiyat hayoti ko‘pincha barqaror deb qabul qilinadi. Biroq bu qattiq markazlashgan siyosiy boshqaruvning konfliktli vaziyatlarni samarali hal qilishini anglatmaydi. U ko‘proq yuzaga kelayotgan konfliktlarni bo‘g‘adi, ijtimoiy muammolarni o‘z qobig‘ida qolib ketishiga olib keladi. Ijtimoiy tanglik ortib boradi va hamma narsa ertami-kechmi totalitar hokimiyat tizimini halokatga olib keluvchi portlash bilan tugaydi.

Ko‘p holatlar odamlar ruhiyatining xususiyatlari, milliy an’analarning o‘ziga xosligi, umumiy madaniyatga bog‘liq. Bu jihatlar konfliktlarni amalga oshirish jarayoniga sezilarli ta’sir etadi, bu o‘z navbatida uni bartaraf etish imkoniyati shartlarini belgilaydi. Bir holatlarda konflikt qonli nizolarga, boshqa hollarda aynan shu konflikt tinch yo‘l bilan, parlament munozaralari shaklida rivojlanadi.

Tabiiyki, u yoki bu siyosiy rejimning tartibga solish faoliyati hozirgi vaqtida jamiyat keng ma’qullagan qadriyat va kayfiyatlarini ifodalaydi.

Konfliktning keskinligini yumshatish yoki uni bartaraf etish uchun

qulay sharoitlar mayjud bo'lsa, konflikt rivojlanishini tartibga solishnung muayyan usullari va yo'llari haqida fikrlash mumkin bo'ladi.

2 §. Konstitutsiyaviy tartiblar

Umumiy qoidalar. Yuridik konfliktlarni hal etish quyidagi shakllarda: parlament va boshqa konstitutsiyaviy tartiblar yo'li bilan, jinoiy, fuqarolik va boshqa ishlarni sudda va arbitrajda ko'rib chiqish vositasida, huquqni qo'llovchi vakolatli davlat organlari: ma'muriy komissiyalar, soliq inspeksiysi, militsiya, Yo'l harakati xavfsizligi xizmati va boshqa organlarda qarorlar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bunday organlar va ular amalga oshiradigan ish ko'rish tartiblari o'rtaida farq bo'lishiga qaramay, konfliktlarni yuridik yo'l bilan hal qilishning to'rtta umumiy xususiyati bor:

1) konflikt davlat tomonidan vakolat berilgan organ tomonidan ko'rib chiqiladi va hal etiladi;

2) konfliktni hal etuvchi organ huquq normasini ijro etadi va uning asosida harakat qiladi;

3) konfliktlashuvchi tomonlar nizoni ko'rib chiqilish davrida qonunchilik bilan nazarda tutilgan huquq va burchlarga ega bo'ladilar;

4) konflikt bo'yicha qabul qilingan qaror tomonlar hamda boshqa tashkilotlar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.

Konfliktni hal qilishning yuridik vositalarini uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

a) siyosiy sohada yuzaga keluvchi konfliktlarga nisbatan qo'llaniladigan konstitutsiyaviy tartiblar;

b) sud va arbitraj tomonidan ishlarning ko'rib chiqilishi;

d) huquqni qo'llovchi organlar qo'llaydigan ma'muriy tartiblar.

Konfliktlar va hokimiyatlar bo'linishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'z kompetensiyasiga, organlarining mustaqil tizimiga ega va ular tegishli qonunchilik asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Biroq amalda hokimiyat uch tarmog'ining funksiyalari ba'zida aralashib ketadi yoki o'zaro ziddiyatga kirishadi; kompetensiya haqida nizo va jiddiy konfliktlar yuzaga kelishi mumkin, ko'pincha ijro hokimiyatining sud hokimiyatiga, ba'zida uning qonun chiqarish sohasiga aralashuv hollari uchrab turadi.

Hokimiyatlar bo'linishi sohasida konfliktlar qanday ko'rib chiqiladi va hal etiladi? Bu jarayonning quyidagi beshta xususiyati bor:

1. Hokimiyat tarmoqlari o'rtaida konfliktlar doimo qonuniy, konstitutsiyaviy vositalar yordamida hal etilishi kerak. Aynan Konstitutsiya hokimiyat tarmoqlari har birining kompetensiyasini yetarli va to'la darajada ifodelaydi va shu bilan birga ular funksiyalarining taqsimlanishi uchun asos

hisoblanadi. Konstitutsianing buzilishi hokimiyatlar o'rtasida konfliktni yuzaga keltiradi.

2. Garchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi konflikt konstitutsiyaga zid bo'lgan yo'l bilan hal qilinsa ham, uning tugashi yuridik shaklda kechadi. Yangi Konstitutsiya qabul qilinadi, yangi parlament saylovlari tayinlanadi, Prezident yoki hukumat almashinadi – bularning hammasi yuridik kuchga ega rasmiy hujjatlarda mustahkamlanadi.

3. Hokimiyatning uch tarmog'i ustidan xalqning o'zidan boshqa oliv hakam yo'q. Shu sababli hokimiyatlar bo'linishi sohasidagi konflikt shu hokimiyatlarning o'zlarini tomonidan ko'rib chiqilishi va hal etilishi yoki xalq tomonidan referendum yo'li bilan yoki inqilobiy vaziyatlar uchun xarakterli bo'lgan bevosita irodani ifodalash vositasi bilan hal qilinishi mumkin.

4. Hokimiyatlar o'rtasidagi uzoq davom etuvchi konflikt jamiyatda siyosiy va ijtimoiy inqirozni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy hayotning turli tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bunday konfliktni hal etish mavjud vaziyatga turli siyosiy kuchlarning jalb etilishini taqozo etadi.

5. Hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi konfliktlarni o'z vaqtida oldini olish ham muhim ahamiyatga ega. Hokimiyatlarning konfliktsiz faoliyati, shubhasiz, ular o'rtasida nizolar va kelishmovchiliklarning mavjud bo'lishidan afzalroq. Biroq buning uchun asosiy shart – hokimiyat organlarning har biri tomonidan Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan o'z kompetensiyasiga qat'iy rioya etishdir. Hokimiyatlar o'rtasida vujudga kelayotgan konfliktli vaziyatga o'z vaqtida e'tiborni qaratish va ularning rivojini bartaraf etish lozim.

Davlat darajasida Prezident Konstitutsiyaga rioya etilishining kafili sifatida namoyon bo'lsa, quyi darajalarda bunday tiyib turish roli mahalliy hokimiyat organlari, vakillik organlari, sud organlari va boshqa muassasalar faoliyati orqali ta'minlanadi.

Hokimiyatlar o'rtasidagi konfliktlarning oldini olish va hal etish texnifikasi o'z ichiga tegishli organlar va boshqarmalar rahbarlari va vakillari (Prezident va parlament, vazirlar va deputatlar) o'rtasida muntazam muzokalar olib borish, hujjatlar almashish, kelishtiruvchi komissiyalar ishlani tashkil etish va boshqalarni oladi.

Parlament faoliyatidagi konfliktlar. Parlament – turli ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish va tahlil etish hamda hamma uchun majburiy bo'lgan qarorlarni qonunlar shakli da qabul qilish asosida xalqning umumiy erkini amalga oshiruvchi va shakllantiruvchi oliv hokimiyat vakillik organidir. Tabiiyki, bunda siyosiy partiyalar, fraksiyalar, guruhlar, alohida deputatlar o'rtasida kelishmovchiliklar va konfliktlar vujudga keladi. Bunday konfliktlarni parlamentning o'zida hal etilishi muayyan tartiblarning ishlab chiqilishini va ulardan foydalanishni talab etadi.

Parlamentda konfliktlarni hal etish quyidagi uch asosiy usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

1-usul – deputatlarning bir yoki bir necha guruhlari erkinining boshqa ishtirokchilarga «o'tkazilishi». Bu asosan ko'pchilik ma'qullagan qarorni qabul qilish uchun berilgan ovozlar natijasida yuz beradi.

2-usul – bu kompromiss bo'lib, unga erishish uchun turli tartiblardan foydalaniladi.

3-usul – konsensus bo'lib, u ko'pincha kompromissning bir turi hisoblanadi.

Konstitutsiya, Reglament va boshqa me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan parlamentni shakllantirish va uning faoliyatiga oid qoidalar nizoli masalalarni muhokama etish va konfliktlarni demokratik, ma'rifiy yo'l bilan hal qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Quyida parlamentning bu boradagi faoliyatining asosiy shakllarini, ularda ro'y beradigan konfliktlar, shuningdek, parlament konfliktlarini hal etish usullari ustida to'xtalamiz:

a) qonun chiqarish faoliyatidagi konfliktlar. Odatda quyi palata tomonidan qabul qilingan qonun loyihasi yuqori palata tomonidan rad etilgandan so'ng konfliktli vaziyat quyidagicha hal etiladi: palatalar kelishmovchiliklarni hal etish uchun kelishtirish komissiyasini tuzishlari mumkin va komissiya muvaffaqiyatli ishlagan taqdirda qonun loyihasi quyi palata tomonidan takroran ko'rib chiqiladi. Bunday shakl samarali bo'lib, dunyoning ko'p mamlakatlarida qo'llaniladi. Masalan, 1949–1990-yillar davomida GFR parlamentida 520 ta qonun loyihasini ko'rib chiqishda kelishtiruv komissiyalari tuzilgan va faqat 53 holatda kelishuvga erishilmagan¹.

Agar komissiya tuzilmasa yoki kelishilgan qarorga erishilmasa, quyi palata qonun loyihasini qayta ovozga qo'yishi, agar quyi palata deputatlarining umumiy sonidan 2/3 qismi unga ovoz bersa, qonun qabul qilinigan bo'ladi. Shu tariqa konflikt «kuch ishlatis» usuli bilan bartaraf etilishi mumkin.

b) parlament debatlari. Palatalarda qonun loyihalari bo'yicha muozkaralar vaqtida ba'zida deputatlar o'rtasida konfliktlar vujudga kelishi mumkin. Bunday hol faqat palatalarning plenar majlislarida emas, shuningdek, qo'mitalar, komissiyalar, deputatlar fraksiysi va guruhlari majlislarida ham yuz berishi mumkin. Barcha hollarda konfliktlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'lib reglamentlar va palatalarning boshqa me'yoriy hujjatlari bo'lishi mumkin, ular turli masalalarni ko'rib chiqish, munozaralarni o'tkazish va tinglash tartibini belgilaydi. Ba'zi normalar konflikt vaqtida taraflar xulq-atvoriga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lgan deputatlik etikasi qoidalarini ko'zda tutadi (masalan, haqoratli so'zlarni ishlatis,

¹ Qarang: Горец Р. Так работают правительство и парламент. М., 1993. С. 60–62.

soxta axborotlardan foydalanish va noqonuniy harakatlarni man etish). Huquqbuzarlarga nisbatan muayyan sanksiyalar ham belgilanishi mumkin: kun davomida so‘zga chiqish huquqidан mahrum etish, ogohlantirish, majlis zalidan chiqarib yuborish.

d) ovozga qo‘yishdagi konfliktlar. Bu borada konfliktlar ko‘pincha deputatlar hissiyotining kuchayishi, shuningdek, ovozga qo‘yishdagi xatalar va noaniqliklar oqibatida vujudga keladi. Aslida majlisdan qatnashmayotgan deputatlar uchun noqonuniy ovoz berish, ovozga qo‘yilgan loyiha matniga o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish kiritish, deputatlarni o‘zgartirishlarning tavsiya etilgan matni bilan tanishtirmslik hollari uchraydi.

Hozirda qonun loyihasini uch marta o‘qish yo‘li bilan qabul qilish, ya’ni loyihani uch marta muhokama etish va har bir o‘qishda tegishli tuzatishlarni kiritish katta ahamiyatga ega. Bunday tartib qonun loyihasini muhokama qilish bilan bog‘liq yuzaga keluvchi konfliktli vaziyatlarning tugatilishiga imkon beradi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov. Konstitutsiyaviy sud sud hokimiyatni organi sifatida o‘ziga taalluqli konfliktlarni hal etishda o‘ziga xos sud vositalaridan foydalanadi. Konstitutsiyaviv sud hal etadigan konfliktlar muayyan xususiyatlarga ega va boshqa sudlar ko‘radigan konfliktlardan farq qiladi, bunda qoida bo‘yicha Konstitutsiyaning buzilishi bilan bog‘liq siyosiy institutlar konflikti nazarda tutiladi.

Konstitutsiyaviv sudning ish yuritishi parlament tartiblari bilan birgalikda hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish hamda qonun chiqarish faoliyati bilan ijro etish faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan konfliktlarni bartaraf etish shakllaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, Konstitutsiyaviv sud boshqa davlat organlari tomonidan Konstitutsiyaga rioya etilishini o‘ziga xos shaklda nazorat qiladi. Muayyan ma’noda uni demokratik huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlovchi va hokimiyatning uch tarmog‘i o‘rtasidagi muvozanatni saqlovchi «qarama-qarshi turish va tiyib turish» mexanizmlari qatoriga kiritish mumkin.

Umuman, jahon mamlakatlari amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiyaviv sud quyidagi:

- qonun chiqaruvchi va ijro organlari o‘rtasidagi;
- federal davlat organlari va uning subyektlari o‘rtasidagi (federativ davlatda);
- davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi konfliktlarni hal qilishi mumkin.

Konstitutsiyaviv sudning mavjudligi siyosiy konfliktlarning vujudga kelishida muhim ogohlantiruvchi, tiyib turuvchi rolni o‘ynaydi. Agar konflikt yuz bergan bo‘lsa, Konstitutsiyaviv sud uni Konstitutsiyaviv sud haqidagi qonunchilikning aniq yuridik normalariga tayangan holda hal etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-moddasi 1-qismi).

Konstitutsiyaviy sudning faoliyat yuritish tartibi uning Reglamenti bilan belgilanadi. Shunisi muhimki, Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan qarorlar qaytadan ko'rib chiqilmaydi va barcha uchun majburiy hisoblanadi.

Huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirish. Normativ-huquqiy hujjatlar – qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va boshqa qonun osti normativ-huquqiy hujjatlari har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi va ularda barcha masalalar bir xil hal qilinmaydi. Bu turli sabablar bo'yicha yuz berishi mumkin: qonun hujjatlari loyihalari mualliflari qarashlarining turlichaligi, loyihalarni tuzishdagi xatolar, mazkur huquq normasi bilan tartibga solinadigan vaziyatning o'zgarishi va h. Hujjatlarning nomuvofiqligi, o'z navbatida huquqni qo'llash jarayonida konfliktlarni yuzaga keltiradi, bunda har qaysi taraf rasman huquqiy harakat qilgan bo'ladi. Bunday turdag'i konfliktlarni hal etish bu hujjatlarning o'zlarini muvofiqlashtirishni, ularning yagona mazmun kasb ettirishlarini zaruriy shart qilib qo'yadi.

Huquqiy aklarni muvofiqlashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, bulardan asosiysi bo'lib bir-biriga zid bo'lgan ikkala hujjatni bekor qilish, hujjatni haqiqiy emas deb topish, unga tuzatish yoki qo'shimcha kiritish, yangi hujjatni qabul qilishdir. Bunday harakatlar faqat shunday aklarni qabul qilgan tegishli qonun chiqaruvchi, ijro yoki sud organlari yoki ulardan yuqori turgan instansiylar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli huquqiy normalardagi ziddiyatlar asosida-gi konfliktlarni hal etishdan oldin bu normalar uchun mas'ul bo'lgan shaxslar va organlar nuqtayi nazarlarini muvofiqlashtirish masalasini hal etish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi.

Bunday yuridik mexanizmlar yuzaga kelgan konfliktlarning qonuniy yo'l bilan hal qilinishiga imkon beradi.

3 §. Ishlarning sud tomonidan ko'rilishi

Umumiy qoidalar. Sud ish yuritishi insoniyatning ko'p asrlik amaliyotida ishlab chiqilgan konfliktlar va nizolarni hal etishning alohida shaklidir. Bu shakl yuqorida ko'rib chiqilgan konstitutsiyaviy tartibga nisbatan qator afzalliklarga ega. Bular quyidagilardir:

- a) konfliktlarning boshqa hokimiyatlarga tobe bo'lмаган organ tomonidan ko'riliши, bu organ o'зининг таинланishi va mavqeyiga ko'ra ishning yakuniy natijasidan manfaatdor bo'лmasligi kerak;
- b) ishning haqiqiy holatlarini aniqlash, tekshirish va qaror qabul qilishning aniq ishlab chiqilgan tartibi;
- d) sud faoliyatining normativ negizga egaligi va sud ishni qonun va o'зининг ichki ishonchi asosida ko'rib hal qilishi;
- e) konflikt tomonlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar uchun qabul qilingan sud hujjatlari ijrosining majburiyligi.

O'zbekiston Respublikasida an'anaviy sud ish yuritishining to'rtta shakli mavjud (Konstitutsiyaviy sud ish yuritishidan tashqari): fuqarovali, jinoiy, ma'muriy, xo'jalik sud ish yuritishi. Ular sud muhokamasining predmeti, ishni ko'rish tartibi va qabul qilinadigan hujjatlarning xarakteri bilan farqlanadi.

Fuqarolik sud ish yuritishi – mulkiy nizolar, mehnat konfliktlari, yer munosabatlari, oilaviy va meros ishlarini ko'rish bo'yicha amalga oshiriladi.

Fuqarolik protsessi konfliktlarni tinch yo'l bilan hal etish uchun yetarli darajada qulay imkoniyatlarni yaratadi. Taraflar teng protsessual huquqlardan foydalanadilar: ular ish bo'yicha dalillarni to'playdilar va taqdim etadilar, iltimoslar kiritadilar va sud tarkibini rad etish to'g'risida arz qiladilar, boshqa tarafning vajlariga e'tiroz bildiradilar, sud hujjatlari ustidan shikoyat qiladilar. Sud taraflar tomonidan taqdim etilgan va sud tomonidan ko'rib chiqilgan barcha ish materiallari asosida qonuniy va asoslantirilgan qaror chiqaradi va shu tariqa konflikt qonunga muvofiq hal etiladi. Fuqarolik protsessual kodeksining muhim normasi bo'lib ishni ahslashuv bitimi bilan tugallash imkon hisoblanadi, bu bitim faqat tarafalarning xususiy bitimi emas, balki shuningdek, sud hokimiyatining ham hujjati hisoblanadi: u sud tomonidan tekshiriladi va tasdiqlanadi, u qonunga

muvofig kelishi va boshqalarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Birinchi instansiya sudida yuridik ishni ko'rish dastavval taraflarda nizoni ahndlashuv bitimini tuzish bilan tugatish istaklari boryo'qligini aniqlashdan boshlanadi.

Xo'jalik protsessi jarayoni. Fuqarolik sud ish yuritishi qoidaga ko'ra jismoniy shaxslar (fuqarolar) nizolarini ko'rish bilan bog'liq. Xo'jalik jarayonida asosan yuridik shaxslar (tashkilotlar, korxonalar, firmalar, hissadorlik jamiyatlari, shirkatlar va b.) taraf sifatida ishtirok etadilar. Xo'jalik sudlari asosan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan konfliktlarni hal etadi.

Konfliktlashuvchi tomonlar xo'jalik sudlariga murojaat qilishlarining boisi shundaki, ular nizoli vaziyatni o'z kuchlari va imkoniyatlari bilan hal eta olmaydilar. Nizoli vaziyat ikki turda bo'lishi mumkin: a) tadbirkorlar o'rtasidagi iqtisodiy nizolar; b) tadbirkorlar bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasidagi nizolar.

Iqtisodiy konfliktlarning xo'jalik sudi tartibida ko'riliishi yagona imkoniyat emas; tomonlar o'zлari orasiда to'g'ridan to'g'ri muzokara olib borishlari, kompromiss bitimlar tuzishlari, maslahatchilarga, vositachilariga, hakamlik sudlariga murojaat qilishlari mumkin va h. Shunday qilib, tadbirkor konflikti hal etishning davlat va nodavlat tartibini tanlashi mumkin. Keyingi yillarda bu maqsadga erishishning noqonuniy metodlaridan foydalananish hollari (kriminal elementlar ishtiroki bilan masalan «hal etish») uchraydi. Biroq, iqtisodiy konflikti hal etish nodavlat shaklining qulay jihatlari mavjud bo'lishiga qaramay (soddaligi, norasmiyligi, tezligi, anonimligi), xo'jalik sudi jarayoni nizoni qonuniy hal qilishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Faqat u xo'jalik sudi qabul qilgan qarorlar ijrosining davlatning kuchi bilan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.

Xo'jalik sudi tomonidan ishni ko'rish tartibi fuqarolik sudi jarayoniga yaqin turadi. Shu bilan birga ular o'rtasida quyidagi farqlar bo'lishi mumkin: a) xo'jalik sudi ish yuritishida konflikti sudgacha hal qilish tartibi qo'llaniladi; b) nizolashuvchi tomonlar o'z xohishlariga ko'ra nizoni (davlat organlari bilan bo'ladigan nizolardan tashqari) xo'jalik sudi ish yuritishidan olib, hakamlik sudlariga berishlari mumkin; d) xo'jalik sudi ish ko'rishda tomonlarga kompromiss qarorga kelishlarida yordam ko'rsatishi kerak.

Jinoiy sud ish yuritishi. Jinoiy ishlar bo'yicha sud ish yuritishni bir yoki bir necha shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatni anglatuvchi kriminal konflikt belgilab beradi. Bir xil hollarda bu konflikt jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxs o'rtasidagi (masalan, o'g'irlilikda), boshqa hollarda jinoyatchi va davlat o'rtasida (pora olish yoki pora berishda) yuzaga keladi. Biroq, barcha hollarda – konflikt qonun bilan, demak, huquqni qo'riqlovchi organlar bilan bo'ladi. Sudda bu konflikt qoida bo'yicha protsess ishtirokchilarining konfliktiga aylanadi: bir tomonidan ayblanuvchi va uning

himoyachisi, boshqa tomondan, jabrlanuvchi va ayblovchi (prokuror). Ba'zi hollarda protsessual konflikt ochiq shaklga ega bo'lmaydi — bu aybini bo'yniga olib, chin dildan tavba qilishdir. Shunga qaramay bu holda ham kriminal konflikt — jinoyat mavjud deb hisoblash lozim.

Jinoyat-protsessual kodeks sud va dastlabki tergov organlarini «Jinoyat sodir etgan har bir shaxs adolatli jazolanishi va hech bir aybsiz shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi va sudlanishi mumkin emas»ligini nazarda tutuvchi normaga qat'iy rioya etishlarini nazarda tutadi.

Mulkiy va boshqa nizoning hal qilinishini ta'minlovchi fuqarolik sudi ish yuritishidan farq qilib, kriminal konflikt odatda jinoyat protsessi boshlangunga qadar tugallangan bo'ladi (jabrlanuvchi o'ldirilgan, buyum o'g'irlangan va h.).

Jinoiy ishlari bo'yicha sudning vazifasi sud muhokamasining asosi bo'lgan o'sha kriminal konflikt haqiqatda sodir bo'lganligini hamda sudlanuvchining unda aybdorligini aniqlashdan iborat. Agar shunday bo'lsa, boshqa sharoitlarni e'tiborga olib aybdorni jazolash haqidagi masalani hal qilish kerak. Shunday qilib, jinoiy ish yuritishda konflikt asosan davlat majburlovi choralarini qo'llash, ya'ni tegishli hukm chiqarish yo'li bilan yakunlanadi. Ishning tinch yo'l bilan tugashi istisno tariqasida xususiy ayblov ishlariда sud muhokamasigacha va sud muhokamasi vaqtida ayblanuvchi va jabrlanuvchining yarashuviga yo'l qo'yiladi. Boshqa hollarda sodir etilgan jinoyat jabrlanuvchining xususiy ishi hisoblanmaydi va jinoyatchining qonun bilan bo'lgan konflikti majburiy yakunlanadi.

Shunday qilib, jinoiy protsess vaqtida jinoyatchi tomonidan haqiqatni aniqlashga nisbatan ko'rsatayotgan qarshiligiga xalaqit berish, boshqa tomondan esa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning gumondor (ayblanuvchi, sudlanuvchi)ga noqonuniy tazyiq ko'rsatishni istisno etishga qaratilgan davlat majburlovi amalga oshiriladi.

Ma'muriy tartibda ish yuritish. Yuqorida aytiganidek, ko'pgina yuridik konfliktlar kollegial (masalan, ma'muriy inspeksiyalar), yakka tartibda ish yurituvchi (masalan, Yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektor) davlat organlari tomonidan hal qilinadi. Konfliktlarni ko'rib chiqish va hal qilishning bu xil tartibi juda to'g'ri emas. Chunki bu hollarda ijro hokimiyatiga qarashli davlat organi fuqaroning aynan shu hokimiyat bilan bo'lgan konfliktini ko'rib chiqadi. Masalan, Yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektorining o'zi yo'l harakati hodisasini qayd etadi, aybdorni jazolash haqida o'zi qaror chiqaradi va unga o'zi jarima soladi. Biroq, qadimgi rimliklar «hech kim o'z ishiga hakam bo'la olmaydi», deb bekorgan aymaganlar. Vaholanki, keltirilgan misolda ijro hokimiyati o'z zimmasiga sud hokimiyatining funksiyasini olganligini ko'rish mumkin.

Bu holatni etiborga olib so'nggi yillarda nizolarni ko'rishning nafaqat fuqaroviyy-huquqiy, shuningdek, ma'muriy sud tartibi ham keng qo'llaniladigan bo'ldi. Hozirgi qonunchilikka binoan davlat hokimiyati har qanday organi, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat tashki-

lotlari va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish ayniqsa o‘ta muhimdir. Fuqaroning bunday organlar yoki shaxslar bilan bo‘lgan konflikti sud hokimiyati tomonidan hal etiladi, bu esa qarorning qonuniyligi va asoslantirilganligini kafolatlaydi.

4 §. Vositachilik

Konfliktni mediating subyektlari. Konfliktlarni tartibga solishning mustaqil yo‘nalishi bu uchinchi tomonning vositachiligi hisoblanadi. G‘arb nazariyasida bu yo‘nalish *konfliktni mediating* degan nom olgan. Uning doirasida vositachilik institutini qo‘llashdan tortib to vositachini o‘zining shaxsiga qo‘yiladigan talablar bilan bog‘liq turli nazariy va amaliy masala-largacha ko‘rildi.

Keng siyosiy ma’no kasb etuvchi yirik ko‘lamdagi ijtimoiy konfliktlarda hakam rolini davlat yoki uning hokimiyat organi bajarishi mumkin. Konfliktda ishtirok etuvchi tomonlar qoida bo‘yicha bunday organlarni qator sabablarga ko‘ra tasniflaydilar, ya’ni: birinchidan, hukumat muassasalari tasarrufida odamlar hayotida katta ahamiyatga ega moddiy ne’matlar bo‘ladi va bu ne’matlardan maqsadli foydalanish konfliktni borishiga, uni jiddiy cheklashgacha yoki to‘la to‘xtashigacha olib kelishi mumkin; ikkinchidan, davlat tashkilotlari kuch ishlatishning qonuniy imkoniyatlariiga: iqtisodiy sanksiyalar, siyosiy ta’qib, ma’muriy ta’sir yoki hatto kuch ishlatish imkoniyatiga ega; uchinchidan, hukumat ijtimoiy axborotning salmoqli ulushini o‘z qo‘lida jamlaydi. Obyektiv jihatdan u ijtimoiy konfliktning sababi bo‘lgan ishlarning haqiqiy holati haqida eng ko‘p xabaridor bo‘ladi va bu axborotni samarali ishlatishi mumkin, konflikt tarafalarini ularni qiziqtiruvchi muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishga undaydi, ayni vaqtda ommaviy axborot vositalari ham asosan davlat tasarrufida hisoblanadi; to‘rtinchidan, hukumatning hakamlik imkoniyatlari qonuniy hokimiyat nufuziga, fuqarolarning qonunga itoat etish va bo‘ysunish an’nalariga tayanadi; beshinchidan, hukumat hamma joyda zarur institut deb tan olinadi, unga bo‘ysunish odatdagi hodisa deb qaraladi va noo‘rin hissiyotlarga o‘rin qoldirmaydi.

Konfliktdagi vositachilik funksiyalarini faqat hukumat muassasalari emas, shuningdek, har qanday tashkilotlar, muassasalar yoki alohida shaxslar bajarishlari mumkin. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan vositachi konfliktni qisqa muddatda tartibga solishi mumkin, vaholanki uning aralashuvizsiz taraflarni bitimga keltirish umuman amalga oshmasligi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, G‘arbda murakkab ijtimoiy konfliktlarda vositachi rolini juda ko‘p hollarda ayrim shaxslar, masalan, Nobel mukofoti sovrindorlari muvaffaqiyatlari bajaradilar. Bu amaliyot vositachi shaxsiga qo‘yiladigan yuqori talablarni namoyon qiladi. U xalqaro obro‘ga, sof

axloqqa, siyosiy betaraflikka, kasbiy vakolatga, yuqori tafakkurga ega bo‘lishi kerak. Bizga ma’lumki, barcha Nobel mukofoti sovrindorlari bu talablarga javob beravermaydi, biroq umuman olganda dunyoda ularning obro‘sı juda yuqori, shu sababli konfliktni to‘xtatish ilinjida ularning vositachilik xizmatlaridan foydalaniladi.

Vositachi jarayonning norasmiy ishtirokchisi sifatida maydonga chiqadi, uning tavsiyalari va qarorlari konflikt ishtirokchilari uchun majburiy emas, biroq bu holatda ham uning vositachilik harakatlari kelishuvga erishishda yordam berishi mumkin. Uchinchi tarafning maqomi rasmiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin (masalan, arbitraj ishtiroki).

Konfliktda vositachi harakatlarining natijasi ko‘p darajada vositachi-ning tutgan o‘rnii va yo‘liga, uning xususiy manfaatlariga, shuningdek, konfliktning avj olishiga va o‘ta salbiy oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun uning qanday vositalarni tanlashiga bog‘liq. Bunday vositalarni tanlashda u yetarli erkin bo‘imasligi mumkin. Uning ixtiyorida boshlangan konfliktga qarshi turishning juda cheklangan imkoniyatlari bo‘lishi mumkin. Biroq har qanday vaziyatda amaliy jihatdan e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan kamida ikkita holat mayjud. Bu, birinchidan, konfliktning bevosita ishtirokchilari tomonidan, shuningdek, vaqtinchalik neytralitetga rioya etuvchilar tomonidan vositachining harakatlari bilan bog‘liq yuzaga keluvchi munosabat, ikkinchidan, odamlarning tinch vaziyatda, shuningdek, konflikt vaqtidagi harakatlarini tartibga soluvchi va muayyan ijtimoiy muhitda hukmronlik qiluvchi axloq normalari va odatlarning mavjudligi. Haqiqiy imkoniyatlar, muayyan vaziyat va ijtimoiy fikr bilan hisoblashish maqsadga muvofiq. O‘z ta’siriga ko‘ra o‘ta zaif yoki o‘ta kuchli vositalardan saqlanish kerak. Me’yordagi ta’sirga asoslangan vositalardan ko‘proq foy-dalanish eng natijali hisoblanadi.

AQSHda konfliktlarni hal etishdagi vositachilik faoliyati davlat hokimiyatining muhim funksiyalaridan biriga aylandi. O‘tgan asrning birinchi yarmidan boshlab ijtimoiy konfliktlar reguliyatorlari vazifasini Mehnat munosabatlari bo‘yicha Milliy boshqaruva hamda Vositachilik va kelishtiruv Federal xizmati kabi davlat boshqarmalari amalga oshira boshladilar.

Vositachilik va kelishtiruv Federal xizmatining funksiyalariga, bi-rinchidan, taraflarni muzokaralarga jalb etish, ilojsiz vaziyatlarda taraflar o‘rtasida muloqot o‘rnatish; ikkinchidan, mediator xolis shaxs sifatida muzokaralarning normal borishini ta’minalash uchun hissiy keskinlikni yo‘qotishi yoki kamaytirishi kerak; uchinchidan, mediator alohida o‘tkazilgan uchrashuvlarda konfliktlashuvchi taraflarni yangi takliflar va muqobil qarirlarni e’tibor bilan baholashga undaydi, bunda har bir taraf boshqa tarafning vakili bo‘lgan vositachining o‘zi bilan muzokara olib boradi (mediator muzokaralardagi har bir ishtirokchining talablarini ko‘rsatishga harakat qiladi); to‘rtinchidan, mediator konflikt atrofida shakllangan ijtimoiy fikrni qoniqtiruvchi qarorni topishga harakat qiladi; be-

shinchidan, agar mehnat nizosi hal etilmaydigan bo'lsa, mediator uning fikricha zarur bo'lgan muqobil ish tashlash yoki lokautni taklif etishi mumkin, masalan, avvalgi shartnomalari muddatini uzaytirish, konflikt sa-bablarini o'rganish uchun kelishtiruvchi komissiyani tuzish, hech bo'lmasa, arbitra-jga murojaat qilishni taklif etishi mumkin.

5 §. Konsensus

Konsensus tushunchasi. Konflikt va konsensus har qanday huquq tizimining ikki muhim jihatni hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra yuridik siyosat konfliktlar bo'lgan joyda boshlanadi.

Huquqshunoslikning muhim vazifalaridan biri konfliktlarni hal etish vositalari sifatida institutlar va tartiblarni, shuningdek, siyosiy va huquqiy tizimni isloq qilish usullarini o'rganishdir.

Nazariy fikr va amaliyotning bu masalalarni ko'rib chiqishga, konsensus nuqtayi nazaridan ijtimoiy ahamiyatli qarorlarni qabul qilish mexanizmini topishga, ya'ni konfliktlarni hal etishga manfaatdor bo'lgan barcha tomonlar erishgan barqaror kelishuvga asoslangan bunday yondashuvni axtarishga tayyor emasligi ko'rindi.

Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, konsensus prinsipi qonunning hozirgi zamona nazariali va huquqni tushunish bilan bog'liq barcha muammolarni zamonaivy izohlashga bo'lgan yangi yondashuvlarni ochib beradi. Fanshunoslik atamasidan foydalananib shuni aytish kerakki, qonun, qonun chiqaruvchi faoliyatning ijtimoiy omillari, qonunga amal qilish mexanizmi va uning samaradorligi shartlari kabi asosiy yuridik institutlarni paradigmatic tushunishning almashuvi yuz bermoqda.

Ijtimoiy-huquqiy borliqdagi tub o'zgarishlarni aks ettiruvchi yangi yuridik tafakkurning asoslari shakllanmoqda.

Konsensus – kollegial tartibda qaror qabul qilish prinsipi, veto huquqining aksi bo'lgan prinsipdir. Veto – bu qonunchilik yoki boshqa aktini muhokama qilish ishtirokchilaridan birining qaror qabul qilishini taqilash huquqidir. Konsensus, aksincha, turli nuqtayi nazarlarni kelishtirish, kompromiss, hamkorlik asosida ijobiy qarorlar qabul qilishni talab etadi. Bunday yondashuvga ko'ra huquq va qonunga jamiyatda yuridik konsensusga erishish nuqtayi nazaridan qarash mumkin. Aynan manfaatlarni kelishtirish (muvofiglashtirish) huquq tizimining ierarxiyasida qonun ustuvorligi va davlatning huquq tatbiq etish faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarning asosiy negizi hisoblanadi.

Yuridik konsensus. Siyosiy va yuridik ma'nodagi konsensus turlicha izohlanadi. Konsensus siyosiy ma'noda – bu ko'pchilik fikri, nizoli masalalar bo'yicha umumiy kelishuv shakli; umumiy fikr bo'lsa, yuridik ma'noda – ikki muhim prinsip: qarorni qabul qilishda ishtirok etganlarning ko'pchiligi tomonidan uning qo'llab-quvvatlanishi va ishtirokchilarining bittasi tomo-

nidan ham qarorning qabul qilinishiga bildirilgan e'tirozning yo'qligiga asoslangan qarorni ishlab chiqish va qabul qilish usulidir.

Demak, konsensus – bu yakka tartibdagi kelishuv emas, negaki qarorni qabul qilish jarayoni barcha qatnashuvchilarning pozitsiyalari to'la muvofiq kelishini emas, balki faqat to'g'ridan to'g'ri e'tirozlarning yo'qligini talab qiladi va betaraf yo'lni tutishga yo'l qo'yadi (ovoz berishda betaraf bo'lganlar).

Konsensusni bunday tushunish faqat davlatlararo munosabatlardagina emas, shu bilan birga ichki jarayonlarni tahlil etishda ham qo'llaniladi. Bu holda konsensusni ikki xil ma'noda farqlash qabul qilingan, tor ma'noda – muayyan konfliktlar va nizolarni siyosiy hal qilish usuli sifatida va keng ma'nodagi konsensus – umumsiyosiy ma'noda, boshqacha qilib aytganda fuqarolik totuvligi deb ham nomlanadi.

Demokratik jamiyat – bu teng imkoniyatlar jamiyatidir. Ijtimoiy fikr jamiyat barcha a'zolarining fikrlaridan shakllanadi. Har qanday masalani hal qilishda barcha mavjud nuqtayi nazarlar aniqlanishi, muhokama qilinishi, ko'rib chiqilishi va hisobga olinishi lozim.

«Tarafdor» va «qarshi» ovozlarni mexanik hisoblash prinsipiga asoslangan ovozga qo'yish tizimi jamiyatning bo'linishiga olib keladi. Uning asosiy kamchiligi ozchilik fikrini faktik e'tiborga olmaslik hisoblanadi. Ko'pchilik tazyiqi (diktati) demokratianing asosiy jihatlaridan biri bo'lganadolatlilikni buzadi. Chunki demokratianing vazifasi fuqarolarning erk-xohishlarini jamiyatning yagona erki sifatida qayta shakllantirishdir. Ko'pchilikning cheklanmagan hokimiyati xavfli oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. O'z manfaatlarini amalga oshirish sharti sifatida o'zgalarning manfaatini tan olish konsensusning asosiy qoidasidir.

Hozirgi zamон jamiyatida konsensus odatda shaxs erkinligini, uning qadriyatları va manfaatlarını tan olinishiga asoslanadi.

6 §. O'zbekistonda yuridik konfliktlarni hal qilishning o'ziga xos jihatlari

Mustaqilligimizning dastlabki yillardanoq mamlakatimiz oldida o'zbek jamiyatı taraqqiyotining o'ziga maqbul yo'lini tanlashdek dolzarb masala ko'ndalang turgan edi. Prezidentimiz ta'bıricha, «Biz tariximizning o'sha tub burilish nuqtasida, g'oyat xatarli va murakkab kunlarda haqiqatan ham yakka-yu yagona to'g'ri yo'lni tanladik. Ya'ni mustabid tuzum, o'ta mafkuralashgan, milliy o'zligimizni toptagan eski tizimdan voz kechib, xalqimizning xohish-irodasi, azm-u qarorini bajo keltirib, ochiq demokratik va huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'lini tanladik»¹.

¹ Karimov I. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatı asoslarini shakllantirishning asosiy yo'naliishlari. – T.: «O'zbekiston», 2002. – 6-b.

Ayni paytda, kelajak sari taraqqiyotimizning asosida yotadigan besh tamoyil belgilab olindi, ya’ni avvalgi tuzumdan qolgan salbiy meros – iqtisodning siyosiyashuvidan uzil-kesil xoli bo’lish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga davlatning tashabbuskor bo’lishi, islohotlarning keskin yo’l bilan emas, balki bosqichma-bosqich, «... odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo’l qo’ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va guruhlarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilgan holda»¹ qonun ustunligini ta’minlagan holda amalga oshirish belgilangan edi.

Yirik nazariyotchi olim, professor Z. Islomovning fikricha, agar davlat hokimiysi nobarqarorlikni yo’qota olmasa, davlat ichidagi vaziyatni nazorat qila olmasa, oqibatda mamlakatda ijtimoiy tanglik yuz beradi va bu tanglikning natijasi sifatida aholida hokimiyyat institutlariga nisbatan ishonchhsizlik holati, bu institutlar tomonidan o’z nufuzlarini yo’qotishi hamda jinoyatchilik va zo’ravonlikning ko’payishi yuz beradi. «Davlat tomonidan boshqarilmaydigan yoki zaif boshqariladigan va ma’lum dara-jada «pinhoniy» iqtisod tomonidan va uning qoidalari asosida amalga oshiriladigan bozor munosabatlari iqtisodiyoti islohotlari – bu xuddi avvalgi totalitar tuzum xurujining o’zginasidir, faqat davlat darajasida emas, balki davlatga qarshi amalga oshirilayotgan xurujdir. Shu bois o’tish davrini kechirayotgan jamiyatda tub o’zgarishlar kuchli davlat hokimiyyatisiz, ya’ni qat’iy qarorlar ishlab chiqara oladigan va ularni muntazam hayotga tatbiq eta oladigan hokimiyyatsiz amalga oshirishning iloji bo’lmaydi»².

Aytish lozimki, mustaqillikka erishilgandan so’ng O’zbekistonda kechayotgan bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o’tish davri o’zining o’ta murakkabligi va mavjud turli omillarga bog’liqligi bilan ajralib turadi. Mana shunday jamiyatning tubdan yangilanish jarayoni har qanday jamiyat taraqqiyotining ajralmas elementi bo’lgan ijtimoiy konfliktlarsiz kechmaydi, albatta. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlatni qurish yo’lida jamiyat oldidagi turli muammolar va ziddiyatlarning muqarralligini nazarda tutgan mamlakatimiz Prezidenti I. Karimovning ularning oqilonha yechimini topish masalasida muhim vosita bo’luvchi siyosiy-huquqiy davlat institutlarining mohiyati va o’rni masalasiga o’ziga xos zamnaviy yondashganligini ta’kidlash o’rinli, ya’ni uning e’tiroficha, «Biz yaqin o’tmishta sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g’oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni

¹ Karimov I. O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari. – T.: “O’zbekiston”, 2002. – 6-b.

² Qarang: Islamov Z. Проблема власти: её понимание, назначение, социальная ценность. –T., 2003. –C.14.

zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda murosa-yu madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi.

Huquqni o'ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvlarga asosan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga kelтирish vositasi sifatida yondashiladi»¹.

Ijtimoiy notenglikning asosiy belgilari bo'lib mulkchilik, hokimiyat, maqom munosabatlardagi farqlar hisoblanadi. Bu xususiyatlar u yoki bu darajada jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasida aks etadi, ijtimoiy guruhi, individlar o'rtasidagi munosabatlardagi notenglik bo'lib namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy notenglik bilan ijtimoiy guruhi, va individlarning hayot tarzida, madaniyatida, ruhiyatidagi muhim farqlar ham bog'liq bo'ladi.

Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish, ularni ayrboshlash va taqsimlash yuzasidan bo'ladigan ijtimoiy harakatlar ijtimoiy guruhi, o'rtasida tanglikka, muayyan sharoitlarda esa ochiq konfliktga olib borishi muqarrardir.

So'nggi o'n yilliklarning tarixiy tajribasi shundan guvohlik beradiki, davlat sotsializmi xususiy mulkchilikni va sinflarning ijtimoiy notengligini butunlay tugata olmadidi. U jamiyatni ijtimoiy konfliktlardan ham qutqara olmadi.

Shu o'rinda mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston xalqining rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ma'naviy qadriyat va an'analarini e'tiborga olgan holda yangi rivojlanish bosqichida ijtimoiy ziddiyatlarning o'ta keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik masalasiga e'tiborni qaratib quyidagicha fikr bildirgan, ya'ni «...mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq o'zimizga xos va o'zimizga mos iqtisodiyotni va ijtimoiy modelni, ya'ni ustuvor yo'nalishlarni tanlagan ekanmiz, o'zgalardan farqli o'laroq, jamiyatimizda o'ta boylar va o'ta qashshoqlar bo'lishi ma'qul emasligini e'lon qilganmiz va bizning bugungi amaliy hayotimiz aynan shu maqsadga qaratilgan....»².

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha sohalarini, shu jumladan, sudlov tizimini ham qamrab oldi. Ta'kidlash joizki, sud hokimiyatining moddiy asosi va tashkiliy huquqiy shakli bo'lgan davlat sud tizimini tashkil etuvchi sudlar tomonidan amalga oshiriladigan odil sudlov jamiyatda huquq subyektlari (jismoniy va yuridik shaxs, jamiyat va davlat, alohida shaxs va davlat) o'rtasida yuzaga keluvchi konfliktlarni huquq vositasida hal qilish, fuqarolar huquq va erkinliklarini, fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlarini himoya qilishning eng ishonchli va ma'rifiy usuli hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: "O'zbekiston", 1995. – 26-b.

² Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.: "O'zbekiston", 2004.- 12-t. – 110-b.

Sud islohotini chuqurlashtirish, butun odil sudlov tizimini demokrat-lashtirish – huquqiy davlatni mustahkamlashning muhim yo‘nalishidir. Ijtimoiy turmushning demokratik instituti tariqasida sudning ahamiyati oshib bormoqda. Bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirila-yotgan islohotlar davomida sud fuqarolar va yuridik shaxslar o‘rtasidagi turli huquqiy konfliktlarni samarali hal qilish vositasiga aylanib bormoq-da. «Mustaqillik yillarda sud-huquq tizimini erkinlashtirish va demokrat-lashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilganini e’tirof etmoq lozim.

Buning natijasida mamlakatimizda zamanoviy demokratiya talablari-ga javob bera oladigan sud tizimi shakllanmoqda.

Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil qabul qilingan «Sudlar to‘g‘risida»gi birinchi qonundayoq aybsizlik prezumpsiysi ximoyaga bo‘lgan huquq, sud jarayonidagi tortishuv va oshkor-alik kabi umume’tirof etilgan tamoyillar belgilab qo‘yilgan edi. Ular keyin jinoiy protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa kodeks hamda qonun-larda rivojlantirildi.

Jahon tajribasini hisobga olib, birinchi marta mamlakatimizda Kons-titutsiyaviy sud ta’sis etildi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xo‘jalik munosabatlarida qonunchilikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynayotgan xo‘jalik sudlari tizimi yaratildi.

2000-yilda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi sud tizimini isloh qilishda muhim bosqich bo‘ldi¹.

Sud hokimiyati organlarining faoliyatiga bo‘lgan davlatning ehtiyoji, eng avvalo, jamiyatda turli shakllarda: inson bilan inson, inson bilan dav-lat (yoki uning organlari), davlat bilan alohida shaxs o‘rtasida yuz beruv-chi ijtimoiy konfliktlarni yuridik vositalar va usullar bilan hal qilish zaruri-yati bilan belgilanadi.

«Hokimiyatning har bir tarmog‘i o‘z funksiyalarini faqat o‘ziga mos bo‘lgan, alohida organlar yordamida amalga oshiradi. Sud hokimiyatida bunday organlar bo‘lib sudlar hisoblanadiki, ular sud tizimini tashkil eta-di. Bu qat‘iy tashkillashtirilgan tizim. Uning tashkiliy shakllari qonun bilan batafsil belgilanadi va faqat qonunchilik tartibida o‘zgartirilishi mumkin»².

Yuridik adabiyotda «Sudning ijro organlari tiziñidan alohida bo‘lishi, uning institutsiyaviy va tashkiliy mustaqilligiga faqat konstitutsiyaviy tu-zum yoki hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini tan oluvchi davlatlardagini

¹ Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. -- T.: “O‘zbekiston”, 2002. – 318-b.

² Qarang: Конституционное право зарубежных стран / Под общ.ред.М.В.Баглай, Ю.И.Лейбо, Л.М.Энтина. М.: Норма-Инфра, 1999. -С.328.

erishish mumkin. Aynan shu paytdan boshlab sud haqida emas, balki sud hokimiyati haqida gapirish mumkin¹ ligi haqida fikr mavjud.

«Ijtimoiy himoya tizimi sifatida sud tizimi «huquqiy davlat» maqomiga talabgor har qanday davlatda katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hakam rolini bajarish bilan u bir vaqtning o‘zida huquq bilan tartibga solinadigan faoliyatning barcha sohalarini himoya qiladi. Sud organlari tizimi huquqiy tartibotni, iqtisodiy makon birligini, mulk taqsimoti va ayirboshlashning hukmron shakllarini qo‘riqlab va iqtisodiy faoliyat erkinligini kafolatlab konstitutsiyaviy tuzum asoslarining mustahkamligini ta’minlaydi. Aynan u jamiyat manfaatlariga zid xatti-harakatlarni sodir etuvchi shaxslarga nisbatan davlat majburlovini joriy etadi»².

O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari o‘ziga xos tarzda amalga oshirilmoqda. Mamalakatda bosqichma-bosqich joriy qilinayotgan jamiyatni yangilash va modernizatsiyalash bo‘yicha tub islohiy o‘zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda yuzaga keluvchi kelishmovchilik va konfliktlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmasligi mumkin emas.

Amaliyotchi konfliktolog I. Chuprininaning fikricha, O‘zbekistonda konfliktlar bilan ish olib borish sohasida «... hozirgi zamон demokratik qadriyatlar bilan milliy a’analarning uyg‘unlashuvi eng samarali hisoblanadi.... Bu masalada O‘zbekistonning o‘ziga xosligi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish jamoaviy tuzilmasi — mahallalarning samarali faoliyat ko‘rsatishi hisoblanadi. Mahalla o‘z aholisi o‘rtasidagi nizolarni an’anaviy tarzda hal qilib kelish bilan shug‘ullangan. Hozir bu funksiya mahallalar qoshidagi kelishtiruv bo‘yicha qo‘mitalarni tuzish orqali qayta tiklanmoqda»³.

Darhaqiqat, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, suveren davalatchilikni shakllantirishda madaniyatimiz sarchashmalariga, teran va ulkan ma’naviy merosimizga murojaat qilish, boqiy tarixiy o‘tmishimizda mavjud bo‘lgan barcha ezzuliklarni yuzaga chiqarib, rivojlantirish bora-sida beqiyos imkoniyatlar ochildi. O‘tmish ajdodlarimizning madaniy va ma’naviy boyligi chuqur mushohada etilib ijtimoiy ongimizga singdirilmoqda, shu orqali biz barpo etayotgan yangi fuqarolik jamiyatni manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Keng ko‘lamda rivoj topgan jamoat birlashmalari tizimining mavjudligi fuqarolik jamiyatining muhim sifat belgilardan biridir. Bunday ijti-

¹ Qarang: Абросимова Е.Б. Судебная власть в Российской Федерации: система и принципы. — М.: Институт права и публичной политики, 2001. -С.12.

² Qarang: Пилипенко Ю.С., Каримуллин Р.И. Российская судебная система в контексте нового Федерального конституционного закона// Российское право. 1998, №1. - С.23.

³ Qarang: Чупрынина И. Заметки о современных проблемах гражданского общества в СНГ и роли неправительственных организаций в мировотворчестве./Разрешение и предупреждение конфликтов в СНГ. Международный справочник организаций /Ред. И сост. Л.Л.Зимина, Е.Ю.Садовская. Конфликтологический центр. — Алматы, 2002. -С.27.

moiy institutlar vositasida fuqarolar o‘zlarining siyosiy, iqqisodiy, madaniy va turmushning boshqa sohalaridagi ehtiyoj hamda manfaatlarini qondirish va himoyalash, umumiylar muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Jamoat birlashmalari davlatdan mustaqil bo‘lgan, alohida faoliyat yuritadigan va, ayni vaqtida, davlat institutlariga ta’sir o‘tkaza oladigan, davlatning ijtimoiy hayotga, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tashkilotlardir.

Fuqarolar yoki yuridik shaxslarning tashabbusi bilan tuzilgan bu ko‘ngilli o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilotlar xilma-xilligi bilan farqlanadi. Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) aholi muayyan yirik toifalarining ijtimoiy manfaatlarini ko‘zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo‘limgan umummilliy tashkilotlar;

2) «Mahalla» jamg‘armasi (fuqarolarning jamoaviy-mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruviga doir harakatini muvofiqlashtiruvchi);

3) O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi (respublikada va joylarda qo‘mitalarning boshliqlari davlat rahbariyati tizimiga kiritilganligi tufayli barcha darajalarda hukumat tashkilotlari bilan o‘zaro bog‘liq holda ishslash mexanizmiga ega), Ishbilarmon ayollar uyushmasi, Olima ayollar uyushmasi kabi sherik tashkilotlarni ta’sis etgan;

4) O‘zbekiston Respublikasi Nogironlar uyushmasi (ma’lumotlarga ko‘ra uning ta’sir doirasida 600 mingdan ziyod kishi bor).

Fozil va komil tarix guvohlik berganidek, aynan mahalliy jamoada erkin el-u ulusning kuchi o‘z ifodasini topadi. Mahalliy jamoalar demokratiya o‘rnatalishida beqiyos rol o‘ynaydi.

Mahallalarning mahalliy hudud aholisi hayotida o‘ziga xos ahamiyat kasb etishiga mamlakatimiz Prezidenti tomonidan o‘rinli urg‘u berilganligi e’tiborni tortadi, chunonchi «... mahalla xalqimizning o‘zi asrlar davomida ijod qilgan tom ma’nodagi demokratik idora tariqasida odamlarning siyosiy, ijtimoiy saviyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning «Otang – mahalla, onang – mahalla» degan naqli ham aynan shu ma’noda aytilgan, desak, aslo xato bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham mahallada yashaydigan har qaysi odam – u ishchi yoki o‘qituvchi, rahbar yoki pensioner bo‘ladimi – kim bo‘lishidan qat’i nazar, mahalla idorasiga kelganida, albatta, bir niyat, bir tashvish yoki iltmos bilan keladi.

Shunday ekan, mahallaga murojaat qilgan har qaysi insonni quruq gaplar bilan jo‘natish emas, balki ularning talab va iltimosini qondirishga harakat qilish lozim. Biz ana shu masala ustida chuqurroq o‘ylashimiz zarur, deb o‘layman»¹.

¹ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.: “O‘zbekiston”, 2004. 12 t. – 102–103-b.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimini mustahkamlash va rivojlantirishga mamlakat mustaqilligi qo'liga kiritilganidan so'ng O'zbekiston davlati rahbariyati tomonidan kuchli e'tibor qaratilmoqda, chunki mazkur mahalliy jamoaviy idoranining turmush, oila, farzandlar ta'lif va tarbiyasi bilan bog'liq jamiyat hayotida yuzaga keluvchi ko'p sonli mojarolar va konfliktlar yechimini o'z vaqtida oqilona va maqbul hal qilish vositasi ekanligini hayotning o'zi to'liq tasdiqlamoqda. «Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlaridan kelib ko'rgan odamlar faqat bizning yurtimizda mavjud bo'lgan, noyobligi bilan ko'pchilikning havasini o'ziga tortadigan mahalla idorasining afzalliklariga tan bermoqda.

Ular xalqimizning ana shu tizimga suyanib va tayanib o'z kelajagini qurayotganini yaxshi baholamoqda. Chunki mahallada odamlar erkin yashshi, o'z fikrini erkin bildirishi, kamchiliklarni bermalol tanqid qilishi mumkin... Mahalla tom ma'nodagi jamoa bo'lishi kerak. Mahallaga shunday sharoit tug'dirib berish kerakki, toki unda yashaydigan har qaysi inson o'z huquqini yaxshi bilsin va mahallaga suyanib, mahallaning va kolatlaridan foydalaniib, o'z huquqini himoya qilishga qodir bo'lsin... Hammamiz yaxshi bilamizki, bizning xalqimizda or-nomus, andisha, hayo va ibo degan tushunchalar nihoyatda kuchli. Bu esa ko'pincha uydagi mojaroni hal etish uchun ariza yozib, sudga chopishga yo'l bermaydi.

Oilaviy kelishmovchiliklarni nari borsa mahalla doirasida, ko'pni ko'rgan keksalar, faollar yordamida hech kimga ovoza qilmay, ortiqcha rasmiyatshilikka yo'l qo'ymay hal etish – bu ota-bobolarimiz amal qilib kelgan azaliy odat. Kim nima demasin, biz bundan hech qachon voz kechmaymiz»¹.

«... biz inson huquqlarini yuksak qadrlaymiz, bu borada biron-bir adolatsizlik yoki qonun talablaridan chekinishga aslo yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu dunyoda har kim o'z xohishiga ko'ra yashashga, o'zi xohlangancha ish tutishga haqlidir.

Bugun biz sud tizimini aynan shunday qarashlar asosida isloh qilaypmiz. Shu maqsadda sudlarda yarashtiruv amaliyoti ham keng qo'llanilmoqda. Bu o'zaro kelishuv yo'li bilan hal bo'ladigan masalani janjal ko'tarmasdan, behuda arizabozlik, bir-birini haqorat qilmasdan hal etish imkonini beradi... Arzimagan hayotiy masalalarni ham o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab, janjal va sud orqali, tortishuv orqali hal qilish, ortiqcha mojarolarga borish, o'ylaymanki, bunday yo'l xalqimizga ma'qul bo'lmaydi»².

¹ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.: "O'zbekiston", 2004. 12 t. – 102–103-b.

² O'sha asar. 105-b.

VI BOB. KONFLIKTLAR OLDINI OLISHNING YURIDIK USULLARI

1 §. Umumiy qoidalar

Konfliktni oldini olishning ahamiyati. Konfliktning oldini olish, albatta, sodir bo‘lgan konfliktni to‘xtatish yoki hal qilishdan ko‘ra foydali va maqsadga muvofiqdir. Shu sababli jamiyat va davlatning asosiy kuch-g‘ayrati konfliktlarning oldini olishga qaratilgan bo‘ladi. Bu asosan ijtimoiy manfaatlar va qadriyatlarga, fuqarolarning mulki, sog‘lig‘i, hayotiga xavf tug‘diruvchi davlatlararo va kriminal konfliktlar bilan bog‘liq. Davlatlararo konfliktlarni oldini olishga BMTning Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyasi kabi organlari, shuningdek, hududiy harbiy-siyosiy tashkilotlar doimo e’tiborni qaratib keladilar.

Shu bilan birga konfliktlarni oldini olishning samaradorligi hozirgi kunda yuqori emas. Bu hol shu bilan izohlanadiki, konfliktgta uning ilk bosqichida, ayniqsa, latent bosqichida chetdan aralashish kabi to‘sqliarga uchraydi. Bir tomondan bunday aralashuv ijtimoiy foydali, ko‘pincha zarur va har qanday holda ham natijali bo‘ladi.

Boshqa tomondan esa konflikt ko‘pincha tomonlarning xususiy ishi deb hisoblanadi. Boshqa shaxslarning xususiy ishlariga aralashmaslik nuqtayi nazaridan o‘z ta’sirini o‘tkazish, tomonlarni yarashishga yoki muayyan xatti-harakatlarni bajarishga majburlash noto‘g‘ri, noaxloqiyidir. Shu sababli konflikt shaxsiy (guruhiy) munosabatlar doirasidan chiqib ketib, o‘z faolligi ko‘lami, obyektiga ko‘ra boshqa tomonlarning hayotiy manfaatlariga daxldor ijtimoiy ahamiyatga ega hodisaga aylanish vaqtidagina konfliktgta aralashish mumkin.

Konfliktning oldini olish qarama-qarshilik vujudga kelgunga qadar konflikt elementlariga: ishtirokchilariga, ularning harakatlari motivlariga, obyektlariga, foydalananigan kuchlari va vositalariga ta’sir ko‘rsatishdir. Shu bois konflikt xarakteriga qarab uning oldini olish faoliyat turlicha bo‘lishi mumkin.

Sabablarni bartaraf etish. Konfliktlarni oldini olishning eng samarali shakllaridan biri uning sabablarini bartaraf etish hisoblanadi. Bu faoliyat turli darajalarda namoyon bo‘ladi.

Umumijtimoiy darajada gap jamiyat va davlat hayotiga xavf tug‘diruvchi yirik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarni aniqlash va yo‘qotish haqida boradi. Iqtisoddagi beqarorliklar, aholi keng qatlamlarining turmush darajasi va sifati o‘rtasidagi keskin farq, siyosiy tarqoqlik, boshqaruv tizimining samarasizligi va uyushmaganligi – bularning barchasi katta va kichik, ichki va tashqi konfliktlarning doimiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning oldini olish butun jamiyat manfaatlarida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy siyosatni izchillik bilan olib borishni, huquqiy tartibot va qonuniylikni mustahkamlashni, odamlarning ma’naviy madaniyatini oshirishni taqozo qiladi.

Konfliktlarning umumijtimoiy ko‘lamda oldini olish maqsadlarida ijtimoiy hayotda vujudga keluvchi ko‘p sonli konfliktlarni aniqlash va o‘rganish, konfliktologik tadqiqotlarni rivojlantirish zarur. Ishlab chiqarishda, turmushda, dam olish sohasida har bir konflikt aniq sabablarga ko‘ra va muayyan sharoitlarda yuzaga keladi. Alovida olingen konfliktlardagi muayyan sabablar turmushning u yoki bu sohasidagi umumiyyat muammolar va ziddiyatlarni ifodalaydi. Shu sababli eng ko‘p tarqalgan konfliktli holatlarning vujudga kelishi obyektiv sabablarini tushuntirish va tahlil etish kechiktirib bo‘lmaydigan qarorlar chiqarilishini talab etuvchi ijtimoiy muammolar doirasini aniqlashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

2 §. Konfliktni institutlashtirish

Institutlashtirishning vazifasi. Konfliktlarni oldini olishning aniq usullaridan biri bo‘lgan **institutlashtirish** eng ko‘p tarqalgan usuldir. Uning mohiyati shundaki, konflikt o‘sib borgan sari konfliktda ishtirok etuvchi taraflarning manfaatlarini ifoda etuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi turli komitetlar, partiyalar, tashkilotlarni tuzish yuzasidan harakatlar amalga oshiriladi. Bu jarayon konflikt ishtirokchilarining tarqoq va izchil bo‘limgan talablari, e’tirozlar, maqsadlarining tartibga solinishiga olib keladi. Vosittachilik tashkilotlarini tuzishga qaratilgan ishlar olib boriladi, bu tashkilotlar nosiyosiy institutlarning kompetentli, xolis, demokratik kayfiyatga ega vakillaridan shakllantiriladi. Institutlashtirish jarayoni konfliktlarning borishini tartibga solish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, u konfliktni bartaraf qilishning muayyan potensial qiyinchiliklaridan xoli emas. Institutlashtirish jarayonining ziddiyatliligi shundaki, konfliktli voqealar to‘lqinida vujudga kelgan tashkilotlar oddiy ishtirokchilar doirasining manfaatlaridan farq qiluvchi o‘zining juda tor manfaatiga ega bo‘lishi mumkin. Umuman bu konfliktli vaziyatni murakkablashtiradi, ba’zida uning hal etilishi bunday tashkilot o‘z obro’si va ta’sirini saqlab turgunicha yo‘qqa chiqarishi mumkin.

Agar konfliktlarni jiddiy bartaraf etishning imkonи bo‘lmasa va ishtirokchi taraflarning faqat bittasi ustunlikka ega bo‘lgan hollarda institutlashtirish jarayoni konfliktlarni tartibga solish va bartaraf etishning zamонави, ма’рифий тартиби hisoblanadi.

Ijtimoiy konfliktlarni hal qilishning bunday ma’rifiy usuli hozirgi zamон g‘arb demokratiyasi uchun tipik hisoblanadi. R. Dalning fikricha, demokratik sharoitlarda zo‘rlik ishlatisning imkoniyatlari cheklanadi. U faqat butun bir jamiyatda o‘z tarafdarlariga ega bo‘limgan kamchilikka nisbatan istisno hollarda qo‘llanilishi mumkin. Ijtimoiy muammolarni hal etishning asosiy usuli bu ularni tinch yo‘l bilan hal etishdir. U konfliktlarni tinch yo‘l bilan borishini ta’minlovchi eng qulay yettita shartni sanab ko‘rsatgan:

— maslahatlar va muzokaralar olib borish, manfaatlarni o‘rganish, o‘zaro

foydali yechimlarni qidirish tarafдорлари bo‘lgan institutsional tuzilmalarning mavjudligi;

- muammolar samarali hal qilishni nazarda tutgan bitimlarning keng doirasi;
- konfliktlar kumulyativliligining mavjud emasligi;
- keng iqtisodiy imkoniyatlar (to‘kin-sochinlik);
- avvalgi konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilinishi natijalari haqida fuqarolarning ijobjiy xabardorligi;
- foydalaniishi mumkin bo‘lgan kuch ishlatalish vositalarining taraflar o‘rtasida teng bo‘lishi;
- tinch yo‘l bilan hal qilishga imkon beruvchi yetarli sharoitlarning ko‘p bo‘lishi¹.

3 §. Normativ mexanizmlar

Konfliktlarni normativ tartibga solish. Konfliktni institutlashtirish haqida gapirganda uni tartibga solishdagи normativ yondashuvning ahamiyatini alohida ta’kidlash zarur. Xulq-atvor normalarini ma’lum darajada institutsional tuzilma deb hisoblash mumkin, institutlar tegishli normalarsiz amal qilmaydi. Konflikt insonlar o‘rtasidagi har qanday munosabat kabi u yoki bu darajada ijtimoiy xulq-atvor normalari bilan tartibga solinadi. Bunda turli ko‘rinishda va mazmundagi normalar amal qiladi: huquqiy, axloqiy, diniy, siyosiy va h.

Konfliktli vaziyatni axloqiy, diniy normalar bilan ham tartibga solish mumkin. Konflikt bilan bog‘liq axloq normalari odatda og‘zaki va umuman aniq shakllanmagan bo‘ladi. Biroq, amaliyotda axloq normalariga murojaat qilish juda kam uchraydi.

Konfliktlarning normativ tasnifi uchun huquq normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq va diniy qoidalardan farq qilib, huquq normalari qonunlar va boshqa hujjatlarda mustahkamlanadi va davlat tomonidan sanksiyalanadi. Bundan konfliktning o‘zini va sababini huquqiy baholash rasmiy xarakterga ega ekanligi va hech kimning tazyiqi bilan o‘zgartirilishi mumkin emasligi tushuniladi.

Quyida konflikt ishtirokchilarining xulq-atvoriga normaning ta’sir etuvchi mexanizmi xususida to‘xtalish lozim.

Huquq normasi, har qanday boshqa ijtimoiy norma kabi, odamlar xulq-atvoriga ta’sir etishning bir necha usullariga ega. Bu birinchidan, axborot orqali ta’sir etish: norma individ (ijtimoiy guruh)ga davlat tomonidan ma’qullanadigan xatti-harakatning variantlarini taklif etadi, u yoki bu harakatning oqibatlari haqida ogohlantiradi. Ikkinchidan, u ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi, chunki u jamiyat va davlat tan olgan qadriyatlarni e’lon qiladi.

¹Qarang: Dahl R.A. Modern Political Analysis. New-London, 1963. -P.77–78.

Uchinchidan, huquq normasi undagi talablarni e'tiborga olmaydiganlarga nisbatan ta'sir chorasini qo'llovchi majburlov kuchiga ega. Norma buzilgan taqdirda huquqni qo'llash mexanizmi harakatga keladi, huquqni qo'llash faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar va mansabdar shaxslar ishga kishadilar.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha usullar bo'yicha huquq: a) konflikt sabablariga; b) uning negizi (konfliktli vaziyat)ga; d) uning rivojlanishi va hal qilinishiga; e) konflikt yakunlanishi oqibatlariga va ishtirokchilar taqdiriga ta'sir etadi.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I. A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999.
8. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000.
9. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: O'zbekiston, 2001.
10. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston, 2002.
11. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T.: O'zbekiston, 2003.
12. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamji-hatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 400 -b.
13. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T.: O'zbekiston, 2005.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oly qadriyat. T.14. –T.: O'zbekiston, 2006.
15. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustuvor vazifamizdir. –T.: O'zbekiston, 2007.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Авдеев Е.В. Психотехнология решения проблемных ситуаций М.1992.
2. Авксентьев В.А. Этническая конфликтология: в 2 ч Ставрополь,1996.
3. Александрова Е.В. Социально-трудовые конфликты:пути разрешения М. 1993.
4. Андреев В.К. Конфликтология: искусство спора, ведение переговоров, разрешения конфликтов. Казань, 1992
5. Андреев Г.М. Социальная психология. Учебник для вузов. М., 1996.
6. Анискевич А.С. Политический конфликт. Владивосток, 1994.
7. Антонян Ю.М. Жестокость в нашей жизни. М., 1995.
8. Антология мировой политической мысли в 5 т. М., 1997.
9. Анцупов А.Я. Прошапов Л.С. Конфликтология междисциплинарный подход. М., 1996.
10. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: теория, история, библиография. М., 1996.
11. Аршба О.И. Этнополитический конфликт: сущность и технология управления. М., 1996.
12. Аш. А. Ведение в теорию конфликта// Мир политики. Суждения и оценки западных политологов. М., 1992.
13. Бабосов Е.М. Конфликтология. М., 1997
14. Белкин А.С. Конфликтология: наука гармонии. Екатеринбург, 1995.
15. Берон Р., Ричардсон Д. Агрессия. СПб., 1997.
16. Бородкин Ф.М., Коряк Н.М. Внимание: конфликт. Новосибирск, 1989
17. Боттомор Т.Б. Социологическая теория и изучение социального конфликта //Общественные науки за рубежом: РЖ. Сер. Философия и социология. 1973. №1.
18. Брайнинг Г. Руководство по ведению переговоров. М., 1996.
19. Брухан С. Плюрализм и социальные конфликты. М., 1990.
20. Бурдье П. Социология политики. М., 1993.
21. Варламова Н.В., Пахоменко Н.Б. Общественный консенсус: подходы к проблеме// Государство и право. 1992. № 9
22. Введение к теории международного конфликта. М., 1996.
23. Власть и оппозиция. Российский политический процесс XX столетия. М., 1995.
24. Ворожейник И.Е. Кибанов А.Я., Захаров Д.К. Конфликтология: Учебник – М., 2000.
25. Глухова А.В. Типология политических конфликтов. Воронеж, 1997.
26. Гостев А.А. Эволюция сознания в разрешении глобальных конфликтов. М., 1992.
27. Данакин М.С. Конфликты и технология их предупреждения. Белгород, 1993.
28. Дарендорф Р. Конфликт и свобода // Реферативный журнал. М., 1974.
29. Дарендорф Р. Современный социальный конфликт // Иностранный литература. 1993. № 4.
30. Дарендорф Р. Элементы теории социального конфликта // Социальные исследования. 1994. № 5.

31. Дмитриев А.В. Этнический конфликт: теория и практика. М., 1998.
32. Дмитриев А.В., Кудрявцев В.Н., Кудрявцев С.В. Введение в общую теорию конфликтов, М., 1993.
33. Дмитриев А.В. Конфликтология. Учебное пособие. М., 2000.
34. Ершов А.А. Личность и коллектива: межличностные конфликты в коллективе и их разрешение. М., 1976.
35. Jumayev R.Z. Umumiy konfliktlogiya. Т., 2003.
36. Забастовки 1989, 1993 г.г. в России (социалистический аспект / Под ред. А.К. Зайцева. Калуга, 1996.
37. Здравомыслов А.Г. Осетино-ингушский конфликт: перспективы выхода из тупиковой ситуации. М., 1998.
38. Косян Н.Ф. Консенсус в современных международных – правовых отношениях: международно-правовые вопросы. М., 1883.
39. Конфликты в условиях системных трансформаций в странах Восточной Европы. М., 1994.
40. Конфликтология как составляющая гражданского воспитания молодежи. / Сост. Т.В.Болотина – М., 2001 (Материалы международной научно-практической конференции.)
41. Котанджян Г.Е. Границы согласия – конфликта М., 1992.
42. Котанджян Г.Е. Этнополитология консенсуса – конфликта: Цивилизационные проблемы теории и практики. М., 1999.
43. Кочетков А.Л. На пути к гражданскому согласию М., 1992.
44. Кэмпбелл Д.Т. Реалистическая теория группового конфликта. // Психологические механизмы регуляции социального поведения. М., 1979.
45. Лебедева М.М. Политическое урегулирование конфликтов: Подходы, решения, технологии. М., 1997.
46. Маликов Н.Р. Переговоры в интересах национальной безопасности М., 1997.
47. Малышева Д.Б. Конфликты в развивающемся мире, России и СНГ: религиозный и этнический аспекты. М., 1997.
48. Нуртдинова А.Ф. Окуньков Л.А., Френкель Э.Б. Комментарии к законодательству о социальном партнерстве М., 1996.
49. Основы конфликтологии. Учебное пособие. Под. ред. Академика В.Н. Кудрявцева. М., 1992.
50. Права человека и вооруженные конфликты: Учебник для вузов./ Отв. Ред.проф. Карташкин В.А. – М.: НОРМА, 2001.
51. Поппер К. Открытое общество и его враг / Пер. с англ. Т., 1. М., 1992.
52. Романенко Л.М. Конфликты гражданского общества: Экзистенциальная дилемма современной России. М., 1996.
53. Работа с конфликтом: навыки и стратегии действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001.
54. Скотт Дж. Г. Способы разрешения конфликтов. Киев, 1991.
55. Смослянский В.Г. Национальные конфликты в СССР и СНГ (1985-1992 гг.). Улам-Удэ, 1996.
56. Юридическая конфликтология. Коллектив авторов. отв. ред. Кудрявцев В.М. М., 1995.
57. <http://www.allpravo.ru>

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. Yuridik konfliktlogiya fanining predmeti va o‘rganish metodlari	
1 §. Konfliktlogiya fani tushunchasi va predmeti	5
2 §. Yuridik konfliktlogiya fanining metodlari	7
II bob. Yuridik konfliktlarning tabiatи va turlari	
1 §. Konflikt tushunchasi, predmeti va obyekti	11
2 §. Konflikt chegaralari	16
3 §. Konflikt sabablari va motivlari	19
4 §. Shaxsni huquqiy begonalashtirish	26
5 §. Konflikt funksiyalari	33
6 §. Konfliktlar sohalari va tipologiyasi	37
III bob. Konfliktlarning rivojlanish bosqichlari va mexanizmi	
1 §. Konfliktli vaziyat	40
2 §. Konfliktning rivojlanishi	43
3 §. Konfliktning tugashi	49
4 §. Ijtimoiy tanglik	60
5 §. Konflikt ishtirokchilarining ruhiyati	62
IV bob. Konflikt ishtirokchilari	
1 §. Qarama-qarshi kurashuvchi taraflar	63
V bob. Konfliktlarni hal qilishning yuridik usullari	
1 §. Umumiy qoidalar	66
2 §. Konstitutsiyaviy tartiblar	71
3 §. Ishlarning sud tomonidan ko‘rilishi	76
4 §. Vositachilik	79
5 §. Konsensus	81
6 §. O‘zbekistonda yuridik konfliktlarni hal qilishning o‘ziga xos jihatlari	82
VI bob. Konfliktlar oldini olishning yuridik usullari	
1 §. Umumiy qoidalar	89
2 §. Konfliktni institutlashtirish	90
3 §. Normativ mexanizmlar	91
Tavsiya etilgan adapiyotlar ro‘yxati	92

D.Q. ERGESHOVA, M.K. NAJIMOV

YURIDIK KONFLIKTOLOGIYA

O‘quv qo‘llanma

Nashr uchun mas’ul M. Tursunova
Muharrir D. Ergeshova
Musahhih N. O’rolova
Sahifalovchi N. Mamanov

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100083, Toshkent, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.
Tel: 136-55-79; faks: 139-88-61

Bosishga ruxsat etildi 29.08.2007-y. Bichimi 60 x 90 $\frac{1}{16}$. Offset qog‘ozzi. Shartli
bosma tabog‘i 6,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 6,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 31.

«AVTO-NASHR» SHK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.